37. Ashley D.L., Backinger C.L., Bemmell D.M., Neveleff D.J. Tobacco regulatory science: research to inform regulatory action at the Food and Drug Administration's Center for Tobacco Products. *Nicotine Tob Res.*, 2014, no. 16 (8), pp. 1045–1049.
38. Official web page of Food and Drug Administration. Available at: <https://www.usa.gov/federal-agencies/food-and-drug-administration/>.
39. Printz C. TCORS set to support the FDA's regulatory role: program designed to generate tobacco-related research to inform policy. *Cancer Scope*, 2014, pp. 771–772.
40. Kim A.E. Influence of point-of-sale tobacco displays and graphic health warning signs on adults: evidence from a virtual store experimental study. *American Journal of Public Health*, 2014, no. 104 (5), pp. 888–895.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./IYVE1775>
UDC: 347.191:061.2(045)(575.1)

IJTIMOYIY AHAMIYATGA MOLIK LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA JAMOAT FONDRLARI ISHTIROKINI KENGAYTIRISHNING AYRIM HUQUQIY JIHATLARI

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-4703-3358
e-mail: tiu-bek@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida Endaument fondning (Endowment fund) hozirgi kundagi o'rni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish orqali Endaument fondlar faoliyatining mazmun-mohiyati, maqsadlari hamda bu boradagi ilg'or xorijiy tajriba tahlil qilingan. Ushbu maqsadga erishish uchun turli ilmiy va publitsistik maqolalar, olimlar fikri hamda statistik ma'lumotlar o'rganildi. Tadqiqot natijasida mazkur fondlarning ta'lim sohasida tutgan o'rni, rivojlangan xorijiy davlatlar tomonidan joriy etilgan jamoat fondlarining jamiyat va davlat foydasiga qo'shayotgan hissasi aniq statistik ma'lumotlar asosida bayon qilingan. Shuningdek, Endaument fond tashkiliy-huquqiy mexanizmining ilmiy-nazariy jihatlarini, ushbu fondlarning turlari va ishlash mexanizmlari tadqiq etildi. Bundan tashqari, dunyoning ikkita yirik universitetlarining Endaument fondlari faoliyati, ularni moliyalashtirish va maqsadli sarflash tartiblari bayon qilingan. Maqoladan qonun hujjatlaridan jamoat fondini tashkil qilish, uning faoliyat ko'rsatishi, mol-mulki, rahbar organlari va tugatilishi bo'yicha alohida qoidalar ham o'rin olgan. Shu bilan birga, jamoat fondlari bilan bog'liq munosabatlar alohida "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Endaument fond, vaqf tizimi, notijorat maqsadlar, investitsiya, donor (sarmoya kirituvchi), ixtiyoriy mulkiy badallar, o'quv va tadqiqot ishlari.

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РАСШИРЕНИЯ УЧАСТИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ФОНДОВ В РЕАЛИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНО ЗНАЧИМЫХ ПРОЕКТОВ

Нариманов Бекзод Абдувалиевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной исследовательской работе анализируются роль в настоящее время эндаумент-фондов, их специфические характеристики, организационные формы эндаумент-фондов, цели и передовой зарубежный опыт в данном направлении. Для достижения этой цели были изучены различные научные и публицистические статьи, мнения ученых и статистические данные. В исследовании при помощи наглядных статистических данных описывается роль этих фондов в сфере образования, вклад государственных фондов развитых стран Запада, вносимый на благо общества и государства. Также были изучены научно-теоретические аспекты таких

фондов, виды этих фондов и механизмы работы. Кроме того, описывается деятельность эндаумент-фондов двух крупнейших университетов мира, порядок их финансирования и целевого расходования средств. Кроме того, в статье упоминаются специальные положения правовых документов о создании общественного фонда, его деятельности, имуществе, органах управления и ликвидации. При этом уточняется, что отношения с государственными средствами регулируются отдельным Законом «О государственных фондах».

Ключевые слова: фонд целевого капитала, система фондов, некоммерческие цели, инвестиции, донор (инвестор), добровольные имущественные взносы, образовательная и научно-исследовательская работа.

LEGAL ASPECTS OF EXPANDING THE PARTICIPATION OF PUBLIC FUNDS IN THE IMPLEMENTATION OF SOCIALLY SIGNIFICANT PROJECTS

Narimanov Bekzod Abduvalievich,
Independent researcher,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article analyzes the issues of improving the mechanism of providing the rule-making process with scientific information. The purpose of the research is to develop relevant proposals, recommendations, and This research paper analyzes the role of endowment funds at present, their specific characteristics, organizational forms of endowment funds, goals and best foreign experience in this regard. To achieve this goal, various scientific and journalistic articles, opinions of scientists were studied in addition to statistical data. As a result of the study, with clear statistical data, the role of these funds in the field of education, and the contribution of state funds made by developed Western countries for the benefit of society and the state is described. The scientific and theoretical aspects of such funds, the types of these funds and the mechanisms of work were also studied. In addition, the activities of the endowment funds of the two largest universities in the world, the procedure for their financing and targeted spending are described. In addition, the article mentions special provisions on the establishment of a public fund, its operation, property, management bodies and liquidation from legal documents. At the same time, it is clarified that relations with public funds are regulated by a separate Law "On Public Funds".

Keywords: endowment fund, system of funds, non-commercial purposes, investments, donor (investor), voluntary property contributions, educational and research work.

Kirish

NNTning eng murakkab tashkiliy-huquqiy shakli hisoblangan jamoat fondlarining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining normalari bilan belgilanadi. Homiylik fondlari faoliyati "Homiylik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan ham tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 74-moddasi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonu-

ni 3-moddasiga muvofiq, yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, homiylik, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zolari bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e'tirof etiladi.

Jamoat fondining ustavida "jamoat" so'zi bo'lgan nom ko'rsatilishi kerak. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, nomida "fond" so'zi bo'lgan hamma tashkilotlar ham NNT hisoblanmaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respub-

lika yo'l fondi kabi davlat muassasalari ham fondidir.

Jamoat fondi ta'rifidan kelib chiqqan holda, ularning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, ular notijorat tashkilotlariga mansub, ammo a'zolik tashkilotlari hisoblanmaydi; ikkinchidan, ham jismoniy va (yoki) ham yuridik shaxslar tomonidan ta'sis etilishi mumkin; uchinchidan, ustav maqsadlarini amalga oshirish uchun mol-mulklarini shakllantirishlari shart; to'rtinchidan, muassislar tomonidan jamoat fondiga berilgan mol-mulk fondning mol-mulki hisoblanadi va uning ustavida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi; u ta'sischi o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas va garov yoki majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning boshqa usuli sifatida foydalanilishi, shuningdek, kreditlar berish uchun foydalanilishi mumkin emas; beshinchidan, jamoat fondi pul mablag'lari va boshqa mol-mulklaridan foydalanilishi to'g'risida har yillik hisobotini e'lon qilishi shart va har yili o'z faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazadi; oltinchidan, ta'sischi fondning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, fond esa ta'sischilarning majburiyatlari bo'yicha javobgar emas; yettinchidan, fondni ta'sischilarning qarori bo'yicha tugatib bo'lmaydi, bunday huquqqa manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq faqat sud egadir; sakkizinchidan, qonunchilik fondga aloqador shaxslar bilan bitimlar fondga aloqador bo'lmagan shaxslar bilan bo'lganidagiga nisbatan birmuncha qulay shartlarda amalga oshirilayotgan bo'lsa, ularni tuzishni man qiladi.

Jamoat fondining mol-mulkidan fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi. Jamoat fondi har yili o'z faoliyati to'g'risida hisobot e'lon qilib borishi shart.

Bundan tashqari, qonun hujjatlarida jamoat fondini tashkil qilish, uning faoliyat

ko'rsatishi, mol-mulki, rahbar organlari va tugatilishi bo'yicha alohida qoidalar qayd qilingan. Shu bilan birga, jamoat fondlari bilan bog'liq munosabatlar alohida "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonun bilan ham tartibga solinadi.

Buning sababi jamoat fondida nodavlat notijorat tashkilotining boshqa tashkiliy-huquqiy shakliga qaraganda, mol-mulklar fond ta'sischilari, ishtirokchilari va rahbar organlari manfaati bilan bog'liq bo'lmagan ko'proq ijtimoiy maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Shu jihatdan uning mol-mulkini ustav maqsad yo'nalishida ishlatish bo'yicha alohida qoidalar mavjud.

Biroq, bizningcha, bugungi kundagi murakkab geosiyosiy vaziyat, xususan, pandemiya sharoitida aholining ijtimoiy yordamga ehtiyoji yanada ortganligi tizimga yangi ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritish lozimligini ko'rsatmoqda.

Xorijiy tajribada mol-mulk egaligini biror ijtimoiy muassasaga o'tkazish hamda undan keluvchi foydani doimiy ravishda ma'lum ijtimoiy maqsadlarga qaratish orqali ijtimoiy masalalarni hal qilish samarali yo'lga qo'yilgan. Masalan, biror ko'chmas mulk yoki aksiyalar sotish va boshqacha tartibda begonalashtirmaslik sharti bilan ijtimoiy maqsadlarda tashkil qilingan jamoat fondlariga o'tkazib beriladi. Bu mol-mulk ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulk tushunchasi bilan ifodalanadi.

O'z mol-mulkini jamoat fondiga topshirgan shaxs mazkur mulkka nisbatan egalik huquqini yo'qotadi, lekin mazkur mol-mulk boshqa biror shaxsning mulkiga aylanmaydi. Mazkur jamoat fondlari mol-mulkni tasarruf etmagan holda, undan keluvchi foydani ijtimoiy maqsadlarga doimiy ravishda yo'naltiradi.

Material va metodlar

Maqolada tarixiylik, analiz va sintez, qiyoсий tahlil metodlari hamda tizimli, funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Yevropa davlatlarida bu tushuncha ko'proq trast mol-mulkleri hamda trast fondlari tushunchasi bilan bog'liq. Ushbu institutni NNTlar faoliyatiga samarali tatbiq qilish va ular faoliyatini moliyaviy ta'minlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar (P. Awasthy [1], N. Suresh [2], V.C. Keating, E. Thrandardottir [3]) o'tkazilganligini ham qayd etish zarur.

Aholisining aksariyati musulmonlar bo'lgan mamlakatlarda bu tushuncha vaqf mol-mulki hamda vaqf muassasalari bilan bog'liq. Xususan, bu sohada Turkiya Respublikasida ijtimoiy munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq samarali yo'lga qo'yilgan [4].

Tasarruf etilishini to'xtatgan holda, ijtimoiy maqsadlarda foydalanishi va egalik qilishini muddatsiz doimiy (davomiy) ravishda boshqa shu maqsadlarda tashkil qilingan tashkilotlarga o'tkazilgan mulklar ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulk deyiladi [5].

Milliy qonunchiligimizda bunday mol-mulklarning huquqiy maqomlari bo'yicha normalar mavjud emas. Shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulkning aniq ijtimoiy maqsadlarda sarflanishi hamda boshqa maqsadlarda tasarruf qilinmasligi milliy qonun hujjatlarimiz bilan qat'iy himoya qilinmagan hamda mazkur sohada ma'muriy tartib-taomillar doirasida nazorat qilish mexanizmlari to'liq takomillashmagan.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishda endowment fondlarning ahamiyati nihoyatda yuqori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida oliy ta'lim muassasalarida homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital hamda boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladigan endowment jamg'armalarini (endowment fund) tashkil etish belgilangan.

Endowment fund – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoli bo'lmagan hamda tashkiliy-huquqiy shakli jamoat fondi bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotdir.

Bunday jamoat fondlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda fondlarning ta'sis hujjati bo'lgan ustavlari asosida amalga oshiradi hamda notijorat maqsadlarda ishlatish uchun mo'ljallangan, aksariyat hollarda ta'lim, tibbiyot, madaniyat va fan sohasidagi tashkilotlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Universitetlarda endowment daromadlaridan oqilona foydalanish ilmiy adabiyotlarda muhokama qilingan va amaliy tadqiqotlarda sinovdan o'tgan. Xususan, Nobel mukofoti sovrindori Jeyms Tobin investitsiyalarni sarflashda *avlodlararo tenglik konsepsiyasini* ilgari surgan. Tobinning ushbu konsepsiyasiga ko'ra, universitetlarga o'z kapitalini kelajak uchun saqlab qolish va fond hisobidan 30 % xarajatlarni qoplash imkoniyatini beradi [6].

Ko'pchilik olimlarning fikricha, Endowment fundni qadimgi arab davlatlaridagi vaqf tizimining g'arbcha shakli sifatida sanashga bir qancha asoslar mavjud. Jumladan, tarixiy faktlarga ko'ra, *milodiy XV-XVI asrlarda* G'arb davlatlaridagi dastlabki vaqf hujjatlari undan avvalroq arab mamlakatlarida joriy etilgan vaqf tizimi bilan o'zaro o'xshash ekanligi tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan.

Faqat Islom vaqf hujjatlari *basmala, hamd* va *na't* bilan boshlanishi, g'arbdagi vaqflar Iso alayhissalomga aytilgan so'zlar bilan boshlanishini hisobga olmasa, hujjat rekvizitlari (shakli, iboralarning ishlatilishi, haqlarning belgilanishi) ayni bir xilda bo'lgan [7]. Endowment fondlar notijorat tashkilot egalik qiladi-

gan (masalan, shifoxona, maktab, universitet) investitsiya fondining bir turi bo'lib, donorlar (sarmoya kirituvchilar) tomonidan moliyalashtirib turiladigan, umumiy va maxsus ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Mazkur fondagi mablag'lar tez-tez muayyan maqsadlarda sarflanadi.

Fondni sharqiy davlatlarga xos bo'lgan "vaqf tizimi" sifatida sanash mumkin. Jamg'armaga donorlar mablag' kiritadi va bu mablag'lar qanday maqsadlarda sarflanishini ham aytib o'tish mumkin. Masalan, dunyoga mashhur Stenford, Harvard kabi universitetlarda ham Endaument fond tashkil etilgan bo'lib, ushbu universitetni tamomlagan, o'z karyerasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan bitiruvchilar o'z ixtiyorlari bilan o'zlaridan keyin ta'lim olayotgan avlod uchun moddiy yordam ko'rsatish maqsadida pul mablag'larini xayriya qiladilar.

Ushbu fondlarni "G'arb vaqf tizimi" deb qarajak, bu fondlardan universitetlarga dunyoning eng salohiyatli, eng aqlli talabalari, shu bilan birga, professor-o'qituvchilarini o'ziga jalb qilish hamda o'zida ushlab turish maqsadida foydalaniladi. Bu vaqf fondlar, asosan, shu universitetni o'z vaqtida bitirgan, hozirda boy kishilar tomonidan moliyaviy xayriyalar hisobiga ta'minlanadi. Prinston universiteti bitiruvchilari orasida Google rahbarlari Jef Bezos, Erik Shmidt; AQSh prezidentlari Jeyms Medison va Vudro Uilson; Mishel Obama va boshqa mashhur va juda boy insonlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shunday fondlarning mavjud bo'lishi, ilm va erkin tadqiqotlar ravnaqi, davlat salohiyati va iqtisodiyoti rivojlanishi yetuk kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Endaument fond deganda, biz shuni tushunamizki, donor (sarmoya kirituvchi) notijorat tashkilotga katta aktivlar beradi. Ushbu aktivlar, odatda, aksiyalar, obligatsiyalar yoki boshqa turdagi investitsiya vositalariga sarmoya qilinadi. Investitsiya kiritgan tashkilot ushbu aktivlar qanday sarflanishi mumkinligini belgilaydi. Agar notijorat tashkilot

universitet bo'lsa, donor ularning jamg'arma fondi faqat stipendiyalar, professorlar yoki tadqiqot dasturlarini moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkinligini aytishi mumkin.

San Diego Foundation tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, "*Endowment fund*"larning uchta asosiy turi mavjud [8]:

I. Cheklangan fond

Cheklangan fondga mablag' kiritgan shaxs uni qanday maqsadlarda sarflash kerakligini shaxsan o'zi belgilab beradi. Fond donorning ruxsatisiz o'zi mablag'ni muayyan maqsadlarda tasarruf etishga haqli emas. Masalan, Harvard universiteti bitiruvchisi Endaument fondga muayyan miqdordagi mablag'ni xayriya qiladi va bu pullar iqtidorli talabalarga stipendiya tariqasida berilishi kerakligini ham aytib o'tadi. Bunday vaziyatda universitet ushbu mablag'ni professorlar oyligini to'lash yoki yangi kutubxona yoxud zamonaviy laboratoriya tashkil etish uchun sarflashi mumkin emas.

II. Cheklanmagan fondlar

Bunday fondga kelib tushgan pulni tasarruf etishda hech qanday cheklov bo'lmaydi. Ushbu mablag'ni tasarruf etuvchi shaxs mustaqil bo'ladi. Masalan, bu pullar orqali yangi kutubxona qurilishi yoki kam ta'minlangan shaxslarga moliyaviy yordam berilishi mumkin.

III. Nisbatan cheklangan fondlar

Bunday mablag'lar donor tomonidan emas, balki fond rahbari tomonidan cheklanadi. Shuningdek, mablag'lar uzoq vaqt davomida saqlanib turishi kerak, ya'ni jamg'armadagi barcha pullar birdaniga sarflanishi mumkin emas.

Fondlarning qaysidir ma'nodagi salbiy jihati shunda namoyon bo'ladiki, ularning mablag'larini sarflash ustidan nazoratning o'rnatilganligi mablag'larning maqsadli sarflanishi lozimligidir. Fondlarda investitsiya daromadlarining qancha qismini sarflash mumkinligi belgilanib, bu, asosan, 3 %dan 7 %gacha bo'lib, 4,5 % – bu 100 mln AQSh dollari sarmoyasi bor fondlar uchun o'rtacha

ko'rsatkich hisoblanadi. Ya'ni o'rtacha hisobda 100 mln dollar bo'lgan jamg'arma fondini yiliga 4,5 mln dollar xarajatga ajratishi mumkin.

Dunyodagi eng yirik Endowment Fund lar Stenford universitetida – 75,1 mlrd dollarlik, Harvard universitetida – 72,7 mlrd dollar, Yale universitetida – 56,2 mlrd dollar, Massachusetts texnologiyalar institutida 42,5 mlrd dollarni tashkil etadi.

Quyida Stenford va Harvard universitetlari fondi faoliyati tahlil qilinadi.

Stenford jamg'armasi 75,1 mlrd dollarga baholangan. Bunday katta pullar bilan Stenford nima uchun ko'proq mablag' sarflay olmaydi? Bu mablag'lar ko'plab ishlarni amalga oshirishga imkon beradi, lekin undan qanday foydalanish mumkinligi haqida cheklovlar mavjud. Har yili Stenford Endowment fondi operatsion xarajatlarning taxminan 20 %ni moliyalashtiradi va universitet o'zining operatsion xarajatlarni qo'llab-quvvatlash uchun jamg'armaning bir qismini ajratadi. Masalan, 2020-2021-moliyaviy yil boshida Stenford jamg'armasi 28,9 mlrd dollarga baholangan. 1,33 mlrd dollarlik xayriya to'lovi – jamg'arma qiymatining 4,6 %, universitetning 6,2 mlrd dollarlik operatsion xarajatlarni 21 %ini qoplagan.

Ushbu to'lov universitetning deyarli barcha qismi, jumladan, moliyaviy yordam, talabalar xizmatlari, professor-o'qituvchilarning ish haqi, tadqiqot, kutubxonalar va atletikani qo'llab-quvvatlaydi. Stenford o'zining qolgan operatsion xarajatlarni boshqa manbalardan, masalan, tadqiqot grantlari va kontraktlari, talabalar o'qishi va to'lovlari, sog'liqni saqlash daromadlari va bitiruvchilar, otalalar va do'stlarning sovg'alaridan moliyalashtirishi kerak.

Ko'pgina tengdosh institutlar singari Stenfordning yillik to'lov stavkasi taxminan 5 %ni tashkil qiladi. Ushbu to'lov har yili bozor ko'rsatkichlari, inflyatsiya va boshqa omillar asosida aniqlanadi. Stenford fondining qariyb 80 % cheklangan yoki maxsus maqsadlar uchun

mo'ljallangan. Jamg'arma, aslida, donorlar tomonidan tashkil etilgan 7 300 dan ortiq turli fondlarni o'z ichiga oladi.

Ularning aksariyati birinchi avlod kollej talabalarini qo'llab-quvvatlash yoki ma'lum bir ta'lim sohasini rivojlantirish kabi aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan. Stenford ushbu mablag'lardan maqsadli foydalanish uchun qonuniy va ishonchli majburiyatlarga ega. Misol uchun, jamg'armadan to'lov bakalavriat va magistratura talabalariga moliyaviy yordamning eng katta manbayi hisoblanadi. Stenford bakalavriat talabalarining ko'rsatilgan ehtiyojlarini kreditlar emas, balki stipendiyalar orqali qondirish majburiyatini olgan kam sonli institutlardan biridir [9].

Bitiruvchilar va homiyarlar yordamida Stenford o'zi qilayotgan har bir narsani qo'llab-quvvatlashda davom etishi mumkin. Stenford jamg'armasi 17 000 ga yaqin talaba va 2 300 nafar o'qituvchi, yettita maktab va o'nlab markazlar, institutlar va dasturlarni qo'llab-quvvatlaydi. Agar mablag'lar barqaror sur'atda sarflanishda davom etsa, u orqali ko'plab ishlarni amalga oshirish mumkin. Bitiruvchilar va do'stlar tomonidan taqdim etilgan pul mablag'lari va qimmatbaho xayriyalar bunga imkon beradi.

1991-yilda tashkil etilganidan buyon Stenford Management Company (SMC) katta natijalarga erishdi hamda Stenfordning ish faoliyatini AQSh kollejlari va universitetlari orasida eng yuqori o'ringa joylashtirdi.

Harvard qisman jamg'arma tomonidan moliyalashtiriladi. Endowment fondi mablag'larining aksariyati Harvardning o'quv va tadqiqot ishlarining muayyan jihatlarini qo'llab-quvvatlash uchun beriladi. Universitetning eng yirik moliyaviy aktivi bo'lgan Harvard Endowment fondi universitet, uning o'qitish va tadqiqot ishlari uchun doimiy qo'llab-quvvatlash manbayi hisoblanadi. *Ikkita eng katta miqdordagi mablag'lar professor-o'qituvchilar va talabalarni qo'llab-quvvatlaydi.* Jumladan, professor va bakalavrlar uchun moliyaviy yordam, magistratura sti-

pendiyalari beriladi hamda talabalar hayoti va faoliyatini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladi.

Harvard Endaument fondi universitetining o'quv va tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlaydigan maxsus va doimiy moliyalashtirish manbayidir. Yagona tashkilot sifatida investitsiya qilingan, 14 000 dan ortiq shaxsiy mablag'lardan tashkil topgan jamg'arma daromadlari yetakchi moliyaviy yordam dasturlari, ilmiy tadqiqotlardagi yangi kashfiyotlar va keng ko'lamli akademik sohalar-da yuzlab professorlar unvoniga ega bo'lish imkonini beradi. Har yili jamg'armaning bir qismi universitet byudjetini qo'llab-quvvatlash uchun yillik taqsimot sifatida to'lanadi. Shu bilan birga, bu yillik taqsimotdan ortib qolgan har qanday mablag' jamg'armada saqlanib qolishi natijasida ko'payib boradi va kelajak avlodlarni qo'llab-quvvatlaydi. Oqibatda jamg'arma kelgusi avlodlar uchun universitetdagi moliyaviy asos bo'lishi mumkin. Harvard Endaument fondidan ajratilgan mablag'lar universitetni moliyalashtirishning muhim manbasini ta'minlaydi. Jamg'arma 2022-yil 30-iyunda yakunlangan moliyaviy yilda 2,1 mlrd dollar taqsimlagan va o'sha yildagi Harvardning umumiy operatsion daromadining uchdan biridan ko'prog'ini tashkil etgan. Garvard Endaument fondini tashkil etuvchi mablag'larning katta qismi ma'lum dasturlar, universitet kafedralari yoki boshqa maqsadlarga (maxsus stipendiyalar, nomdor professorlar va h. k.) yo'naltirilgan mablag'dir va belgilangan shartlarga muvofiq sarflanishi kerak.

Ushbu mablag'lardan to'lov faqat fondning belgilangan maqsadini qo'llab-quvvatlash uchun sarflanishi mumkin. Harvard jamg'armasining 20 foizidan kamrog'ini tashkil etuvchi cheklanmagan mablag'lar tizimli operatsion xarajatlar va transformativ, strategik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Harvardning o'n ikkita maktabining har biri o'z ulushiga ega-lik qiladi. Jamg'armani tashkil etuvchi mab-

lag'larning 80 foizdan ortig'i donor tomoni-dan ma'lum bir maktabga ajratiladi. Maktab daromadlari profillari juda xilma-xil bo'lib, ularning har biri o'z mablag'idan o'z byudjetining boshqa qismini oladi.

Jamg'arma universitet byudjetini qo'llab-quvvatlovchi eng katta daromad manbayi bo'lib qolmoqda. Joriy moliya yilida operatsiyalar uchun ajratilgan mablag'lar universitet daromadining 36 %ini tashkil etdi. Jamg'arma fondlari universitet faoliyatining deyarli barcha jihatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Mablag'larning ikkita eng katta ulushi professor-o'qituvchilarning ish haqi, shu jumladan, professorlik darajasi va bakalavrlar uchun moliyaviy yordam, magistratura stipendiyalari, talabalar hayoti va faoliyatini qamrab oladi. Harvard, shuningdek, akademik dasturlar, kutubxonalar, san'at muzeylari, obyektlar va boshqa ko'plab tadbirlarni qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalarga ega.

Harvard Menejment kompaniyasi (Harvard Management Company) notijoriy tashkilot bo'lib, 1974-yildan beri Harvard universitetining jamg'arma portfelini boshqarib keladi. HMC universitetning ta'lim va tadqiqot maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun kuchli investitsiya natijalarini ishlab chiqarishning yagona missiyasiga ega. Mazkur kompaniya Harvard kolleji prezidenti va stipendiatlari tomonidan tayinlangan direktorlar kengashi tomonidan boshqariladi [10].

Universitet yoki maktab huzurida shunday fond tuzilsa, jamg'arma fondi faqat stipendiyalar, professorlar yoki tadqiqot dasturlarini moliyalashtirish uchun ishlatilishi asnosida ilm-fan, innovatsiya va ta'limni jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi vujudga kelishiga zamin yaratiladi.

Xulosalar

Yuqorida qayd qilingan fikrlarga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va boshqa nazorat shakllarini olib borish bilan bog'liq qonun hujjatlariga ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulkni tasarruf qilish va rasmiylashtirishga oid qu-

yidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi:

- ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulk muayyan qiymatga ega bo'lib, daromad keltiruvchi yoki ijtimoiy maqsadlarda foydalanish xususiyatiga ega bo'lishi lozimligi;

- ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulk uchun ajratilgan mol-mulk notarial rasmiylashtiriladigan shartnoma asosida aniq ijtimoiy maqsadlarni ko'rsatgan holda, jamoat fondlari yoki shu maqsadda tashkil qilingan tashkilotlarga o'tkazilishi;

- ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulkning aniq ijtimoiy maqsadlarda sarflanishi va tasarruf qilinmasligi qonun hujjatlari bilan himoya qilinishi;

- ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulkni beruvchi shaxs yoki uning merosxo'rlari ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulkni olgan jamoat fondidan uning ijtimoiy maqsadlarda sarflanishi yuzasidan hisobot olish mumkinligiga oid qoidalar.

Ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulkni olgan jamoat fondlariga qo'shimcha ravishda quyidagi talablar qo'yilishi zarur:

- jamoat fondi qayta tashkil etilganda, uning huquqiy vorisi qayta tashkil etilgan jamoat fondining ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulk tasarruf qilinmasligi hamda aniq ijtimoiy maqsadlarda foydalanish bo'yicha barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi zarur;

- jamoat fondi tugatilganda, uning ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulki tegishli maqsadda tashkil qilingan boshqa jamoat fondiga o'tkazilishi lozim.

Bunda mol-mulkni qabul qilib olgan jamoat fondi tugatilgan fondning mol-mulkini aniq ijtimoiy maqsadlarda foydalanish bo'yicha barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Tugatilayotgan jamoat fondining ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulki maqsadiga mos bo'lgan jamoat fondi mavjud bo'lmasa, sud tugatilayotgan fondning tugatuvchisi zimmasiga mazkur fondning ijtimoiy yo'naltirilgan mol-mulki shu maqsadda jamoat fondi tashkil qilingunga qadar saqlanishini yuklashi lozim.

REFERENCES

1. Awasthy P. et al. Trust in humanitarian operations: a content analytic approach for an Indian NGO. *International Journal of Production Research*, 2019, no. 9, pp. 2626–2641.
2. Suresh N. A Practical Approach to Taxation and Accounting of Charitable Trusts, NGOs & NPOs. Wolters Kluwer India Pvt Ltd, 2017.
3. Keating V.C., Thrandardottir E. NGOs, trust, and the accountability agenda. *The British Journal of Politics and International Relations*, 2017, pp. 134–151.
4. Kilic I. Paradoxes of Feminist Stances in "New Turkey": Reconceiving NGO-State Relationships in the Case of KAMER. 2019.
5. Sunata U., Tosun S. Assessing the civil society's role in refugee integration in Turkey: NGO-R as a New Typology. *Journal of Refugee Studies*, 2019, pp. 683–703.
6. Dyachkova E. Managing endowment fund income in universities. *Voprosy obrazovaniya – Questions of Education*, 2016, no. 1, pp. 225–244.
7. AQShdagi vaqf tizimidan o'rnak olsak arziydi [It is worth taking an example from the waqf system in the USA]. Available at: <http://azon.uz/content/views/aqshdagi-vaqf-tizimidan-urnak-olsak-arzi/>.
8. What is an Endowment Fund? Available at: <https://www.sdfoundation.org/news-events/sdf-news/what-is-an-endowment-fund/>.
9. Official website of Stanford University. Available at: <https://giving.stanford.edu/>.
10. Official website of Harvard University. Available at: <https://www.harvard.edu/>

11. Haas U., Neumayer L. Vereinsgerichte – eine rechtsvergleichende Untersuchung zum deutschen, österreichischen und schweizerischen Recht [Association courts - a comparative study of German, Austrian and Swiss law]. *Recht und Realität – Law and Reality*, 2017, pp. 842–871.

12. Marx R. Vorstandsarbeit im gemeinnützigen Verein: Zwischen unentgeltlicher Geschäftsführung und Haftungsrisiko [Board work in a non-profit association: Between free management and liability risk]. 2016.

13. İlğün-Birhimeoğlu E. Vereine als Orte der Produktion und Manifestation von symbolischer Ordnung. Symbolische Ordnung und Bildungsungleichheit in der Migrationsgesellschaft [İlğün-Birhimeoğlu E. Associations as Places of Production and Manifestation of Symbolic Order. Symbolic order and educational inequality in the migration society]. Wiesbaden, 2016, pp. 343–355.

14. Romanovskaya O. V. Pravovoy status inostrannogo agenta [Legal status of a foreign agent]. *Citizen and Law*, 2020, no. 1, pp. 36–48.

15. Martínez-Villarreal A.A. et al. A case series and a review of the literature on foreign modelling agent reaction: an emerging problem. *International Wound Journal*, 2017, no. 3. pp. 546–554.

16. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi – Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan*, 1999, no. 5.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./MMIO6304>
UDC: 347.9(045)(575.1)

THE MEANING OF THE CONCEPT OF ELECTRONIC GOVERNMENT IN UZBEKISTAN AND FOREIGN EXPERIENCE

Jurayev Sherzod Yuldashevich,
Associate Professor, Department of
Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences
ORCID: 0000-0003-3857-9751
e-mail: sh.jurayev@tsul.uz

Abstract. *The article discusses the concept of “electronic government”. Electronic government forms due to the use of informative and communicative technology by the executive organs of state power. In the scientific sphere, several terms are used, at first glance similar to their content: “electric state government”, “electronic government” and “electronic management”. The variety of terms used in scientific literature is conditioned by the fact that the term “e-government” used in foreign “electronic government” most of the time can be named as similar to the understanding of English electronic government, as in foreign politic law doctrine this term is used for writing the processes, happening in the state as a whole and affecting all three branches of state power. “The English term “e-government” is considered as “electronic government”. However, in foreign politics, in the literature, for the purpose of researching the changes that occur in the state administration, in connection with the use of informative and communicative technology, “e-governance” is used. In this case, the terms “e-government” and “e-governance” are denoted by their meaning. Besides, on the basis of political law in foreign countries, two principles for the definition of the concept of electronic government: narrow and wide (general theoretic) are investigated in the article. The definition of electronic government is stated to be a tool that accompanies the changes in the system of executive power, the usage of the internet and other digital technology in these types of organs with the aim of offering services, information, and provision of democratic procedures, the increased transparency of executive power. The opinions of scientists in the field of electronic government are analyzed and appropriate conclusions are drawn. The trends in the introduction of information technologies in the activities of executive bodies in the provision of public services to the population are considered.*

Keywords: *electronic state, electronic government, electronic management, electronic administration, informational technology, e-government, e-governance.*

O'ZBEKISTONDA “ELEKTRON HUKUMAT” TUSHUNCHASI MOHIYATI VA XORIJIY TAJRIBA

Jurayev Sherzod Yuldashevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi
dotsenti v. b., yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya. *Maqolada “elektron hukumat” tushunchasi muhokama qilinadi. Davlat hokimiyati ijroiya organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi hisobiga elektron hukumat shakllanadi. Ilmiy sohada bir qarashda ularning mazmuniga o'xshash bir nechta atamalar qo'llanadi: “elek-*

tron davlat hukumati”, “elektron hukumat” va “elektron boshqaruv”. Ilmiy adabiyotlarda qo'llanayotgan atamalarining xilma-xilligi shundan kelib chiqadiki, xorijiy adabiyotlarda foydalanilayotgan “elektron hukumat” atamasi Rossiya va milliy qonunchiligimizda turli mazmundagi ma'nolarda ko'rib chiqilishi bilan bog'liq. “Elektron davlat” atamasi aksariyat hollarda “e-government” atamasi ma'nosida ishlatilib, bunda xorijiy davlatlarning uchta hokimiyat tarmog'i faoliyatini bevosita o'z ichiga oladi. Xorij ilmiy doktrinasida inglizcha “elektron hukumat” atamasi “elektron boshqaruv” atamasi sifatida foydalaniladi. Lekin xorijiy mamlakatlarning siyosiy-huquqiy adabiyotlarida davlat boshqaruvida axborot texnologiyalaridan foydalanish munosabati bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish maqsadida “e-governance” instituti qo'llanadi. Shu bilan birga, maqolada “elektron hukumat” va “e-governance” atamalari to'g'ridan to'g'ri farqlanishi va bu atamalarining o'zaro munosabati keltiriladi. Maqolada xorijiy mamlakatlarning siyosiy-huquqiy doktrinasida “elektron hukumat” tushunchasini aniqlashning ikkita yondashuvi ham ko'rib chiqiladi: tor va keng (umum nazariy). Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida hukumatning o'z funksiyalarini amalga oshirishda internet resurslaridan foydalanish istiqbollari, bu jarayonda ijro hokimiyati organlarining ochiqlik masalasi tahlil qilingan. Elektron hukumat sohasidagi olimlarning fikrlari o'rganilib, tegishli xulosalar berildi. Bundan tashqari, maqolada aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida ijro hokimiyati organlari faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish tendensiyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: elektron davlat, elektron hukumat, elektron boshqaruv, axborot texnologiyalari, e-government, e-governance.

ЗНАЧЕНИЕ ПОНЯТИЯ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Жураев Шерзод Юлдашевич,

кандидат юридических наук, и. о. доцента кафедры
«Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматривается понятие «электронное правительство». Электронное правительство формируется вследствие использования информационно-коммуникационных технологий исполнительными органами государственной власти. В научном обороте используется несколько терминов, на первый взгляд схожих по своему содержанию: «электронное государство», «электронное правительство» и «электронное управление». Многообразие используемых в научной литературе терминов обусловлено тем, что применяемый в зарубежной литературе термин «e-government» рассматривается в отечественной правовой доктрине сразу в нескольких значениях. Термин «электронное государство» в наибольшей степени соответствует английскому термину e-government, поскольку в зарубежной политико-правовой доктрине данный термин употребляется для описания процессов, происходящих в государстве в целом и затрагивающих все три ветви государственной власти. Английский термин e-government рассматривается как электронное управление. Но в зарубежной политико-правовой литературе для целей исследования изменений, происходящих в государственном управлении в связи с использованием информационно-коммуникационных технологий, используется термин e-governance. При этом прямо разграничиваются термины e-government и e-governance, даются соотношения этих терминов. Также в статье исследуется на основе политико-правовой доктрины зарубежных стран два подхода к определению понятия электронного правительства: узкий и широкий (общетеоретический). Дается определение электронного правительства как инструмента, сопровождающегося изменениями в системе исполнительных органов государственной власти, использованием такими органами Интернета и иных цифровых технологий с целью предоставления услуг, информации, а также обеспечения демократических процедур, повышения открытости исполнительных органов. Анализируются мнения ученых

в сфере электронного правительства и приводятся соответствующие выводы. Кроме того, рассматриваются тенденции внедрения информационных технологий в деятельность исполнительных органов при оказании публичных услуг населению.

Ключевые слова: электронное государство, электронное правительство, электронное управление, электронная администрация, информационные технологии, e-government, e-governance.

Introduction

With the development of digital informational technology, the relationship with the principle of “government-society-person” takes up more of a new format. In recent years, legal acts of high importance were accepted, such as the law of the Republic of Uzbekistan № 3RU-395 “About electronic government” dated 09.12.2015, the decree № PP-4699 of the President of the Republic of Uzbekistan “About measures for the wide implementation of digital in the economy and electronic government” 28.04.2020, the decree of the Ministry of Uzbekistan no. 409 “About measures for organizing the activities of certain organizations in the system of the ministry for the development of informational technologies and communications of the Republic of Uzbekistan” dated 25.06.2020 and etcetera. All of the above-mentioned legal acts prevent the bureaucracy of state government in one or another form. As our President Sh. M. Mirziyoyev correctly stated that “Today, digital technologies are rapidly penetrating into all spheres of human life. In turn, those who have embarked on the path of such development of the state in due time achieve success. And those countries that are working in the old way, are falling behind in the past” [1]. “Informational society, the base of which is access to the information, is interested in the increase of transparency of bureaucratic apparatus, as the presence of the work of authorities helps the society to draw conclusions about their performance, about possible negative occurrences which may be caused by their decisions. The shift to an informational society is accompanied by

the rejection of secrecy which is typical for bureaucracy” [2].

Materials and Methodology

This study is of a correlative-legal nature. The data were obtained and studied from the materials of the library and the world wide web. Library data refers to the legislation of several countries like the USA, Russian Federation, UK, Indonesia, and Uzbekistan. They were investigated by analyzing the ratio of opinions of scientists from these countries in the field of organization and development of “electronic government”. First of all, the concept of “electronic government” was analyzed, and the features of this concept were identified. Based on the opinions of foreign representatives of science, the features and classification of the concept of “Electronic government” were revealed.

Research findings

The concept of electronic government

Electronic government forms due to the usage of informational communicative technology by the executive power of state power. Despite the recent frequent mention of this term in the scientific literature, there is no single opinion in relation to its definition.

Interpretation of the concept of electronic government

Moreover, there are several terms in scientific language that have similar meanings: “e-polity”, “e-government” and “e-management”. The variety of terms used in scientific literature is conditioned by the fact that the term “e-government” used in foreign literature is considered to have several meanings in Russian law doctrine.

The term «электронное государство» is most consistent with the English equivalent “e-government”, since in a foreign political and legal doctrine the term is used to describe the processes originating in the state as a whole and affecting all three branches of state power.

In legal science, it is safe to say that “e-government” means a new stage in the development of the constitutional state, which began at the turn of the century [3]. The role of information technology in the development of e-polity consists of 1) expanding the access of the public, business to the state information and services; 2) strengthening their roles in the process of making decisions; 3) increasing the efficiency, innovations and overall quality of the work of state structures.

According to the fair remark of Bogdanovskoy, in foreign law, there are wide and narrow ways to define the concept of “e-government”. In a narrow sense,

“it comes down to identifying the measures of economic benefits from the introduction of informative and communicative technologies”. A broader definition includes e-democracy as “a factor of social transformation, conducive to effective public participation in democratic processes” [4].

“E-government” as the basis of electronic governance

“The English term “e-government” can also be translated as “e-management”. However, in foreign politic literature, for the purpose of researching the changes that occur in state administration in connection with the use of informative and communicative technologies, the term “e-governance” is used. At the same time, the terms “e-government” and “e-governance” are directly distinguished [5]. The latter is used less often in the literature, and for it, there are much fewer definitions. The term “e-governance” is used for the electronic

mutual relationships between the state authorities, individuals, and organizations, as well as the mutual connections of the State (mutual connections between state authorities and structural subdivisions of the state authorities).

As noted in the research of UNESCO, “e-governance” (“electronic management”) should be understood as a combination of methods in social management. In the processes of social management the relations between the state and the citizen are dependent and can change under the influence of informative and communicative technologies, broad usage of which leads to the creation of the phenomenon of “e-management”. Electronic control can be manifested in the usage of the Internet by civil society for the purpose of forming public opinion and influencing the process of making decisions by state authorities, providing services and information in electronic form, and in the publication of project regulations and decisions to get feedback [6].

Therefore, it is necessary to distinguish between the concepts of “e-government” and “e-governance”. Despite that, in the Russian law doctrine (particularly in the works of Bachilo) there is a widespread conception, where the term e-government can be supposedly translated as “an electronic management” and even “electronic administration” [7]. This approach is also found in the works of E.V. Talapina, who means by “e-management” interactive mutual relations of the state with citizens and organizations, as well as state authorities between themselves [8].

As Sadikov claims, “e-government is an organizational form of state government, taking the interests of the citizen into consideration, is designed for provision of services for population by the state government and for providing an openness and clearness of actions of

state authorities and government with the usage of informative and communicative technologies" [9]. The understanding of the English term "e-government" as "an electronic government" is quite widespread. This approach is found particularly in the works of Kuznetsov and Prihodko. As Kuznetsov marks "the name of electronic government" was first used by specialists in the international practice of introducing information technologies in the activities of government agencies a combination (electronic government), shorter version e-government.

It should be mentioned that the neologism "electronic government" came into use along with other new terms, meaning the complex improvement of the process satisfying the informational necessity with the help of informative and communicative technologies, following the named trend, the authors of the developing project organization of state executives with a purpose to establish the services of ICT used the term "e-government" as an abbreviated form of the named project [10].

Information and communication technologies as the basis of "Electronic government"

So, for example, on the day of the annual reports of the United Nations on the development of the electric power of the government in various states, it is noted that the word "electronic" is used with the word "government" to recognize that the use of modern information and communication technologies leads to the transformation of internal and external relations of public administration. Electronic governments are governments that use information and communication technologies to change their internal and external relationships [11].

The European Commission by the phrase "electronic government" understands the use of information and communication technologies in public administration, which

is accompanied by organizational changes and the acquisition of new knowledge used to improve public services and democratic processes [12].

In the political law of foreign countries, there are also two rules for the definition of the concept of "electronic government": narrow and broad (general theoretical).

The Broad (general theoretical) method is typical for research carried out in countries of common law, in particular, for the USA, where there are structural changes in the system of executive branches in the state power, long ago legislative acts were adopted, which formed the legislative root of electronic government, normative definition government was formed.

In national law and science, there are definitions of the concept of "electronic government". Next, we will consider these definitions.

In the Law of the Republic of Uzbekistan "Electronic Government" the concept of "electronic government" is the system of organizational-judicial actions and technical means, which are directed to supply the activities of state branches to provide public services to individuals and legal entities through the use of informational-communicational technologies as well as interdepartmental electronic interaction [13].

According to A. Ho, a professor at the University of Indiana, the word "electronic government" as the transformation of organizational foundations, is defined by the change of governmental paradigm [14].

E-government: The Singapore Experience

A wide approach to the definition of the concept of "electronic government" is found in the political law in Singapore, the government system of which also belongs to the "general law". Singapore occupies the highest position in the ratings of the development of electronic governments. It is possible to say that Singapore is a state, where the principles of

electronic government were implemented to the fullest extent. Besides that, in this country in the electronic form, there are a few hundred services, as well as in Singapore transformations in the system of executive branches of the government and their interrelations with individuals are noted.

For the jurists-scientists of Singapore state, “electronic government” means not only the addition of the adjective “electronic” to the word “government”. The formation of an “electronic government” demands Singapore review all aspects of governmental control and the performance of public services. The use of modern technologies is necessary for improving the efficiency of internal processes, as well as to change the nature and quality of government interaction with both individuals and commercial organizations. At the same time, the electronic government is characterized by changes in the system of executive powers, which in the conditions of electronic government must function based on the principle of “a lot of branches of executive power, but only one government”. This principle means that individuals must be served integrated public services, regardless of the number of employees in the executive branch employed in the provision of such services [15].

It seems that e-government should be understood as the use of the Internet and other digital technologies by such bodies accompanied by changes in the system of executive bodies of state power to provide services, and information, as well as to ensure democratic procedures and increase the openness of executive bodies. At the same time, one of the manifestations of the development of e-government is the change in the relationship between the executive bodies of state power and individuals.

Information and communication technologies can significantly redistribute power, functional responsibilities, and control within and between government agencies

[16]. In addition, due to the increasing number of public services provided using information and communication technologies, the development of e-government entails a significant change in the functioning of executive authorities and, ultimately, the de-bureaucratization of public administration.

Information technologies are used to automate administrative procedures. The essence of administrative procedures remains the same, but information technology allows you to simultaneously process a significant amount of data and automate actions that are traditionally performed by civil servants. Automation of administrative procedures leads to an increase in the level of predictability of the actions of executive bodies, allows an objective assessment of the results of their activities, reduces the possibility of mistakes by civil servants, and does not allow government employees to act on their own. This, in turn, reduces the risk of corruption.

In those executive bodies that use information and communication technologies to provide public services, the role of civil servants is reduced to processing the personal data of citizens, processing requests for services and information, reviewing complaints, as well as maintaining the operability of electronic infrastructure (maintenance of Internet sites, information centers, “one window” centers, etc.)

Conclusions

The use of modern technologies in the provision of public services makes it possible to reduce the number of “personal” communication of civil servants with individuals, to objectify the decision-making process on the provision or non-provision of services, which in the long term leads to a decrease in the level of corruption. The decision-making process by civil servants is becoming more predictable and transparent.

In addition, the use of information and communication technologies in the provision

of public services minimizes the risk of discrimination in decision-making, the risk of using a selective approach, as well as the risk of undesirable behavior. When providing services by traditional methods, civil servants can pay attention to such factors as the place of residence of an individual, the level of his income, give preference to his friends, relatives, refuse to provide services due to personal prejudice or personal hostility, then when using information - the number of subjective factors influencing the decision-making process is significantly reduced.

E-government is a new state of executive bodies of state power, characterized by the transformation of the organizational structure of executive bodies, changing the relationship between such bodies and individuals. This concept is also used to describe processes related to the provision of public services and ensuring access to

information about the activities of executive bodies of state power.

Approaches to the definition of the concept of "electronic government" differ depending on where they are formed. In the political and legal doctrine and documents of the States of continental Europe, a narrow approach to the definition of the concept of "electronic government" is widespread. E-government refers to the use of information and communication technologies by executive bodies of state power for the purpose of providing public services in an electronic form. A broad approach to understanding e-government has been formed in documents and studies of common law countries. E-government is defined as a complex social phenomenon, which is also accompanied by the transformation of executive bodies of state power, changes in their relationships with individuals, and an increase in their openness.

REFERENCES

1. Speech by President Sh. Mirziyoyev at a videoconference on the implementation of the digital economy and e-government in industries and regions 2020, September 22. Available at: <https://yuz.uz/ru/news/tsifrovoy-uzbekistan-2030-osnovne-polojeniya-i-perspektiv-realizatsii/>.
2. Weber M. Economy and Society. An outline of Interpretive Sociology. Ed. G. Ross and W.C. Berkeley. University of California Press, 1978, pp. 992–993.
3. Informatsionnye resursy razvitiya Rossiyskoy Federatsii: Pravovye problemy [Information resources for the development of the Russian Federation: Legal problems]. Ed. I.L. Bachilo. Moscow, 2003, p. 373.
4. Bogdanovskaya I.Yu. The concept of "electronic state": legal aspects. Information society and social state. Moscow, Lawyer, 2011, p. 46.
5. Bovaird T. Performance Measurement and Evaluation of E-Government and E-Governance Programmes and Initiatives // Practicing E-Government: A Global Perspective. Hershey; Idea Group Publishing, 2005, pp. 18–24.
6. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Available at: http://portal.unesco.org/ci/en/files/3044/10274053474E_governance_study_full_text.doc/E%2Bgovernance%2Bstudy%2Bfull%2Btext.doc/ (accessed 11.10.2013).
7. Bachilo I.L. On Legislation in the Information Sphere of Relations. *Information Society*, 2001, no. 4, p. 26.
8. Talapina E.V. On the issue of the information function of the state. *Information Society*, 2002.

9. Sadikov S. Constitutional and legal foundations for the formation and functioning of the “electronic government” system in Uzbekistan. *Yuridik fanlar ahborotnomasi – Review of Legal Sciences*, Tashkent, 2017, no. 2, pp. 30–33.
10. Kuznetsov P.U. Social mission of the electronic state: values and terminological problems. P. 20.
11. Available at: <http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/un/unpan012733.pdf/> (accessed 11.10.2013).
12. The Role of E-Government for Europe's Future. Communication from the Commission to the Council, the European Parliament, the European Economic and Social Committee and the Committee of the Regions. Brussels, 2003, p. 4.
13. Collection of laws of the Republic of Uzbekistan, 2015, no. 49, p. 611.
14. Ho T.A. Reinventing Local Governments and the E-Government Initiative. *Public Administration Review*, 2002, vol. 62, pp. 434–444.
15. Siew L., Leng Y. E-Government in Action: Singapore Case Study, in *The World of E-Government*. NY, Haworth, 2003, pp. 19–30.
16. Fountain J. The Virtual State: Toward a Theory of Federal Bureaucracy in the 21st Century. *Democracy.com? Governance in a Networked World*. Teddington, Hollis Publ., 1999, pp. 133–156.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./UVZM8386>
UDC: 342.76:004(045)(575.1)

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQIGA NISBATAN TA'SIRINING NAZARIY TAHLILI

Madiyev Faxriddin Hoshim o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrası katta o'qituvchisi,
ORCID: 0000-0002-3034-7334
e-mail: fmadiyev92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga nisbatan ta'siri nazariy tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda jamiyatimiz hayotiga keng joriy qilinishi davlatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarimizning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasini konseptual, ilmiy-metodologik jihatdan o'rganish va tahlil etish lozim. Muallifning fikricha, "shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, foydalanish", "yozishmalar, telefonda so'zlashuvlar, telegraf va boshqa jo'natmalarni sir saqlash", "shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalalanish", "sha'ni va qadr-qimmatiga daxldor ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etmaslik" kabilarga to'xtalib o'tish orqali "shaxsiy hayot daxlsizligi" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqish mumkin. Maqolada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi hamda huquqshunos olimlarning shaxsiy hayot daxlsizligiga oid yondashuvlari tahlil qilingan holda, raqamlashtirish sharoitida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi va uni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari kompleks o'rganilib, shaxsiy daxlsizlikka oid O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, shaxsiy hayot, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalalanish, sha'ni va qadr-qimmatiga daxldor ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etmaslik, shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРАВО НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЧАСТНОЙ ЖИЗНИ

Мадиев Фахриддин Хошим угли,
старший преподаватель кафедры «Конституционное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье представлен теоретический анализ влияния цифровых технологий на право на неприкосновенность частной жизни. Развитие цифровых технологий и их широкое внедрение в жизнь нашего общества требуют научных исследований для обеспечения конфиденциальности граждан, проживающих в нашей стране. Поэтому необходимо изучить и проанализировать понятие права на неприкосновенность частной жизни с концептуальной, научной и методологической точек зрения. По мнению автора, необходима защита от сбора, хранения, использования сведений о личной жизни, конфиденциальности переписки, телефонных переговоров, телеграфных и иных передач, от вмешательства в личную жизнь, посягательства на честь и достоинство. Разработано авторское определение понятия «неприкосновенность личной жизни» со ссылкой на такое понятие, как «неразглашение

ценных сведений без их согласия». В статье анализируется передовой опыт зарубежных стран и подходы ученых-правоведов по теме неприкосновенности частной жизни, всесторонне исследуется право на неприкосновенность частной жизни в условиях цифровизации и особенности его конституционно-правового регулирования, вносятся предложения по совершенствованию законодательства Узбекистана о неприкосновенности частной жизни.

Ключевые слова: цифровизация, личная жизнь, неприкосновенность частной жизни, персональные данные, защита от вмешательства в частную жизнь, неразглашение сведений о чести и достоинстве без согласия, персональные идентификационные данные.

THEORETICAL ANALYSIS OF THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON PRIVACY RIGHTS

Madiyev Fakhriddin ugli,

Senior lecturer, Department of Constitutional Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the impact of digital technologies on the right to privacy, the development of digital technologies, the widespread introduction of digital technologies in the life of our society, and the need to carry out scientific research on ensuring the privacy of citizens living in our country. Therefore, it is necessary to study and analyze the concept of the right to privacy from conceptual, scientific, and methodological point of view. According to the author, it is possible to develop an author's definition of the concept of "inviolability of personal life" by referring to such things as "collection, storage, use of information about his personal life", "the confidentiality of letters, telephone conversations, telegraphs and other transmissions", "protection against interference with his personal life", "protection against interference with his personal life", "not disclosing information related to honor and dignity without their consent". The article analyzes the advanced experience of foreign countries and the approaches of legal scholars to privacy, comprehensively studies the right to privacy in the context of digitization and the specific features of its constitutional and legal regulation. Proposals for improving the legislation of Uzbekistan on personal privacy were suggested.

Keywords: digitization, privacy, personal data, protection from interference with personal life, non-disclosure of information concerning honor and dignity without their consent, personal identification data.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarda raqamli texnologiyalarning o'zni nihoyatda katta. Shu jumladan, raqamli texnologiyalar huquqiy tizimga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, konstitutsiyaviy huquq doirasida tartibga solinadigan munosabatlarda ham raqamli texnologiyalarning ta'siri sezilmoqda. Raqamli texnologiyalarga o'tish qonunchilikni tartibga solish va shunga mos ravishda huquqiy islohotlarni talab qiladi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ham raqamli texnologiyalarning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga nisbatan ta'sirini o'rganish borasida qator ishlar olib borilmoqda.

So'nggi yillarda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining rivojlanishi huquqiy tadqiqotlar obyektiga aylandi. Shu bois "shaxsiy hayot", "shaxsiy" va "oilaviy" sirlarning daxlsizligi masalalariga qaratilgan qonun hujjatlariga zarurat oshib borayotganini ta'kidlashimiz lozim.

Har bir shaxsning o'z sifatlariga ma'naviy-axloqiy baho berishga bo'lgan huquqini uning shaxsiy huquqi sifatida baholasak, subyektiv xususiyatga ega bo'ladi. Shu bois shaxsning qadr-qimmati va obro'-e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy fikr bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi ham mumkin. Ammo shaxsning qadr-qimmati o'zini o'zi baholashi va jami-

yatning unga bergan bahosi bilan o'zaro bog'langan mezonlar hisoblanadi.

1993-yilda AQSh hukumati milliy axborot infratuzilmasini rivojlantirish rejalarini tasdiqlagan (Agenda for Action) [1]. Ushbu reja-ga muvofiq, AQSh har kimga o'zi uchun qiziq bo'lgan ma'lumotni topishga imkon beradigan hamda axborot yaratish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan bog'liq barcha texnologiyalar, xususan, televideniye, kompyuter tarmoqlari, sun'iy yo'ldoshli kuzatuvlar, onlayn tijorat kompaniyalari kabilar uchun axborot supermagistrali yaratish tartibi belgilab berilgan.

AQShda yuqorida ta'kidlangan milliy ma'ruza asosida raqamlashtirish jarayonlarining shaxsiy hayot daxlsizligiga bo'lgan ta'sirini tadqiq qilish ishlari boshlangan [2].

1995-yil fevralda Yevropa Ittifoqining raqamli jamiyat shakllanishidagi umumiy muammolarni muhokama qilish forumi tashkil etilgan. Forum ishining maqsadi quyidagilardan iborat edi: raqamli jamiyatni shakllantirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini monitoring qilish; "virtual hamjamiyat"da ijtimoiy va demokratik qadriyatlarni yaratish; jamiyat va davlat xizmatlariga raqamli texnologiyalarning ta'sirini kuzatib borish; ta'lim olish va ta'lim berishda raqamli texnologiyalarning ta'siri; raqamli texnologiyalarning madaniy me'yorlar va OAV rivojlanishi tendensiyalariga ta'siri kabilarni o'rganish. Demak, raqamli texnologiyalarning konstitutsiyaviy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalariga ham e'tibor qaratish lozim [3].

Material va metodlar

Mazkur masalani tadqiq etishni uch turdagi asoslar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq. *Birinchidan*, milliy huquqshunos olimlarning bu boradagi ilmiy qarashlari hamda yondashuvlarini tahlil etish; *ikkinchidan*, xorijiy mutaxassislarning fikr-mulohazalarini talqin etish; *uchinchidan*, ilg'or xorijiy tajribani qiyosiy-huquqiy tadqiq etish

orqali muayyan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi belgilab olindi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Yevropaning deyarli har bir davlatida axborot jamiyatini qurishda milliy siyosatni shakllantirishga bag'ishlangan dastur mavjud. Biroq axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari ta'siri ostida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning global tusga egaligini hisobga olgan holda, tashabbus asta-sekin milliy maydondan global darajaga chiqdi. 2000-yil iyulda Okinavada "Katta sakkizlik" davlatlari rahbarlari tomonidan "Global axborotlashgan jamiyat Okinava xartiyasi" qabul qilindi [4].

Mazkur hujjatda insonlar yangi axborot texnologiyalari beradigan imkoniyatlardan samarali foydalanishi uchun barcha mamlakatlar ma'lum darajada raqamlashtirish darajasiga erishishi kerakligi ko'zda tutilgan. Biroq Okinava Xartiyasida nazarda tutilgan raqamlashtirish butun dunyoda bir xilda amalga oshgani yo'q. "Internet World Stats" ma'lumotiga ko'ra, 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, Shimoliy Amerikada – 93,9 %, Yevropada – 88,2 %, Avstraliya va Okeaniyada 69,9 %, Afrikada esa atigi 39,3 % va Osiyoda 63,3 % aholi internetdan foydalanadi.

Yuqoridagi ma'lumotni O'zbekiston kesimida tahlil qilsak, Osiyoda o'rtachadan pastroq darajada, ya'ni aholining 50,6 % qismi internet foydalanuvchilari hisoblanadi [5].

Ayni paytda har bir mamlakat o'z rivojlanish yo'lidan yurib, faqat ma'lum bir davlat doirasida kiberhududni tartibga soluvchi qonunchilikni qabul qilmoqda. Bunda axborot jihatidan eng rivojlangan mamlakatlarda axborot jamiyatining ayrim jihatlarini tartibga soluvchi normalar konstitutsiyaviy darajada aks ettirilgan. Jamiyatni raqam-

lashtirishning konstitutsiyaviy huquqqa ta'sirining ko'plab yo'nalishlarini ajratish mumkin. *Birinchidan*, bunday ta'sir inson huquqlari institutiga daxl qilishi aniq. Raqamlashtirish ko'plab huquqlarga daxl qiladi, shu jumladan, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, axborot olish huquqi, mehnat huquqi, ko'plab siyosiy huquqlar, madaniy huquqlar, masalan, ijod erkinligi, madaniy qadriyatlardan erkin foydalanish va h. k. *Ikkinchidan*, raqamlashtirish hokimiyat organlariga ta'sir qiladi. Masalan, hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda elektron hukumat konsepsiyasi qo'llanilmoqda yoki ishlab chiqilmoqda. *Uchinchidan*, raqamlashtirish jarayonlari, albatta, ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomiga ta'sir qilib, ularning siyosiy rolini o'zgartiradi. *To'rtinchidan*, raqamlashtirishning saylov huquqiga ta'siri, xususan, xalq irodasini namoyon etishning yangi texnik vositalarini yaratishdan iborat. Bizningcha, raqamlashtirishning konstitutsiyaviy huquqqa ta'sirining asosiy yo'nalishlari shular.

Raqamli jamiyatga o'tish eng ko'p ta'sir qiladigan huquqlardan biri shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi hisoblanadi [6].

Fikrimizcha, raqamli jamiyatga o'tishda shaxsiy ma'lumotlar, shaxsiy munosabatlarda daxlsizligi va erkinligi kabi shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tarkibiy qismlarining muhofazasini ta'minlash muhimdir.

Shuni ta'kidlashimiz lozimki, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi huquqi raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga xorijiy mamlakatlar qonunlari va konstitutsiyalarida mustahkamlanib bormoqda.

Tahlil qiladigan bo'lsak, raqamli texnologiyalarning ixtiro etilishi va keng qo'llanishi ma'lumotlar, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tizimlashtirish va uzatish uchun kengaytirilgan imkoniyatlar yaratadi. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligining tarkibiy qismi hisoblangan shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalar tahlili

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash transchegaraviy xarakterga ega bo'lishiga qaramay, ushbu masalada hali ham dunyo miqyosida yagona yondashuv mavjud emas. Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi huquqini tartibga solishning turli modellari mavjud.

Jumladan, Yaponiyada ham shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini sekinlik bilan shaxsiy ma'lumotni nazorat qilishga bo'lgan huquq sifatida tushunish tendensiyasi kuchaymoqda [7].

V.A. Kopilovning fikriga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlar fuqarolarning o'zlari kundalik faoliyatida, shu jumladan, mehnat qilish, uy-joy, dam olish, tibbiy yordam, ijtimoiy sug'urta, pensiyalar, nafaqalar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish bilan bog'liq ma'lumotlardir [8].

Shaxsiy hayot tushunchasiga "shaxs"ning sotsiologik va psixologik holatidan kelib chiqib ta'rif berish taklif qilinadi. Xususan, bunda individning ijtimoiy munosabatlarga kirishib keta olish holati, jamoaviy faoliyati hamda munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlari inobatga olinishi lozimligi ta'kidlanadi [9].

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, muomalaga layoqatsiz va yosh bolalarni shaxs deb hisoblash mumkin emasligi sababli shaxsga berilgan sotsiologik va psixologik ta'riflar nuqtayi nazaridan "shaxsiy hayot" atamasi faqat idrok qilish imkoniyatiga ega va ongli subyektlarga tegishli bo'lishi mumkinligi g'oyasi ilgari suriladi.

Bizningcha, "shaxsiy hayot" tushunchasi faqat shaxsga tegishli ekanligi nuqtayi nazari-dan ko'rib chiqilib, sotsiologiya va psixologik qarashlarga ko'ra, shaxs deb e'tirof etilmaydigan individlar ham shaxsiy hayotga egaligi, shaxsiy hayot insonning har qanday holatida ham mavjud bo'lishini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Huquqshunos olimlar A.X. Saidov, M.T. Turg'unov, A.A. Matchanovlar ushbu tushunchaga "Shaxsiy hayot daxlsizligi inson-

ning tug'ilishi bilan yuzaga keluvchi uning tabiiy huquqlaridan hisoblanadi", deb ta'rif berishadi [10].

Bundan tashqari, ayrim mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, shaxsiy hayotga bo'lgan ta'rif murakkab, noaniq va ko'p qirralidir. Gonkong universiteti professori R. Vacks shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi sohasida tadqiqotlar o'tkazib, ushbu tushunchaga doktrinal ta'rif berish shart emas, deb hisoblab, o'zining "Huquq, axloq va shaxsiy soha" (Law, Morality and the Private Domain) [11] asarida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'riflash bo'yicha barcha harakatlar behuda ekanligini ta'kidlaydi. Boisi olimlar ko'pincha shaxsiy hayot daxlsizligining turli sohalardan kelib chiqadi. Berilgan ta'riflarning o'zi esa, odatda, javob berishdan ko'ra yangi savollar paydo qilishi mumkinligini bildiradi. Shuningdek, R. Vacksning ta'kidlashicha, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining qo'llanish doirasi qonunlarda berilgan, sudlar tomonidan foydalanilmoqda hamda shakllanib ulgurgan yuridik lug'atning bir qismi hisoblanadi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi mazmunini ochib berish uchun uning tarkibiga kiradigan ikkita eng muhim elementlarni ajratib tahlil qilish lozim. Jumladan, "shaxsiy hayot" va "daxlsizlik" tushunchalari doirasini aniqlash kerak.

Rus olimi O.Y. Kutafin "daxlsizlik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Daxlsizlik – bu tashqaridan bo'lgan har qanday tajovuzlardan himoyalanganlik holatidir" [12]. Nazarimizda, bu ta'rif daxlsizlik mazmunidagi ikki xususiyatni ajratishga imkon beradi, ya'ni aralashmaslik va himoyalanganlik. "Aralashmaslik" (non-intervintion) inson ijtimoiy faoliyatining munosabatlarda davlat, jamiyat va boshqa insonlardan ma'lum darajada mustaqillik holati hisoblanadi [13].

T.F. Yefremovning izohli lug'atida "himoyalanganlik" (security) biror kimsadan, narsadan himoyalash holati sifatida belgilanadi [14].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, daxlsizlik bir jihatdan shaxsiy hayotga davlat, jamiyat, uchinchi shaxslar tomonidan aralashilmasligi, boshqa tarafdin esa ma'lum sohalar davlat tomonidan himoyalalanishini nazarda tutadi.

Bizning tadqiqotlarimizda "shaxsiy hayot" tushunchasiga aniqlik kiritishda uni har bir shaxsga individual ravishda qo'llash mumkin bo'lgan shaxsiy hayotning umumiy mezonlariga tayanildi. *Birinchidan*, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining chegaralari subyektiv bo'lib, bir jamiyat ichida ham o'zgariishi mumkin: kimdir uchun shaxsiy bo'lgan narsa, boshqa shaxs uchun umuman shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lmasligi mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy hayot (privacy) tushunchasi turli madaniyatlarda keskin darajada farq qiladi. Jumladan, G'arb va Sharq mamlakatlarida shaxsiy hayot (privacy) chegaralari bir xil emas. *Ikkinchidan*, shaxsiy hayot tushunchasining chegarasi holatlarga qarab o'zgaradi. Masalan, biz uyda shaxsiy hayotga tegishli deb biladigan narsa ish joyida bo'lmasligi mumkin yoki buning aksi. *Uchinchidan*, shaxsiy hayot tushunchasi ham, shaxsiylik doirasi ham vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Jumladan, hozir biz shaxsiy ma'lumot deb hisoblagan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan shaxsiylik xususiyatini yo'qotadi.

Demak, shaxsiy hayotga ta'rif berishda uni shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Rus olimasi M.N. Maleina o'zining "Fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlari: tushuncha, amalga oshirish, himoya qilish" asarida "shaxsiy hayot sirini ma'lum shaxs haqidagi, uning kasbiy yoki ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, uning xarakteri, tashqi qiyofasi, sog'lig'i, moddiy ahvoli, oilaviy maqomi, turmush tarzi, tarjimayi holining ayrim faktlari, uning qarindoshlari, do'stlari, tanishlari va boshqalar bilan munosabatlari-ga oid ma'lumotlar tashkil etadi" [15], deb fikr bildirgan. Muallif ushbu ta'rifida omma-viy bo'lmagan barcha ma'lumotlar sir bo'lishi

hamda shaxsiy hayotning bir qismi hisoblani-shi lozim degan xulosaga kelgan.

Yana bir rus olimi A.G. Chernyavskiyning fikricha, “shaxsiy hayot – bu individning o‘zi nazorat qiladigan va tashqi ta’sirdan xoli bo‘lgan jismoniy va ma’naviy hayoti hisoblanadi” [16]. Muallif “shaxsiy hayot” tushunchasini ikkita belgiga ega bo‘lgan soha – individning o‘zi tomonidan nazorat qilinadigan va tashqi ta’sirdan xoli bo‘lishini ta’kidlagan. Bizningcha, shaxsiy hayot doim ham individning o‘zi tomonidan nazorat qilinmasligi mumkin. Masalan, bir nechta shaxsga tegishli bo‘lgan oilaviy sir haqida gap borganda, unga bog‘liq bo‘lmagan holda, boshqa shaxslar tomonidan ham oshkor qilinishi mumkin. Muallif ajratgan ikkinchi belgini qo‘llab-quvvatlaymiz, ya’ni shaxsiy hayot tashqi ta’sirlardan, jumladan, davlat, jamiyat va boshqa shaxslarning aralashuvidan xoli bo‘lishi lozim.

Vashington universiteti professori Neil Richards shaxsiylikka (privacy) ta’rif berib, shunday fikrni ilgari surgan: “Butun oiladagi hayot, qarindoshlik va do’stona aloqalar, uydagi turmush tarzi, yaqinlik (jinsiy) va boshqa shaxsiy munosabatlar, muhabbat, simpatiya va antipatiya, fikrlash, qiziqishlar, ijod ham shaxsiy hayot sohasiga kiradi” [17].

Shuningdek, Chikago universiteti professori L.R. Strahilevitz o‘zining “Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining ijobiy nazariyasi” asarida shaxsiy hayotni tushunish uchun bir necha xususiyatlarini sanab o‘tgan. Bular “oilaviy xususiyat” (oiladagi munosabatlar, aka-uka, er-xotin va boshqalar bilan), “tashkiliy tomoni” (kun tartibini belgilash, o‘qish yoki ish joyini tanlash va tashkiliy masalalarda namoyon bo‘ladi), “sog‘liq tomoni” (sog‘liqni saqlashga qaratilgan harakatlarda ifodalanadi), “dam olish” (dam olish va ko‘ngil ochish kabi harakatlarda namoyon bo‘ladi), “munosabatlar tomoni” (do‘stlar, tanishlar va boshqalar bilan munosabatlar), “jinsiy munosabatlar” (shaxsning individual-

ligi, masalan, jinsiy odatlari) va boshqalar [18]. Biz ushbu mualliflarning shaxsiy hayotning ma’lum sohalarini ajratish, uning mazmuni va chegaralarini aniqlashdagi eng maqbul yo‘nalishlarini qo‘llab, quyidagi xususiyatlarini umumlashtirgan holda, shaxsiy hayotning aniq bir doirasini belgilab olish va shu orqali daxlsizlikning boshlanish chegarasini bilishimiz mumkin.

Birinchidan, oila va jinsiy munosabatlar doirasidagi xususiyatlari: shaxsiy hayot daxlsizligining ushbu sohasiga shaxsning nikoh tuzish, farzandlikka olish; biror kishi bilan yashash to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qilish; o‘zi uchun tanishlar, do‘stlar va muloqot qilish doirasini erkin tanlash; mustaqil ravishda o‘z oila a‘zolari bilan birgalikda oilaviy hayot tarzini o‘rnatish huquqi kiradi.

Ikkinchidan, ma’naviy xususiyatlari: shaxsiy hayot daxlsizligining ushbu sohasiga individning o‘z dini va e’tiqodi to‘g‘risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish, mustaqil ravishda kasb tanlash; ma’lum bir fikrni qo‘llab-quvvatlash yoki qo‘llab-quvvatlamaslik; qaysi fanlar yoki hunarni o‘rganish; bo‘sh vaqtini qayerda va qanday o‘tkazish; qiziqishlar (xobbisi)ni o‘z ixtiyoriga ko‘ra tanlash huquqi kiradi.

Uchinchidan, shaxsning sog‘lig‘i bilan bog‘liq xususiyatlari: bu xususiyat shu bilan tavsiflanadiki, unga insonning o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik masalalari, xususan, qanday tartib-qoidalarini qo‘llash va o‘z tanasini qanday tasarruf etish kerakligi, tashqi qiyofasini mustaqil ravishda o‘zgartirishga bo‘lgan huquqi kiradi [19].

To‘rtinchidan, shaxsning ma’lumotlar to‘plash bilan bog‘liq xususiyatlari: buning daxlsizlik hisoblanishining ma’nosi shundaki, individ ko‘rish, o‘qish, foydalanish, saqlash uchun ma’lumotni mustaqil ravishda o‘zi tanlaydi. Shuningdek, bunga individning o‘ziga tegishli ma’lumot, ya’ni oilaviy va shaxsiy siri, shaxsiy munosabatlari, sog‘lig‘i, kasalliklari, xaridlari, hisoblari, boradigan joylari va boshqalar kiradi.

Rus olimi A. Sadikova “shaxsiy ma’lumotlar faqat shaxsni aniqlashga imkon beradigan ma’lumotdir. O‘z-o‘zidan shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi shaxsga unchalik zarar keltirmaydi, balki zarar yetkazish imkoniyatini yaratadi. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish shaxsiy hayotning mumkin bo‘lgan buzilishidan sug‘urta qiladi, chunki shaxs haqidagi individual ma’lumotlar uning shaxsiyatining umumiy tasavvurini shakllantirishi mumkin”; degan fikrlarni bildirgan [20].

Rus olimi N.I. Petrikina esa o‘z qarashlarida quyidagilarni ta’kidlagan: “Shaxsning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan, shaxsiy ma’lumotlar qonun bilan himoyalangan ma’lumotlar sifatida tasniflanadi. Ularni tegishli shaxsning rozilgisiz tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi” [21].

Yana bir rus olimi E.V. Klimovich shaxsiy ma’lumotlarning tarkibi haqida fikr bildirib, shaxsiy ma’lumotlarga identifikatsiya ma’lumotlaridan tashqari, shaxsiy hayot, axloqiy, ishbilarmonlik fazilatlar va boshqa insoniy xususiyatlari ham kirishini ta’kidlagan [22].

Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ushbu tamoyillardan foydalanib kelinmoqda [23]. Oslo universiteti professori Li Bigrave ushbu prinsiplarni quyidagicha umumlashtiradi:

- shaxsiy ma’lumotlar aniq va qonuniy maqsadlarda to‘planadi hamda ushbu maqsadlarga mos kelmaydigan tarzda qayta ishlanmaydi;

- shaxsiy ma’lumotlar adolatli va qonuniy vositalar bilan to‘planadi;

- to‘plangan shaxsiy ma’lumotlar miqdori ma’lumotlarni to‘plash va keyinchalik qayta ishlash maqsadiga erishish uchun zarur bo‘lgan miqdor bilan cheklanadi;

- shaxsiy ma’lumotlardan ko‘rsatilganidan boshqa maqsadlarda foydalanish va oshkor qilish faqat ushbu ma’lumot egasining roziligi yoki qonun hujjatlari bilan amalga oshiriladi;

- shaxsiy ma’lumotlar qayta ishlash maqsadlariga nisbatan tegishli, aniq va to‘liq bo‘ladi;

- shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz yoki ko‘zda tutilmagan hollarda oshkor qilish, yo‘q qilish, o‘zgartirish yoki foydalanishdan himoya qilish uchun xavfsizlik choralari ko‘riladi;

- shaxslar ularga tegishli bo‘lgan boshqa ma’lumotlardan xabardor bo‘ladi va ularga kirish huquqiga ega bo‘ladi;

- boshqa shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun mas’ul shaxslar yuqoridagi tamoyillarga ta’sir ko‘rsatadigan choralarga rioya qilish uchun javobgar bo‘ladi [24].

Xulosalar

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, shaxsiy ma’lumotlarga shaxsga tegishli bo‘lgan, uning shaxsiy xususiyatlarini o‘zida ifodalagan, boshqa kishilardan ajratib turadigan ma’lumotlari, shaxsning ijtimoiy hayotdagi faoliyati, shaxsiy hayot faktlari, voqea-hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlari va uning shaxsini aniqlash imkonini beruvchi boshqa ma’lumotlarni kiritish mumkin.

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish negizida shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashni tartibga soluvchi me’yoriy tamoyillar yotadi. “Adolatli axborot amaliyoti tamoyillari” (Fair Information Practices) ma’lumotlardan foydalanish, to‘plash va shaxsiy hayot daxlsizligiga oid sakkizta tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Bizningcha, shaxsiy hayot inson turmushi-ning ma’lum bir sohalar majmuyi ekanligidan kelib chiqib, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi deganda, shaxsning oila va jinsiy munosabatlari, ma’naviy, tibbiy sohalaridagi hayotining tashqi aralashuvdan himoyalanganligi huquqi, raqamli texnologiyalar orqali shaxsiy hayotga doir ma’lumotlarning oshkor qilinishi ham tushuniladi. “Shaxsiy hayot” hamda “shaxsiy hayot haqidagi ma’lumotlar” tushunchalari bir ma’noni anglatmaydi. Chunki “shaxsiy hayot” kengroq tushuncha bo‘lib, shaxsiy hayot to‘g‘risidagi ma’lumotlar raqamli texnologiyalar orqali to‘plash va tarqatish kabilarni o‘z ichiga olib, shaxsiy hayot daxlsizligini buzuvchi eng ko‘p uchraydigan usul hisoblanadi.

Shaxsiy hayot to'g'risidagi ma'lumotlar raqamli texnologiyalar orqali olingan moddiy ma'lumot shaklida ifodalanadi [25]. Insonning shaxsiy hayoti to'g'risida ma'lumot to'plash kuzatib yurish, jumladan, ijtimoiy sahifalarini kuzatish, shaxsni suratga olish yoki uni videokameraga tasvirga olish, ovozi yoki telefon suhbatlarini tinglash va yozib olish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Demak, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari raqamli texnologiyalar davrida juda dolzarbdir. Raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni hi-

moya qilish huquqining fundamental huquq sifatidagi ahamiyati shundaki, shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanish qonunda ko'rsatilgan holatlarda, xususan, jamoat manfaati va shaxsning o'ziga tegishli huquqlarni ta'minlash uchun va shaxsning roziligi bilan amalga oshishi kerakligi belgilangan. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi ham boshqalar aralashuvidan xoli bo'lgan o'z muhiti ni himoyalashga bo'lgan huquq emas, balki shaxsiy ma'lumotni nazorat qilishga bo'lgan huquq degan mazmun kasb eta boshlagan.

REFERENCES

1. Gore A. Information Infrastructure Task Force, The National Information Infrastructure: Agenda for Action, 58 Fed. Reg. 49025-01, 1993 WL 365171. 1993, Sept. 21.
2. Tobin J., Field S.M. The Right to Protection of Privacy, Family, Home, Correspondence, Honour, and Reputation. Available at: <https://opil.ouplaw.com/view/10.1093/law/9780198262657.001.0001/law-9780198262657-chapter-17/>.
3. Feijóo C., Gómez-Barroso J.L., Karnitis E. More than twenty years of European policy for the development of the information society. Available at: <https://journals.openedition.org/netcom/2389?lang=en#article-2389/>.
4. Okinawa Charter of Global Information Society. Available at: <http://federalbook.ru/files/SVAYZ/saderzhanie/Tom%206/I/hartia.pdf/>.
5. Internet World Stats. Available at: <http://www.intemetworldstats.com/stats.htm/> (accessed 22.11.2021)).
6. Madiev F. Theoretical basics of the development of the right to privacy: concept and legal nature. *Society and Innovation*, 2022, vol. 3 (7/S), pp. 184–195. DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss7/S-pp184-195/.
7. Makoto I. The Guide to Constitution. Tashkent, p. 127.
8. Kopylov V.A. Informatsionnoye pravo [Information law]. Moscow, Yurist Publ., 2002.
9. Madiev F.K. Constitutional Basis of Ensuring the Right to Privacy in the Age of Informatization. *Middle European Scientific Bulletin*, 2021, no. 11. DOI: 10.47494/mesb.2021.11.657/.
10. Saidov A.X., Turg'unov M.T., Matchanov A.A. et al. Inson huquqlari umumiy nazariyasi [General Theory of Human Rights]. Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012. Available at: https://www.minjust.uz/upload/iblock/0c0/pravo_uz.pdf/.
11. Wacks R. Law, Morality and the Private Domain. Hong Kong University Press, 2000, vol. 1.
12. Kutafin O.Y. Neprikosnovennost' v konstitutsionnom prave Rossiyskoy Federatsii [Immunity in the constitutional law of the Russian Federation]. Moscow, Prospekt Publ. House, 2014.
13. Houlgate L.D. What is legal intervention in the family? Family law and family privacy. *Law & Phil*, 1998, vol. 17, p. 141. Available at: <https://www.jstor.org/stable/3504988/>.
14. Weber R.H. Internet of Things - New security and privacy challenges. *Computer law & Security Review*, 2010, vol. 26, no. 1, pp. 23–30. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0267364909001939/>.

15. Maleina M.N. Lichnyye neimushchestvennyye prava grazhdan (ponyatiye, osushchestvleniye i zashchita) [Personal non-property rights of citizens (concept, implementation and protection)]. 1997. Available at: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=15972250/>.
16. Chernyavskiy A. G., Grudisyna L.Yu. Prava cheloveka v Rossii [Human rights in Russia]. 2019. Available at: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36359442/>.
17. Richards N.M. The puzzle of Brandeis, privacy, and speech. *Vand. L. Rev.*, 2010, vol. 63, pp. 1295. Available at: <https://core.ac.uk/reader/230476600/>.
18. Strahilevitz L.J. Toward a positive theory of privacy law. *Harvard Law Review*, 2013, vol. 126, no. 7, pp. 2010–2042. Available at: https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1588&context=law_and_economics/.
19. Madiyev F. Raqamlashtirishning konstitutsiyaviy huquq rivojiga ta'sirining asosiy yo'nalishlari [The main directions of influence of digitization on the development of constitutional law]. *Society and Innovation*, 2021, vol. 2, no. 12/S, pp. 72–78.
20. Sadykova A. Garantii okhrany i zashchity personal'nykh dannykh cheloveka i grazhdanina. Konstitutsionnoye i munitsipal'noye pravo [Guarantees for the protection and protection of personal data of a person and a citizen]. *Constitutional and municipal law*, 2007, no. 14, pp. 15–19.
21. Petrykina N.I. K voprosu o konfidentsial'nosti personal'nykh dannykh [On the issue of confidentiality of personal data]. *Laws of Russia: Experience, Analysis, Practice*, 2007, no. 6, pp. 115–122. Available at: <https://dspace.uzhnu.edu.ua/jspui/bitstream/lib/27942/1/%D0%9A%20%D0%92%D0%9E%D0%9F%D0%A0%D0%9E%D0%A1%D0%A3%20%D0%9E%20%D0%9F%D0%95%D0%A0%D0%A1%D0%9E%D0%9D%D0%90%D0%9B%D0%AC%D0%9D%D0%AB%D0%A5%20%D0%94%D0%90%D0%9D%D0%9D%D0%AB%D0%A5%20%D0%9A%D0%90%D0%9A.pdf/>.
22. Klimovich Ye.V. O sushchnosti ponyatiya "personal'nyye dannyye" kak konfidentsial'noy informatsii osoboy kategorii [On the essence of the concept of "personal data" as a special category of confidential information]. *International Legal Readings*, 2005, pp. 21–30.
23. Hartzog W. The Inadequate, Invaluable Fair Information Practices. *Md. L. Rev.*, 2016, vol. 76, p. 952. Available at: <https://digitalcommons.law.umaryland.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=3759&context=mlr/>.
24. Bygrave L.A. Data protection law. Wolters Kluwer Law & Business, 2002, p. 910.
25. Solove D.J. Understanding privacy. 2008. Available at: https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/43383679/Understanding_Privacy-with-cover-page-v2.pdf/.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./LVBH1811>
UDC: 342.733(045)(575.1)

MASOFAVIY TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI FUQAROLARNING OLIY TA'LIM OLIH HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI

Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-4183-4760
e-mail: j.bokiyev@tsul.uz

Annotatsiya. Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan ko'pgina sohalarda samarali foydalanilmoqda. Xususan, ta'lim tizimida ham bunday imkoniyatlar kundan kunga ortib borayotganligi ta'lim olish huquqini ta'minlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bilamizki, o'tgan so'nggi ikki yil davomida butun insoniyatga og'ir oqibatlar olib kelgan koronavirus pandemiyasi ta'lim sohasidagi ham bir qator haligacha yechimi topilmagan muammolarni ko'rsatib berdi. Uzoq davom etgan pandemiya davrida masofaviy ta'lim ta'lim jarayonini davom ettirishning yagona yo'li bo'ldi. Masofaviy ta'limni sifatli olib borishda esa, shubhasiz, IT texnologiyalari, masofaviy ta'lim platformalari juda muhim hisoblanadi. Chunki ularsiz ta'limning bu shaklini tasavvur etib bo'lmaydi. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida masofaviy ta'lim olish imkoniyati kengayganligi, bu esa oliy ta'lim olish huquqini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi milliy va xorijiy olimlarning qarashlari, normativ-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilindi. Tahlil qilish davomida masofaviy ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalari tushunchalari, masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, masofaviy ta'limni tashkil etish bilan bog'liq muammolarga alohida to'xtalib, ularning yuridik tabiati va mohiyati atroflicha ochib berildi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, oliy ta'lim olish huquqi, raqamli ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim platformalari.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА ГРАЖДАН НА ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ ПУТЕМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Бокиев Жахонгир Нурматжон угли,
преподаватель кафедры «Конституционное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В современном развивающемся мире возможности цифровых технологий эффективно используются во многих сферах. В частности, тот факт, что с каждым днем таких возможностей в системе образования становится все больше, положительно влияет на обеспечение права на образование. Мы знаем, что за последние два года пандемия коронавируса, принеся тяжелые последствия для всего человечества, также выявила ряд нерешенных до сих пор проблем в сфере образования. В условиях затянувшейся пандемии дистанционное образование стало единственным способом продолжить образовательный процесс. Несомненно, большое значение в проведении качественного дистанционного образования имеют IT-технологии и дистанционные образовательные платформы. Потому что эту форму обучения невозможно представить без них. В данной статье на основе мнений отечественных

и зарубежных ученых и нормативно-правовых документов анализируется, что возможности дистанционного образования расширились в результате развития цифровых технологий, что важно в обеспечении права на высшее образование. В ходе анализа подробно раскрываются понятие дистанционного образования, понятие дистанционных образовательных технологий, особенности дистанционного образования, а также проблемы, связанные с организацией дистанционного образования, их правовая природа и сущность.

Ключевые слова: дистанционное образование, право на высшее образование, цифровые образовательные технологии, дистанционные образовательные платформы.

ISSUES OF ENSURING THE RIGHT OF CITIZENS TO HIGHER EDUCATION BY IMPROVING DISTANCE EDUCATION

Bokiyev Jahongir Nurmatjon ugli,

Lecturer, Department of Constitutional law,
Tashkent State University of Law

Abstract. The potential of digital technology is efficiently utilized in many sectors of the contemporary, developing world. In particular, the fact that the educational system is providing more and more of these chances each day helps to uphold the right to education. We are aware that the coronavirus epidemic, which has had devastating effects on all of mankind over the past two years, has also brought to light a number of issues in the area of education that have not yet been fully handled. In the context of a protracted pandemic, distance education has become the only way to continue the educational process. Without a doubt, the usage of IT tools and digital learning environments is crucial in providing high-quality remote education. Because this form of education is unimaginable without them. This article discusses how the possibilities of remote education have increased as a result of the development of digital technologies, which is vital in maintaining the right to higher education. It does so based on the perspectives of local and international scientists as well as legislative documents. The analysis reveals in detail the concept of distance education, the concept of distance educational technologies, the features of distance education, as well as the problems associated with the organization of distance education, their legal nature, and their essence.

Keywords: distance education, the right to higher education, digital educational technologies, distance learning platforms.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda ko'plab sohalarda tub islohotlar amalga oshirilayotganligi barchamizga yaxshi ma'lum. Shunday ijobiy yangilanishlar hech shubhasiz ta'lim tizimini ham chetlab o'tgani yo'q. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining har bir nutqida, albatta, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning ta'lim olish masalasi, ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratadi. Davlat rahbari 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomalarida ham ta'lim masalasiga to'xtalib, Yusuf Xos Hojibning quyidagi juda ham o'rinli va to'g'ri jumalari-

ni keltirib o'tdilar: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

Darhaqiqat, har bir davlatning rivoji uning kelajak avlodi qanchalik yuksak bilim, malaka va tajribaga ega ekanligiga bog'liq. Aynan shu maqsadda biz ham ta'limga alohida e'tibor qaratib, sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlari-ga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishimiz lozimligini alohida ta'kidlagan holda, mamlakatimizda 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berishni taklif etdilar [1].

Shuningdek, o'tgan yillar davomida ham bir qator muhim islohotlar amalga oshirilganligi, ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi ta'lim, xususan, oliy ta'limning rivojiga katta hissa qo'shdi, deb aytish mumkin. Inson qadri uchun muhim bo'lgan ushbu islohotlarning huquqiy asoslari sifatida 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi-ning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" hamda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur konsepsiya va strategiyada oliy ta'limga qamrovni oshirish, xususan, 2022-yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish aniq maqsad qilib belgilangan. Bu maqsadni amalga oshirishda, albatta, nodavlat ta'lim muassasalari hamda masofaviy ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, bugungi kunda oliy ta'limga qamrov hamda ta'lim sifatini oshirish, shaxsning oliy ta'lim olish huquqini ta'minlash, buning uchun masofaviy ta'limni kengaytirish, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq huquqiy asoslar yetarli bo'lsa-da, biroq mazkur sohadagi ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Bu esa quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi:

1) masofaviy ta'lim orqali oliy ta'lim olish huquqini ta'minlashni tahlil qilish;

2) raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy ta'lim berish jarayonining ta'lim sifatiga ta'siri;

3) oliy ta'lim tizimi, shu jumladan, masofaviy oliy ta'lim rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish asnosida ijobiy amaliyotni milliy qonunchilikka joriy qilish masalalari.

Mazkur masala bugungi kunda juda ham dolzarb bo'lganligi sababli ko'pgina milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan masofaviy ta'limning turli jihatlarini o'rganilgan va o'rganilmoqda. Xususan, milliy tadqiqotchilardan O. Zakirova, B. Nurmatov, M. Bahromov, S. Rizayeva, D. Sidiqova, T. Mamataliyev va boshqalar masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lsa, masofaviy ta'lim bir necha yillar oldin rivojlangan xorijiy mamlakatlarda R.F. Moran, C.L. Smith, V. Sharov, O.V. Kuznetsova, L.N. Gasaway, H. Leskovac va boshqa ko'plab olimlar masofaviy ta'limning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan.

Material va metodlar

Oliy ta'lim sohasida masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, ular ilmiy jihatdan yetarli darajada tahlil qilinmaganligi, shuningdek, raqamlashtirish sharoitida rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va uning asnosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bilan bog'liq bir qator muammolar borligi sababli ushbu tadqiqot ishida, asosan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shu bilan birga, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda ta'limning ajralmas qismiga aylanib qolgan masofaviy ta'lim hamda unga bo'lgan ehtiyojning naqadar yuqori ekanligi Sars-Covid koronavirus pandemiyasi davrida yaqqol namoyon bo'ldi. Shu o'rinda masofaviy ta'lim tushunchasiga oydinlik kiritish maqsadga muvofiqdir. Masofaviy ta'lim bir nechta tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, unga ta'lim shakli va ta'lim texnologiyasi sifatida baho bergan tadqiqotchilar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, A.A. Andreev masofaviy ta'limni texnik vositalardan foydalanishga asoslangan ta'limning gumanistik shakli sifatida e'tirof etgan bo'lsa [2], Moskva davlat statistika, iqtisodiyot va axborot universiteti vakillari

esa talaba va professor o'rtasidagi ta'lim jarayonlarida qo'llanadigan ta'lim texnologiyalari deb baholashgan [3].

Bundan ko'rinadiki, masofaviy ta'lim – bu ta'lim shakli yoki ta'lim texnologiyasi ekanligi xususida yagona yondashuv mavjud emas.

Bizning fikrimizcha, masofaviy ta'lim – bu shunday ta'lim olish shakli, unda talaba va o'quvchilar professor-o'qituvchilar bilan yuzma-yuz ko'rishmagan holatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib ta'lim oladi. *Ma'lumot uchun: 1969-yil Buyuk Britaniyada dunyoda birinchi masofaviy universitet – “Buyuk Britaniya ochiq universiteti” (The Open university) tashkil etilgan.*

Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, uning oliy ta'lim olish huquqini ta'minlashdagi o'rni haqida bir qator xorijiy va milliy tadqiqotchilar o'zlarining fikrlarini ilgari surgan. Xususan, Rachel F. Moran masofaviy ta'limning eng asosiy qulayliklaridan biri sifatida talabaning o'zi uchun qulay sharoitda, qulay vaqtda bilim egallashi, ma'ruzalarni erkin tinglashini ko'rsatgan [4].

S. Raxmonova ham masofaviy ta'lim xarakteratlarni kamaytirishi (bino, transport), vaqtni tejashi (yo'l va darsga yig'ilish vaqti), talabaga mashg'ulot vaqti, joyi va davomiyligini rejalashtirish imkonini berishi, auditoriyaning cheklanmaganligi, elektron kutubxona va informatsion texnologiyalardan foydalanish hisobiga ta'lim sifatini oshirish imkoni mavjudligi, talabalarining sog'lig'i holati va imkoniyatidan qat'i nazar, yagona ta'lim muhitini yaratishi bilan ta'limni yangi ilg'or bosqichga olib chiqqanligini ta'kidlagan [5].

D. Sidiqova ham masofaviy ta'limning quyidagi ijobiy jihatlari keltirib o'tgan [18]:

- chet elliklar, nogironlar va turli xil nogironligi bo'lgan odamlarning masofaviy o'qitish imkoniyati;

- individual sur'atda o'rganish imkoniyati;

- talabalar uchun ma'lumotlar bazalari, kutubxonalar kataloglari va boshqa axborot resurslaridan bepul foydalanish;

- talabalarining shaxsiy ishlarini yuritishda qulaylik;

- interaktivlik (tezkor ma'lumot almashish imkoniyati).

Haqiqatan ham, inson qanchalik komfort holatda bilim olsa, bu bilimning sifati nazorat ostidagi jarayonlardan bir necha barobar yuqori bo'ladi [19].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan, masofaviy ta'limning ijobiy jihatlari va qulayliklaridan tashqari quyidagi bir nechta muammoli masalalari ham mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Masalan, O.V. Kuznetsova masofaviy ta'limning quyidagi salbiy jihatlari alohida e'tirof etadi:

- talaba o'qituvchi bilan shaxsan maslahatlashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi;

- “jonli” auditoriyada ta'lim olish, o'qituvchi va talabalar bilan muloqot qilish, omma oldida nutq so'zlab, fikr bildirish imkoniyati mavjud emas;

- masofaviy ta'limni har qanday sohaga qo'llab bo'lmaydi. Masalan, tibbiyot, kimyo-texnologiya, veterinariya va boshqa sohalarda masofaviy ta'limni tashkil etish mantiqsiz;

- hamma talaba ham masofaviy shaklda mukammal ta'lim olishga o'ziga motivatsiya bera olmaydi. An'anaviy ta'limda esa o'qituvchi talabaning bilim olishga qiziqishi ortishidagi asosiy shaxs hisoblanadi;

- talaba o'zining bilim va salohiyati, olib boriladigan fanlardan yiqqan ballarini boshqa talabalar bilan solishtirish imkoniyatiga ega emas. Masalan, ular bir auditoriyada dars mashg'ulotida bo'lmaganligi, birga topshiriqlar bajarmaganligi sababli o'zining bilimni boshqalarning bilimi bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Olima ko'rsatib o'tgan jihatlardan tashqari milliy sharoitdan kelib chiqqan holda, masofaviy ta'limni tashkil etish bilan bog'liq quyidagi salbiy holatlarni ham sanab o'tish mumkin.

*Birinchi*dan, masofaviy ta'lim bevosita Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan

holda olib borilganligi sababli internet tezligi bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi.

O'tkazilgan o'rganishlar natijasida aniq bo'ldiki, so'nggi 2 yilda Internet tarmog'iga ulanish tezligi qariyb 4 barobarga oshib, joriy yilda o'rtacha tezlik 186 megabit sekunda yetdi.

Internetga ulanish tezligi Toshkent tibbiyot akademiyasi va Toshkent davlat transport universitetida 1 gigabit sekund, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya hamda Chirchiq davlat pedagogika universitetlarida 600 megabit sekund, Toshkent davlat pedagogika universitetida esa 500 megabit sekunda yetkazilgan.

Biroq O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filialida 4 megabit sekund, O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali hamda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filialida esa 20 megabit sekund ulanish tezligi bilan eng past ko'rsatkich qayd etilgan bo'lsa, yirik oliygohlar bo'lishiga qaramasdan Samarqand davlat tibbiyot institutida tezlik o'rtacha 74 megabit sekund, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida esa 83 Megabit sekunda teng.

Internet tezligi qancha yuqori bo'lsa, masofaviy ta'lim ham shuncha sifatli bo'ladi, deb bemalol aytish mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlar faqat oliy ta'lim muassasalaridagi holat hisoblanadi. Aholi uchun mavjud internet tezligi ham yetarli darajada qoniqarli emas va bu, ayniqsa, olis hududlarda yaqqol seziladi.

Ikkinchidan, masofaviy ta'lim shaklini olib borishda qo'llanadigan masofaviy ta'lim platformalarini mukammal darajada biladigan professor-o'qituvchilarning yetishmasligi, ularda IT texnologiyalari, kompyuterdan foydalanish bo'yicha yetarli kompetensiyaning mavjud emasligi ham dolzarb masalalardan

biri. Buning natijasida hanuzgacha ta'lim jayronlarida qog'oz vositalaridan voz kechilmayapti, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldi olinmayapti.

Oliy ta'limda masofaviy ta'lim bo'yicha xorijiy tajribani tahlil qiladigan bo'lsak, Xitoy Xalq Respublikasida an'anaviy oliy ta'lim muassasalarini takomillashtirish natijasida 1979-yilda Milliy radio va televideniya universitetlari tarmog'i tashkil etilib, radio va televideniya orqali masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari yaratildi. Bugungi kunda oliy ta'lim rivojlangan Germaniya, Italiya, Angliya, Gollandiya kabi davlatlarda masofaviy ta'limning (ochiq masofaviy ta'lim) imkoniyatlaridan keng foydalanish tendensiyalari kuzatilmoqda. Turkiyada talabalarning yarmi masofaviy shaklda ta'lim olmoqda [9].

Masofaviy ta'lim shakli ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning ham oliy ta'lim olish imkoniyatini oshiradi. Buyuk Britaniya va boshqa bir qator rivojlangan davlatlarda buning yaqqol amaliy misolini ko'rish mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada tashkil etilgan «Open university» mamlakat qamoqxonalariining eng yirik masofaviy oliy ta'lim provayderi hisoblanadi. Mazkur universitet Buyuk Britaniyaning aksariyat qamoqxonalaridagi 1700 ga yaqin talabalarga oliy ta'lim kurslarini taqdim etadi [11].

Bundan tashqari, masofaviy ta'lim shakli shaxsning xorijiy ta'lim muassasalarida ham qiziqishlariga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Masalan, bugungi kunda ko'pgina o'zbekistonlik talabalar Rossiya, Italiya, Avstriya kabi davlatlarning nufuzli ta'lim muassasalarida, xususan, Sapienza universitetida masofaviy oliy ta'lim (magistratura) olmoqda. Buni ham masofaviy ta'lim orqali shaxsning oliy ta'lim olish huquqini ta'minlashning bir shakli deb hisoblash mumkin.

Umuman olganda, yuqoridagi barcha fikrlardan ham ko'rinadiki, masofaviy ta'lim shakli shaxsning oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlash imkoniyatini oshiruvchi asoslardan biri hisoblanadi.

Xulosalar

Olib borilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib, masofaviy ta'lim shaklini takomillashtirish orqali shaxsning oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, bu sohada oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligi yuzasidan quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan maqsadlarni amalga oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan kelib chiqib, masofaviy ta'lim shakli bo'yicha qabulni amalga oshirish lozim. Ushbu farmon ijrosi yuzasidan 2022-2023-o'quv yili uchun Toshkent davlat yuridik universiteti 300 nafar talabani masofaviy ta'lim shakli asosida talabalikka qabul qildi. Masofaviy ta'lim shakli bo'yicha qabul parametrlarini ishlab chiqarishdan ajralmagan va ta'lim oluvchilarni jalb etgan holda, bosqichma-bosqich ko'paytirish maqsadga muvofiq. Buning natijasida nafaqat masofaviy shaklda ta'lim olishni xohlovchilarning ta'lim olish huquqlari ta'minlanadi, balki oliy ta'limga qamrov ham sezilarli darajada ortadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 100-moddasini quyidagi mazmundagi o'zgartirish bilan to'ldirish lozim.

Maxsus tartibli koloniyalardan tashqari jazoni ijro etish muassasalarida jazoni ijro etayotgan mahkumlar jazoni ijro etish rejimiga muvofiq, sirtqi hamda masofaviy oliy ta'lim olish huquqiga ega. Mazkur o'zgartirishning qonunchilikka kiritilishi, birinchidan, sodir etilgan jinoyat uchun mahrum etilgan huquqdan yana boshqa huquqning mahrum etilishining oldi olinadi. Ya'ni shaxs sodir etgan qilmishi uchun bir necha huquqlari, ayniqsa, jinoyat sodir etishi bi-

lan bevosita bog'liq bo'lmagan ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lmaydi. Ikkinchidan, tayinlangan jazoni o'tab chiqqan shaxs oliy ma'lumotga ega holda ozodlikka chiqishi uning takroran jinoyat sodir etmasligi, jamiyatda retsidiv jinoyatlar soni ortmasligiga xizmat qiladi. Chunki shaxsning takroran jinoyat sodir etishiga aksariyat hollarda uning jazoni o'tab chiqqandan so'ng ish topa olmasligi, ishlash uchun ma'lumoti, bilim va malakasi mavjud emasligi sabab bo'ladi. Buni Toshkent viloyatidagi mavjud tumanlar probatsiya xizmati xodimlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma va ular tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda ham ko'rish mumkin.


Uchinchidan, masofaviy ta'lim shaklini sifatli olib borish maqsadida aholi va oliy ta'lim tashkilotlari uchun internet sifati, tezligini oshirish bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Zero, ta'limning bu shakli sifatsiz internet bilan ko'zlangan natijaga olib bormaydi. 2022-yil yakunidagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Internet tezligi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 122-pog'onada turibdi [13] (rasm).

To'g'ri, so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar, yuqori o'ringa ko'tarilish kuzatilgan, biroq bu O'zbekiston uchun yetarli emas.

To'rtinchidan, masofaviy ta'lim shakli-da ta'lim oluvchilar uchun sifatli o'quv materiallari, kontentlar, o'quv reja va dasturlar tayyorlashni izchil nazorat qilish lozim [6]. Buning uchun Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, o'quv jarayonini monitoring qilishni masofadan turib amalga oshirish maqsadida oliy ta'lim tashkilotining masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot – Learning Management System (LMS) platformasi Oliy

ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi hamda Ta'lim sifatini nazorat qiluvchi tegishli tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari,

pedagog xodimlar, ta'lim oluvchilar va boshqa axborotlar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi axborot tizimiga integratsiya qilinishi zarur [5].



O'zbekiston Internet tezligi ko'rsatkichi.

Beshinchidan, ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining zamonaviy ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim platformalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Buning uchun ta'lim jarayonini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish, bunda har bir professor-o'qituvchining kompetensiyasini oshirish, mavjud axborot tizimlari (HEMIS, DISTANT, DIGITAL, GOOGLE CLASSROOM

va boshqa masofaviy ta'lim platformalari) dan samarali foydalanish bo'yicha doimiy ravishda o'quv kurs va seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda nafaqat masofaviy ta'limni rivojlantirish, balki ta'limning barcha shaklini sifat darajasiga olib chiqish uchun zamonaviy texnologiyalarni yaxshi bilish har bir professor-o'qituvchining zaruriy kompetensiyasi bo'lmog'i lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the citizens of Uzbekistan]. 2022, December 20. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/577488/>.

2. Andreev A.A. K voprosu ob opredelenii ponyatiya “distansionnoye obucheniye” [To the question of the definition of the concept of “distance learning”]. Available at: http://www.e-joe.ru/sod/97/4_97/st096.html/.
3. Otkrytoye obrazovaniye. Terminy i opredeleniya [Open education. Terms and Definitions]. Moscow State University of Economics, Statistics and Informatics. Available at: <http://www.info.mesi.ru/program/glossary00.html/>.
4. Moran R.F. Diversity, distance, and the delivery of higher education. *Ohio State Law Journal* (OHSLJ), vol. 59 (775). Available at: https://www.researchgate.net/publication/301750226_Diversity_Distance_and_the_Delivery_of_Higher_Education/.
5. Rahmonova S. Masofaviy ta’lim – sudyalikka nomzodlarni tayyorlash tizimida yangi innovatsion shakl [Distance education is a new innovative form in the system of training of judicial candidates]. *Library*, 2020, vol. 20 (2), pp. 10–12. Available at: <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8904/>.
6. Bokiye J. Polnomochiya gosudarstvennykh organov v oblasti vysshego obrazovaniya po obespecheniyu prava na obrazovaniye [The powers of state bodies in the field of higher education to ensure the right to education]. *Obshchestvo i innovatsii – Society and Innovation*, 2022, vol. 3 (7/S), pp. 130–137. DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss7/S-pp130-137/.
7. Sharov V.S. Distantionnoye obucheniye: forma, tekhnologiya, sredstvo [Distance learning: form, technology, means]. *Proceedings of the Russian State Pedagogical University named after A.I. Herzen*, 2009, no. 94. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/distantionnoe-obuchenie-forma-tehnologiya-sredstvo> (accessed 16.01.2023).
8. Aslonova L. Istoriya vozniknoveniya konstitutsionnogo prava na svobodu nauchnogo tvorchestva [The history of the emergence of the constitutional right to freedom of scientific creativity]. *Obshchestvo i innovatsii – Society and Innovation*, 2022, vol. 3 (11/S), pp. 235–245. DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss11/S-pp235-245/.
9. Kiyani I.V. Analiz zarubezhnogo opyta distantionnogo obucheniya [Analysis of the foreign experience of distance learning]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-zarubezhnogo-opyta-distantionnogo-obucheniya/viewer/>.
10. Jakhongir K. Legal guarantees of the use of the internet by individuals. *World Bulletin of Management and Law*, 2023, vol. 18, pp. 33–37. Available at: <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbml/article/download/1926/1682/>.
11. Abdurasulova Q., Alamonova Sh. Perspektivy sozdaniya distantionnogo obrazovaniya v penitentsiarnykh uchrezhdeniyakh. Aktualnyye voprosy i perspektivy tsifrovizatsii sudebno-pravovoy deyatel’nosti [Prospects for the creation of distance education in penitentiary institutions]. *Current issues and prospects for the digitalization of judicial and legal activities*, 2022, vol. 1 (01), pp. 139–143. Available at: <https://inlibrary.uz/index.php/combating-offenses/article/view/14434/>.
12. Tikasheva G. Nekotoryye mezhdunarodnyye i natsional’nyye pravovyye normy v sfere zashchity prav detey [Some international and national legal standards in the field of protection of children’s rights]. *Development and Innovations in Science*, 2022, vol. 1, no. 13, pp. 45–49.
13. Speedtest Global Index. Ranking mobile and fixed broadband speeds from around the world on a monthly basis. Uzbekistan Median Country Speeds, 2023, January. Available at: <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan/>.
14. Kastornova V. A. Analiz opyta Frantsii v oblasti ispol’zovaniya tsifrovyykh tekhnologiy v deyatel’nosti obrazovatel’nykh organizatsiy v usloviyakh distantionnogo obucheniya [Analysis of the experience of France in the field of the use of digital technologies in the activities of educational organizations in the context of distance learning]. *Pedagogicheskaya informatika – Pedagogical Informatics*, 2020, pp. 208–222.
15. Simonson M., Zvacek S.M., Smaldino S. Teaching and learning at a distance: Foundations of distance education. 7th ed. 2019.

16. Clark J.T. Distance education. Clinical engineering handbook. Academic Press, 2020, pp. 410–415.
17. Gunawardena C.N., McIsaac M.S. Distance education. Handbook of research on educational communications and technology. Routledge, 2013, pp. 361–401.
18. Sidiqova D.S. Zamonaviy ta'limda masofaviy o'qitish tizimi [The system of distance teaching in modern education]. *Scientific Progress*, 2021, vol. 2, no. 7, pp. 1027–1031.
19. Kuznetsova O.V. Distantionnoye obucheniye: za i protiv [Distance learning: pros and cons]. *Mezhdunarodnyy zhurnal prikladnykh i fundamental'nykh issledovaniy – International Journal of Applied and Basic Research*, 2021, no. 8-2, pp. 362–364.
20. Nurmatjon o'g'li B.J. Rights to education in developed countries' constitutions. *Conferencea*, 2022, pp. 176–179. Available at: <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1255/>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./EJIG1142>
UDC: 347.7(045)(575.1)

IJODKOR MUALLIFNING ISH BERUVCHI YOKI BUYURTMACHI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARIDA MUALLIFLIK HUQUQLARI USTUVORLIGINI HUQUQIY TA'MINLASH MASALALARI

Okyulov Omonboy,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0001-8420-0365
e-mail: o.okyulov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ijod erkinligi va u bilan bog'liq ravishda ijodkor muallif huquqlarining mohiyati, fuqarolik muomalasida ularning dinamikasi tahlil etiladi. Muallif fikricha, ijod erkinligini inson huquq va erkinliklarining tarkibiy qismi sifatida konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida yanada boyitish zaruriyati mavjud. Ijod erkinligi amalga oshirilganda, har doim fan, adabiyot, san'at asarlari, patent huquqi obyektlari yaratiladi, intellektual mulk obyektlari vujudga keladi. Ushbu obyektlar huquqiy muhofazaga layoqatli bo'lganda, ijodkor mualliflarda mutlaq huquqlarni olishga nisbatan ustuvorlik, afzallik mavjud. Bunday imtiyoz hatto intellektual mulk obyekti uchun ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoxud buyurtmachi bilan tuzilgan fuqarolik shartnomasi asosida yaratilganda ham amal qilishi mumkin. Muallif uning xususiyatlarini tahlil etib, ularning huquqni qo'llash va sud amaliyotida namoyon bo'lish mexanizmini shakllantirish bo'yicha o'z takliflarini asoslab berishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: ijod erkinligi, ijodkor muallif, ish beruvchi, buyurtmachi, mehnat shartnomasi, ilmiy tadqiqot ishlari shartnomasi, mualliflik buyurtmasi shartnomasi, mutlaq huquqlar, ijodkor muallifning shaxsiy huquqlari, ijodkor muallifning mulkiy huquqlari.

ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИОРИТЕТНОСТИ АВТОРСКИХ ПРАВ В ОТНОШЕНИЯХ АВТОРА С РАБОТОДАТЕЛЕМ ИЛИ ЗАКАЗЧИКОМ

Окюлов Омонбой,
доктор юридических наук, профессор,
заслуженный юрист Узбекистана

Аннотация. В данной научной статье анализируется сущность свободы творчества и динамика в гражданском обороте прав автора-создателя. Автор утверждает, что имеется существенная необходимость обогащения свободы творчества как составной части прав и свобод человека в процессе конституционных реформ. При реализации свободы творчества всегда создаются произведения науки, литературы, искусства, объекты патентных прав, возникают объекты интеллектуальной собственности. При наличии признаков правовой охраны способности этих объектов у автора-создателя возникают преимущество и приоритет в приобретении исключительных прав. Такие преимущества могут быть реализованы даже в случае, когда объект интеллектуальной собственности создан на основе трудового договора, заключенного с автором и работодателем, либо на основе гражданского

договора, заключенного между заказчиком и автором. Автором статьи анализируются особенности проявления приоритетности прав автора в правоприменительной и судебной практике.

Ключевые слова: свобода творчества, автор-создатель, работодатель, заказчик, трудовой договор, договор на проведение научно-исследовательских работ, договор авторского заказа, исключительные права, личные права автора-создателя, имущественные права автора-создателя.

ISSUES OF LEGAL PRIORITY OF COPYRIGHT IN THE RELATIONSHIP BETWEEN THE AUTHOR AND THE EMPLOYER OR CUSTOMER

Okyulov Omonboy,

Honored Lawyer in Uzbekistan,
Professor, Doctor of Legal Sciences

Abstract. *This scientific article analyzes the essence of freedom, creativity and dynamics in the civil circulation of the rights of the author-creator. The author argues that there is a significant need to enrich the freedom of creativity as an integral part of human rights and freedoms in the process of constitutional reforms. When realizing the freedom of creativity, works of science, literature, art, objects of patent rights are always created objects of intellectual property. If there are signs of the legal protection of the ability of these objects, the author of the creator has advantages, a priority for acquiring exclusive rights. Such an advantage can be realized even in the case when the intellectual property object is created on the basis of an employment contract concluded with the author and employers or on the basis of a civil contract concluded between the customer and the author. The author analyzes the features of the manifestation of the priority of the author's rights in law enforcement and judicial practice.*

Keywords: *freedom of creativity, author-creator, employer, customer, employment contract, contract for scientific research, literary order contract, exclusive rights, personal rights of the author-creator, property rights of the author-creator.*

Har qanday huquq, shaxsiy bo'ladimi yoki mulkiy, huquq subyekti uchun muayyan ahamiyatga ega. Odatda moddiy obyektlarga nisbatan mulk huquqi shaxsiy huquqlar bilan uzviy bog'liq bo'lmaydi. Biroq intellektual mulk huquqida shaxsiy va mulkiy huquqlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bu holat FKning 1033-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, intellektual ijodkorlar o'z faoliyat natijalariga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladilar. Shaxsiy nomulkiy huquqlar ijodkor muallifga, uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar – tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyati natijalariga tegishli bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda ham ijodkorning o'zida saqlanib qoladi.

Shu o'rinda qonun ijodiy faoliyat natijalari bo'lgan intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e'tirof etilish huquqi, ya'ni mualliflik huquqiga alohida urg'u beradi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, o'zbek tilidagi qonunlar matnlarida ushbu urg'uni alohida ilg'ab olish qiyin va ko'p hollarda uni boshqa kategoriyalar bilan almashtirish, chalg'itishga ham olib kelishi mumkin. Gap bu o'rinda "pravo na avtorstva" – mualliflik huquqi va "avtor-skoye pravo" – mualliflik huquqi o'rtasidagi farq to'g'risida bormoqda. 1033-moddaning 3-qismi ham, boshqa qonunlar ham, afsuski, ushbu kategoriyalar o'rtasidagi farqni ochib bermaydi va mualliflik huquqi har ikki holatga nisbatan bir xil ibora tarzida qo'llanadi. Holbuki, mualliflik huquqi, ya'ni ijod-

korning o'z ijod mahsuliga nisbatan muallif sifatida e'tirof etilishi, muallif sifatida tanilishi huquqi intellektual mulk huquqida barcha huquqlarning o'ziga xos gultojisi bo'lishi lozim. Chunki ijodkor bo'lmaganda, ijod mahsuli ham bo'lmaydi. Ijodiy faoliyat, intellektual faoliyat bu o'rinda asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. To'g'ri, qonun uni alohida ajratib ko'rsatadi, e'tirof etadi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonunda ham, Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunda ham, Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi qonunda ham ijodkor alohida maqomga ega subyekt hisoblanadi.

Odatda ijodiy faoliyat inson aqliy faoliyatining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Aynan shu faoliyat orqali yangi g'oyalar, yangi texnologiyalar, yangi badiiy asarlar, original ijrolar vujudga keladi va fuqarolik muomalasiga kirib boradi. Biroq ijodiy faoliyat mahsulining intellektual mulk obyekti sifatidagi fuqarolik muomalasining keyingi jarayonlardagi harakatida mutlaq huquqlar obyektni "o'z qaramog'iga oladi" va bundan keyingi jarayonlarda mualliflik huquqining namoyon bo'lish holatlari xiralashadi va ikkinchi yoki uchinchi planga tushib qoladi. Nima ham deyish mumkin, bozor qonunlari, tijorat qonunlari shuni talab etadi.

Agar muallif ijod obyektiga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lmasa (mutlaq huquq buyurtmachiga o'tishi shartnomada qat'iy shart qilib qo'yilgan bo'lsa) yoxud mutlaq huquqni o'zidan begonalashtirgan bo'lsa, bu holda u deyarli nomigagina mualliflik huquqi bilan qoladi. To'g'ri, intellektual faoliyatning ba'zi obyektlari bo'yicha mutlaq huquq egasi yoki obyektga nisbatan mutlaq huquqni qabul qilayotgan shaxs sotib olayotgan paytda ergashma huquq asosida ijodkor muallifga xarid narxining bir necha foizi miqdorida ulush ajratishi lozim yoxud shartnomada belgilab qo'yilgan bo'lsa, obyektidan foydalanishda olgan samaradan muallif ijodkor uchun ulush, ya'ni mukofot ajratishi kerak. Bu o'rinda ijodkor muallifni juda ham nochor

bo'lib qoldi, deb aytish qiyin. Mamlakatimizda uni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjud. Jumladan, ijodkor muallif obyektni yaratish va uning samaradorligini ta'minlash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy daraja berilishi uchun asos bo'luvchi dissertatsiya sifatida rasmiylashtirishga ham haqli. Ilmiy unvonlar berilishida ham bu holat e'tiborga olinishi mumkin. Shuningdek, u ilm-fan, san'at sohasida faxriy unvonlar, oylik ish haqiga ustamalar olishi mumkin. Albatta, bu ijobiy holat, biroq bu ilmiy va badiiy ijodni tizimli rag'batlantirish sifatida baholanishi mumkin emas, chunki bu jarayonning ba'zi holatlarida ijodkor faoliyati uchun ne'matlarga erishishning muqarrarligidan ko'ra tasodifiyligi namoyon bo'ladi.

Patent huquqi tizimida ijodkor muallifning mualliflik huquqi FKning 1085-moddasida alohida norma sifatida shakllantirilgan. Unga ko'ra, ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga nisbatan mualliflik huquqi va maxsus nom berish huquqi ixtiro, foydali model, sanoat namunasining muallifiga tegishlidir. Binobarin, ushbu obyektlarni o'z ijodiy mehnati bilan yaratgan shaxslar ixtirochi maqomiga ega bo'ladi va ayni paytda o'zlari yaratgan obyektlarga nisbatan maxsus nom berish huquqi ham ularga tegishlidir.

Maxsus nom berish huquqining mohiyati shundan iboratki, patent huquqi obyekti fuqarolik muomalasida bo'lganida, muayyan bir nom, shartli ramz, identifikatsiya belgisi asosida harakat qiladi va ushbu identifikatsiya belgisini nomlash ijodkor muallifga tegishli bo'ladi. Muallif ba'zi holatlarda uni o'zining nomiga qo'yish hollari ham uchraydi. Ham-maga ma'lumki, rentgen nurlari uni yaratgan ixtirochi Konrad Rentgen nomiga qo'yilgan. Qizig'i shundaki, K. Rentgen bu nurlarni har doim X nurlar deb atagan va u butun insoniyatga xizmat qilishi lozim deb hisoblab, uni patentlashga urinmagan.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga bo'lgan mualliflik huquqi va boshqa shax-

siy huquqlar patentga asoslangan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran fuqarolik muomalasida o'zini namoyon qiladi (FKning 1085-moddasi 2-qismi). Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: nima uchun patent shaxsiy huquq vujudga kelganligini guvohlantiruvchi yuridik hujjat hisoblanadi? Axir undan oldin ijodkor ham, ijodiy faoliyat ham va ijodiy faoliyat mahsuli ham mavjud bo'lgan-ku? To'g'ri, haqiqatan ham, ijodiy faoliyat mahsuli bo'lgan obyektga patent berilishi yoki berilmasligidan qat'i nazar, mualliflik huquqi mavjud bo'lgan. Biroq bunday mualliflik huquqi patent obyektiga nisbatan emas, oddiy ilmiy tadqiqot natijasiga nisbatan mualliflik huquqi tarzida namoyon bo'ladi. Qonun ixtiro, foydali model, sanoat namunasini muallifini maxsus huquqlar, imtiyozlar va ijtimoiy tushadagi afzalliklar bilan ta'min etishi mumkin deb ko'rsatadi. Ilmiy darajalar olishdagi imtiyozlar, davlat mukofotlari va faxriy unvonlar olish, xizmat uylarida qo'shimcha alohida xona tarzidagi kabinetga ega bo'lish, ijodiy ta'tillarga chiqish, davlat mukofotlari va xalqaro mukofotlar sohibi bo'lish imkoniyatlari bunga yaqqol dalildir.

Intellectual mulk huquqining fundamental negizi ijod erkinligiga borib taqaladi. Ijod erkinligi falsafiy va huquqiy jihatdan turli yondashuvlar asosida tahlil etib kelinmoqda [1]. Erkinlik insonning ajralmas xususiyati, holati, qadriyati, intilishlari, imkoniyatlari, faolligi, maqsadlarini ifodalovchi holatdir. Erkinlikning eng muhim ifodasi ijodkorlik, inson ichki ozodlikka, hurlikka erishgan taqdirda erkin bo'la oladi. Bunga esa ijod orqali erishadi. Ijod jarayonida inson o'zini anglash orqali o'z ruhiyati erkinligiga erisha oladi. Bu ruhiy tutqunlikni bartaraf etishdir. Erkinlik shaxsni ushlab turuvchi ma'naviy asosdir. U shaxsni cheklovchi barcha holatlarni yengib o'tish, haqiqiy individualizmning namoyon bo'lishidir [2].

Shunday qilib, ijod shaxsning rivojlanish imkoniyatlari erkinligi mujassami, uning qadriyatlarini o'zagi hisoblanadi. Shu sababli inson

erkinligini anglash uchun uning ijodkorlik ruhi faollashuvi lozim bo'ladi. Erkinlik ijodni voqelik doirasidan tashqari chiqishga, insonning zarurat tutqunligidan ozod bo'lishiga olib keladi [3]. Bu o'rinda shuni ham qayd etish lozimki, markscha mafkura asosida "Erkinlik anglangan zaruratsidir" degan mafkuraviy qoida yotadi [4].

Yuqoridagi qarashlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yaqqol payqash mumkin, bir nuqtayi nazar bo'yicha erkinlik zarurat tutqunligidan xalos bo'lish bo'lsa, ikkinchisida, erkinlik zaruratni anglab yetishdir. Agar erkinlik zaruriyat va voqelikni mutlaqo inkor etsa, u holda beboshlikka, anarxiyaga, xaosga olib kelishi mumkin. Bu ijod erkinligiga nisbatan ham to'liq taalluqlidir. Agar u zarurat doirasida o'ralashib qolsa, ijod erkinligi muayyan ma'noda chegaralanib qoladi va jamiyatni rivojlantirish uchun ilg'or, original, unikal g'oyalar taqdim eta olmaydi. Shu sababli ham ijod erkinligini kishilik jamiyati uchun zarur bo'lgan yangi g'oyalar tizimi sifatida baholash o'rinni bo'lar edi.

Ijod erkinligi inson huquq va erkinliklarining tarkibiy qismi sifatida 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (27-modda) va 1966-yildagi Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risida pakt (15-modda) mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, har ikkala xalqaro hujjatda har bir inson o'zi muallifi bo'lgan ilmiy, adabiy yoki badiiy asarlar yuzasidan ma'naviy va moddiy manfaatlari himoya qilinishi huquqiga egaligiga urg'u beriladi [5].

Ushbu xalqaro hujjatlarda texnikaviy ijod erkinligi to'g'risida ko'rsatilmagan. Biroq inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 14-moddasida insonning ta'lim olish huquqi tarkibiy qismi sifatida texnikaviy ta'lim ham eslatib o'tiladi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yildagi Konstitutsiyasi dastlabki loyihasida ijod erkinligi to'g'risida norma mavjud bo'lmaganini qayd etish

lozim. Ushbu norma keyinchalik, umumxalq muhokamasi davrida maxsus modda sifatida shakllantirildi va Konstitutsiyaning 42-moddasida o'z ifodasini topdi. Biroq qizig'i shundaki, bunda asosiy urg'u ilmiy va texnikaviy ijodga berildi. Holbuki, xalqaro standartlar bo'yicha ilmiy, adabiy va badiiy ijod erkinligiga alohida urg'u berilgan. 2022-yil 4-iyunda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi 21-bandiga ko'ra, 42-moddaning 1-qismidagi ilmiy va texnikaviy degan so'zlar ilmiy, texnikaviy, badiiy degan so'zlar bilan almashtirilishi nazarda tutildi [6]. Binobarin, kelgusida ijod erkinligi, texnikaviy ijod erkinligi, ilmiy ijod erkinligi va badiiy ijod erkinligi tur-laridan iborat bo'lishi nazarda tutilmoqda. Bu o'rinda shuni aytish lozimki, texnikaviy ijod erkinligi ijod erkinliklari tizimida alohida sof holda uchramaydi. Odatda u ilmiy-texnika-viy ijod erkinligi sifatida talqin etiladi. L.A. Gumerov ilmiy va texnikaviy ijod, ijod erkinligining mustaqil turi sifatida mavjud deb hisoblaydi va u ilmiy-texnik faoliyat sohasida muhim ahamiyatga ega deb ko'rsatadi [7]. Ilmiy texnika faoliyati inson bilish faoliyatining turi sifatida unikal natijalar izlashga, yangi nazariyalar va texnik yechimlar yaratishga, yangi obyektlarni shakllantirishga qaratilgandir. Albatta texnikaviy ijod erkinligini kamsitmagan holda shuni aytish mumkinki, u klassik ijod erkinligi, ya'ni biz bilgan an'anaviy ijod erkinliklari tizimida mavjud emas. Balki ilmiy ijod erkinligining o'ziga xos qorishmasi sifatida namoyon bo'lmoqda. U sof holatda cheklangan doirada, ya'ni texnik ta'lim, texnik faoliyat, texnik jarayonlarni kreativ yondashuv asosida takomillastirishga qaratilgan ijodiy faoliyat sifatida baholanishi mumkin. Mehnatni ilmiy uslubda tashkil etish ratsionalizatorlik yechimlari sohasida o'zining yaqqol ifodasini topadi. Texnikaviy ijod ilmiy ijodga nisbatan kengroq ommaviylik kasb etishi ham istisno etilmay-

di. Ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar, boshqa xodimlar texnikaviy ijodda har doim ham kuchli ilmiy-ijodiy xarakter kasb etmasligi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy ijod erkinligini ijod erkinligining mustaqil komponenti sifatida ajratib ko'rsatish mumkin. Albatta, buning O'zbekiston Respublikasida alohida konstitutsion rejimga ega bo'lgani shu jihatdan olganda muayyan asosga ega.

Ilmiy ijod erkinligiga kelganda shuni ta'kidlash o'rinliki, u O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O'RQ 576-sonli "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunning 3-, 12-, 14-moddalarida bilvosita o'z ifodasini topgan. Unda ilmiy ijod va axborot erkinligiga alohida urg'u beriladi. Ilmiy faoliyatga berilgan ta'rifda uning mohiyati ochib berishga harakat qilingan. Ilmiy faoliyat obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

Fundamental tadqiqotlar tabiat, jamiyat va insonning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy qonuniyatlar haqida yangi bilimlar olish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, shuningdek, muayyan faoliyat natijasida yaratilgan obyektlarni o'rganishga yo'naltirilgan nazariy va (yoki) tajribaga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlar amaliy maqsadlarga erishish va aniq vazifalarni hal etish uchun asosan yangi bilimlar hamda fundamental tadqiqotlar natijalarini qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar:

- ilmiy faoliyat turi, yo'nalishi va vositalarini tanlash;
- ilmiy faoliyatni yakka tartibda yoki jamoaviy asosda olib borish;
- inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ilmiy faoliyatda qatnashishni rad qilish;

– bajargan ishining darajasi va sifatiga ko'ra moddiy rag'bat olish, shuningdek, ilmiy faoliyati natijalarini amaliyotga tatbiq etishdan mukofot yoki daromad olish;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy loyihalar bo'yicha tanlovlarda qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etish;

– o'zi tomonidan yoki hammualliflikda bajarilgan ilmiy ishlanmalar natijalaridan, agar ular davlat, xizmat va tijoratga oid yoki qonunchilikka muvofiq muhofaza qilinadigan boshqa sirlardan tarkib topmagan bo'lsa, erkin foydalanish, ularni tarqatish hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

– ilm-fan sohasida tadbirkorlik faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirish;

– pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, maslahatchi va ekspert bo'lish;

– agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ilmiy faoliyat natijalarini ilmiy ma'ruza, maqola, monografiya va dissertatsiya himoyasi ko'rinishida hamda boshqa shakllarda taqdim etish huquqiga ega.

Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar:

– inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmaslikka;

– ko'chirmachilikka yo'l qo'ymaslikka, o'zgalarning ilmiy ishlanmalarini o'zlashtirmaslikka va yolg'on ma'lumotlarga asoslanmaslikka;

– intellektual mulk huquqlari va ilmiy odob-axloq qoidalariga rioya etishga majburdir.

Albatta, yuqoridagi normalar ilmiy ijod erkinligi mohiyatini ochib berishga muayyan darajada xizmat qiladi, biroq uning mazmunini to'liq aks ettirmaydi. Buning ustiga, bevosita asosiy qonunimizning o'zida ilmiy ijod erkinligining muayyan chegarasi ham belgilangan. Konstitutsiyaning 26-moddasi 3-qismida o'sha kishining rozilgisiz uning

ustida tibbiy yoki ilmiy tajibalar o'tkazilmasligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 29-moddasiga ko'ra, har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin. Yuqoridagi konstitutsiyaviy normalar ilmiy ijod erkinligi muayyan istisnalar bilan amal qilishini ko'rsatadi. Ilmiy ijod erkinligini ilmiy taqdiqotlar mavzusini tanlash erkinligi, usul va vositalarni belgilash erkinligi, erishilgan ilmiy natijalarni e'lon qilish yoki e'lon qilmaslik erkinligi ma'nosida talqin etish mumkin. Har qanday ilmiy nazariya yashashga haqlidir. Fanda ilmiy qarashlar, nuqtayi nazarlar, nazariyalarning to'g'riligi ovoz berish yo'li bilan hal etilishi, sud yoki davlat organi qarori asosida belgilab qo'yilishi mumkin emas. Xalqaro standartlarda adabiy va badiiy ijod erkinligi to'g'risida ham so'z boradi. 1886-yilgi adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida xalqaro Bern konvensiyasi ham adabiy va badiiy asarlarni farqlaydi. Biroq hozircha asosiy qonunimiz badiiy ijod erkinligi bilan boyitilmoqda xolos. Bu o'rinda savol tug'iladi: badiiy ijod erkinligi va adabiy ijod erkinligi o'rtasida nisbat qanday? Odatda badiiy ijod shartli obrazlar orqali ijodiy faoliyatni amalga oshirish hisoblanadi. Badiiy ijodiyot o'z tarkibiga san'atning bir qancha turlarini, shu jumladan, tasviriy san'at, teatr va kino san'ati, musiqa san'ati va shu kabilarni ham qamrab oladi. Adabiy jarayonlar esa badiiy adabiyot yoki boshqacha aytganda, adabiy asarlar, ya'ni she'riyat, proza, publitsistika va shu kabi asarlarni yaratish jarayoni bilan uzviy ravishda bog'liq. Adabiy va badiiy jarayonlarni farqlash nisbiy shartli xarakterga ega. Ular bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq

va ko'p holatlarda yaxlit kategoriya sifatida tahlil etilishi mumkin. Shu ma'noda olganda Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlarda adabiy ijod erkinligi alohida ajratilib ko'rsatilmadan, faqat badiiy ijod erkinligiga urg'u berilganini tanqidiy yondashuv asosida baholash o'rinli bo'lmagan bo'lar edi. Ijod erkinligi va uning tarkibiy qismlarining asosiy qonunimizda belgilab qo'yilishi Fuqarolik kodeksi loyihasining 4-bo'limida ularni yanada kengroq va batafsilroq talqin etish uchun asos bo'ladi. Ijod erkinligining asosiy qonunimizda belgilanishi shunchaki oddiy deklaratsiya, bayonot emas, u o'zini huquqiy tartibga solish yuklamalariga ega, ommaviy madaniyat sharpalari har tomondan bosib kelayotgan, so'z erkinligi, ijod erkinligi niqobi ostida har xil "bemaza" asarlar bilan virtual maydon to'ldirilayotgan hozirgi davrda ijod erkinligini to'g'ri talqin etish o'ta muhim ahamiyatga ega.

Ijod erkinligi shunchaki deklarativ mazmunga ega bo'lgan huquq emas, u ijodiy faoliyat natijasining muallifi bo'lgan ijodkorga ushbu ijod natijasiga nisbatan huquqlarning vujudga kelishi va fuqarolik muomalasiga kiritilishida imtiyozlar va afzalliklar beradi. Bunday imtiyoz va afzallik qator qonunlarda belgilab qo'yilgan. Jumladan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi" Qonunning 5-moddasida ko'rsatilishicha, "sanoat mulki obyektiga bo'lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo'ladi va patent bilan tasdiqlanadi". Ushbu qonunning 10-moddasida ko'rsatilishicha, "xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki obyektining patentiga bo'lgan huquq, agar bu hol ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishli bo'ladi".

Fuqarolik kodeksining 695-moddasiga ko'ra, ilmiy tekshirish ishlari yoxud tajriba

konstruktorlik, texnologik ishlari pudrati shartnomasi bo'yicha pudratchi buyurtmachining yozma roziligi bilan mazkur shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlarining natijalarini patentlashga haqli. FKning 698-moddasiga ko'ra, pudratchi ishlarni bajarish jarayonida qo'lga kiritilgan huquqiy muhofazaga loyiq natijalarni himoya qilish choralarini ko'rishi va bu haqda buyurtmachini xabardor qilishi, buyurtmachiga bajarilgan ishlarda huquqiy muhofazaga loyiq ilmiy texnikaviy natijalardan foydalanish haqidagi maxsus litsenziyani berishi shart. Xuddi shunga o'xshash holat mualliflik huquqida muallifga nisbatan belgilab qo'yilgan afzalliklarda namoyon bo'ladi. FKning 1056-moddasi 1-qismiga ko'ra, muallifga asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlar tegishlidir. Albatta, mualliflik huquqi va obyekt xizmat asari bo'lishi ham mumkin. FKning 1062-moddasida xizmat asariga bo'lgan mualliflik huquqi rejimi belgilab qo'yilgan. Xizmat vazifalarini yoki xizmat topshirig'ini bajarish tartibida yaratilgan asarga (xizmat asariga) bo'lgan muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari asar muallifida saqlanib qoladi.

Xizmat asaridan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlar, agar muallif bilan ish beruvchi o'rtasidagi shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ish beruvchiga tegishlidir.

Xizmat asaridan foydalanishning har bir turi uchun haq miqdori va uni to'lash tartibi muallif bilan ish beruvchi o'rtasidagi shartnomada belgilanadi. Ish beruvchi bilan tuzilgan shartnomadan qat'i nazar, muallif asar oshkor qilingan vaqtdan e'tiboran o'n yil o'tganidan keyin, ish beruvchining roziligi bilan esa undan ham oldinroq asardan foydalanish va haq olish huquqini to'liq hajmda qo'lga kiritadi.

Muallifning xizmat asaridan topshiriq maqsadi taqozo etmaydigan usulda foydalanish huquqi cheklanmaydi.

Ish beruvchi xizmat asaridan har qanday tarzda foydalanishda o'z nomini ko'rsatishga yoxud uni ko'rsatishni talab qilishga haqlidir.

Mualliflik huquqi obyekti fuqarolik shartnomasi asosida yaratilgan taqdirda uning huquqiy rejimi FKning 1067-moddasida belgilab qo'yilgan.

Muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida yoki mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi faqat ushbu huquqlar o'tkazilayotgan shaxs asardan muayyan usulda va shartnomada belgilangan doirada foydalanishiga ruxsat beradi.

Mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi foydalanuvchiga asardan shunday huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazgan mutlaq huquqlar egasi va (yoki) bu asardan ayni shunday usulda foydalanish uchun ruxsat olgan boshqa shaxslar bilan teng ravishda foydalanishga ijozat beradi.

Mualliflik shartnomasi bo'yicha boshqa shaxsga o'tkaziladigan huquqlar, agar shartnomada bevosita boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, mutlaq bo'lmagan huquqlar hisoblanadi.

Asarga bo'lgan mualliflik huquqi asar aks ettirilgan moddiy obyektga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq emas.

Moddiy obyektga bo'lgan mulk huquqini yoki moddiy obyektga egalik qilish huquqini boshqa shaxsga o'tkazish shu obyektga aks ettirilgan asarga bo'lgan biron-bir mualliflik huquqining o'z-o'zidan boshqa shaxsga o'tkazilishiga sabab bo'lmaydi.

Yuqoridagi holatlardan ko'rinib turibdiki, intellektual mulk obyekti hatto mehnat shartnomasi asosida ish beruvchining topshirig'i asosida yaratilgan bo'lsa ham yoxud fuqarolik shartnomasi, buyurtmachi top-

shirig'i asosida bajarilgan bo'lsa ham ushbu shartnomalar natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar avtomatik ravishda ish beruvchiga yoki buyurtmachiga o'tmaydi. Buning uchun ushbu shartnomalarda mutlaq huquqning ish beruvchiga yoki buyurtmachiga o'tishi to'g'risida aniq-ravshan belgilab qo'yilishi lozim, aks holda, mehnat shartnomasining yoki fuqarolik shartnomasining mavjudligi va shu asosda intellektual mulk obyekti-ning yaratilishi ish beruvchida yoki buyurtmachida mutlaq huquqning vujudga kelishi uchun asos bo'lmaydi. Ushbu holatlar bo'yicha qonun ijodkor muallif uchun o'ziga xos ustuvorlik afzallik maqomini belgilamoqda. Huquqni qo'llash va sud amaliyotida bunga alohida e'tibor qaratish lozim. To'g'ri, ilmiy tadqiqot muassasalarida yaratilayotgan sanoat mulki obyektlari uchun ish beruvchi yoki buyurtmachi maxsus shart-sharoitlar yaratadi. U tomondan tashkil etilgan laboratoriyalarda ilmiy qurilmalar, asbob-uskunalaridan foydalaniladi, juda katta moliyaviy va iqtisodiy resurslar sarflanadi. Agar muallif ixtirochi ishtiroki va ish beruvchi buyurtmachi ishtiroki qiymatlar bo'yicha baholanadigan bo'lsa, bu ijodkor muallifning foydasiga bo'lmasligi tabiiy. Chunki ijodkor muallif o'zining aql-zakovatini, bilimini sarflagan va uning qiymatdagi ifodasi, ish haqi boshqacha tarzda to'lovlar orqali ifodalanishi mumkin. Ish beruvchi yoki buyurtmachini qiymat shaklidagi ishtiroki amalda juda katta summani tashkil etishi tabiiy (masalan, binolar, inshootlar, laboratoriya jihozlari, turli kimyoviy moddalar, tajriba sinov uskunalari, boshqa resurslar bo'yicha xarajatlar, shu jumladan, xodimlar uchun ish haqlari, ijtimoiy to'lovlar ko'rinishida namoyon bo'lib nafaqat bir necha yuz million, hatto milliard so'mlargacha borishi mumkin. Albatta, bozor munosabatlari sharoitida ish beruvchi va buyurtmachi ishtiroki va hissasi juda katta hamda salmoqli o'rin egallaydi. Bu holda ijodkor muallifni o'zi

yaratgan intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar olishda imtiyoz va afzalliklari belgilanishdan voz kechish yoxud hech bo'lmaganda ijodkor muallif huquqlari ustuvorligini, ijodkor muallif bilan ish beruvchi buyurtmachi huquqlari paritetligi prezumpsiyasini belgilash maqsadga muvofiq emasmi degan savol tug'ilishi mumkin. Fikrimizcha, bunday huquqlar paritetini belgilash uchun zarurat mavjud emas, chunki ish beruvchi yoxud buyurtmachi ijodkor muallif bilan tuzadigan shartnomada o'z ishtiroki xususiyatlaridan kelib chiqib mutlaq huquqlarning o'ziga o'tishi to'g'risida aniq-ravshan pisanda qilib qo'yishi mumkin. Bu holda mutlaq huquqlar ish beruvchiga yoki buyurtmachiga tegishli bo'ladi. Agar bunday shart belgilab qo'yilmagan bo'lsa, ijodkor muallif huquqlari ustuvorligi prezumpsiyasi amal qiladi. Huquqni qo'llash amaliyotida mualliflik shartnomalari bo'yicha ham, ilmiy tadqiqot ishlari shartnomalari bo'yicha ham, shuningdek, mehnat shartnomalari bo'yicha ham mutlaq huquqlar ish beruvchiga yoxud buyurtmachiga tegishli bo'lishi haqida shartlarning muhim shartlar sifatida belgilanish amaliyoti mavjud. Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, tegishli mehnat shartnomalari yoki fuqarolik shartnomalarida mutlaq huquqlar kimga tegishliligi ko'rsatilmagan bo'lsa ish beruvchi yoki buyurtmachi ularni o'ziniki sifatida o'zlashtirib olish holatlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda ijodkor mualliflar bunday holatga e'tibor bermasligi, o'z huquqlarini talab qilmasligi ham uchraydi. Ayrim holatlarda esa ish beruvchi xodim o'rtasida nizo kelib chiqishi ham mumkin. Masalan, fermer xo'jaliklaridan birida fermer xo'jaligi xodimi tomchilatib sug'orish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritish orqali suv va energiya sarfini teng barobarga qisqartirishga muvaffaq bo'lgan. Fermer xo'jaligi ushbu ixtiroga nisbatan mutlaq huquqni o'z nomiga rasmiylashtirib oladi. Xodim mutlaq huquqqa sheriklik asosida foydalanish bo'yicha talab qo'yganda, ish beruvchi talabni rad etadi.

Ushbu masala sud muhokamasining predmetiga aylanganda, sud xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bo'yicha ushbu ixtiro yaratilgan degan xulosaga kelib, mutlaq huquqni fermer xo'jaligiga tegishli bo'lishi haqida hal qiluv qarori qabul qiladi. Apellyatsiya instansiyasida sud xodim bilan fermer o'rtasidagi mehnat shartnomasida xodimga tomchilatib sug'orish texnologiyasini yaxshilash majburiyati yuklanmaganini, buning uchun unga qo'shimcha haq to'lanmaganiga e'tibor qaratadi hamda "Ixtirolar, sanoat namunalari va foydali modellari to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga ko'ra, ushbu ixtiroga nisbatan mutlaq huquq xodimga tegishli bo'lishi to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ijodkor mualliflar tomonidan mustaqil, tashabbuskorlik asosida intellektual mulk obyektlarini yaratish nisbatan kam kuzatiladi. Odatda intellektual mulk obyektlari ijodkor mualliflar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoxud fuqarolik shartnomasi asosida yaratish holatlari ko'p uchraydi. Bunda mutlaq huquqlar taqdiri ilmiy tadqiqot ishlari shartnomasi yoki mualliflik shartnomalari orqali belgilanishi lozim. Biroq huquqni qo'llash amaliyotida bu holat aniq-ravshan belgilanmasligi holatlari kuzatiladi. Ushbu masalada yagona sud amaliyotini shakllantirish lozim. Buning uchun Oliy sud plenumi qarorlarida quyidagicha tushuntirish berish taklif etiladi: "Intellektual mulk obyektlari ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki buyurtmachi bilan tuzilgan fuqarolik shartnomasi asosida yaratilganda, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomalarda boshqacha belgilanmagan bo'lsa, FKning 695-moddasi, 1056-moddasi 1-qismi mazmuniga ko'ra, mutlaq huquqlar intellektual mulk obyektlarini o'z ijodiy mehnati orqali yaratgan muallifga tegishli bo'ladi".

Bunday yondashuv qonunlarda belgilangan ijodkor muallif huquqlarining ustuvorligi taomilining huquqni qo'llash va sud amaliyotidagi o'ziga xos kafolati bo'lib xizmat qilgan bo'lar edi.

REFERENCES

1. Saidov A., Okyulov O. Nekotoryye aspekty pravovykh osnov usileniya zashchity prav i zakonnykh interesov sub'yektov tvorcheskoy deyatel'nosti [Some aspects of the legal framework of strengthening the protection of the rights and legitimate interests of subjects of creative activity]. *Proceedings on Intellectual Property*, Moscow, 2022, pp. 28–44.
2. Filosofiya. Tvorchestvo. Kul'tura [Philosophy. Creation. Culture]. Saratov, Saratov State University, 1994, p. 25.
3. Nazarycheva A.I. Svoboda tvorchestva v sisteme lichnostnykh tsennostey [Freedom of creativity in the system of personal senses]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/svoboda-i-tvorchestvo-v-sisteme-lichnostnyh-tsennostey/>.
4. Falsafa asoslari [Foundations of philosophy]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 1982, p. 50.
5. Inson huquqlari to'g'risida Xalqaro Bill [International Bill of Human Rights]. Tashkent, Adolat Publ., 1992, pp.16–26.
6. On Amendments and Additions to the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Draft Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan. *Xalq so'zi – Folk word*, 2022, June 25, , no. 132-133 (8194-8195), p. 3.
7. Gumerov L.A. Individual'noye dogovornoye regulirovaniye pravootnosheniy v nauchno-tekhnologicheskoy sfere [Individual contractual regulation of legal relations in the scientific and technological sphere]. *Scientific notes of the Kazan branch of the Russian State University of Justice*, 2021, vol. 17, pp. 3–8.
8. The Universal Declaration of Human Rights. Available at: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights/>.
9. Economic, social and cultural rights. National Center of the Republic of Uzbekistan on Human Rights website. Available at: <https://nhrc.uz/oz/menu/itisodij-izhtimoiy-va-madaniy-uular/>.
10. International Berne Convention on the Protection of Literary and Artistic Works. Available at: https://www.wipo.int/treaties/en/ip/berne/summary_berne.html/.
11. Bogustov A.A., Glonina V.N., Rozhkova M.A. et al. Tsivilisticheskaya kontseptsiya intellektual'noy sobstvennosti v sisteme rossiyskogo prava [Civilistic concept of intellectual property in the system of Russian law]. Ed. M.A. Rozhkova. Moscow, Statut Publ., 2018, 271 p.
12. Okyulov O. Fuqarolik kodeksi real voqelikni aks ettirmog'i lozim [The Civil Code should reflect the realities]. *Huquq – Law*, 2020, no. 26 (1223), p. 7.
13. Okyulov O. Sud va huquqni qo'llash amaliyotida adolat, insofilik, oqilonalik tamoyillaridan foydalanishning metodologik masalalari [Methodological issues of the use of the principles of justice, fairness and reasonableness in judicial and law enforcement operations]. *Yurist axborotnomasi – Lawyer's Bulletin*, 2020, pp. 55–63.
14. Okyulov O. Issues of increasing the influence of intellectual property law institutions on the development of innovation. Tashkent, Turon Zamin Ziya Publ., 2016.
15. Okyulov O. Voprosy formirovaniya natsional'noy pravovoy sistemy bor'by protiv kul'turnogo piratstva [Issues of formation of the national legal system of combating cultural piracy]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 1, pp. 51–54. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-1-51-54/.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./MLKQ6505>
UDC: 347.2:316.422(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA STARTAPLAR FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Tojiboyev Akbar Zafar o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti dekani o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
ORCID: 0000-0002-9873-6061
E-mail: a.tojiboyev@tsul.uz

Annotatsiya. Jahon amaliyotida innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida e'tirof etiladigan hamda barqaror rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratadigan, turli-tuman muammolarni yechishga qodir bo'lgan muhim omildir. Bugungi kunda yuridik fanga innovatsiya va innovatsion investitsiya shakllari hamda turlariga doir yangi tushunchalar kirib kelishda davom etmoqda. Zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan startaplar, venchur loyihalar kabi innovatsion tushunchalar bunga yaqqol misoldir. Mazkur maqolada mamlakatimizda startaplar faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sanab chiqilgan hamda ular xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan. Xususan, maqolada innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplar mavqeyini belgilash, intellektual mulk natijalari huquqiy muhofazasini yanada optimallashtirish, startaplar faoliyatida shartnomaoldi muzokara institutini takomillashtirish, startaplar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash kabi yo'nalishlarda qonunchilik bazasini takomillashtirish lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, startaplar mavqeyini alohida qonun bilan belgilash, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan startap natijalariga bo'lgan huquqni davlat va loyiha egasi o'rtasida taqsimlashga oid qonunchilikdagi normalarni takomillashtirish, venchur investor va startap o'rtasida tuziladigan shartnomaoldi kelishuvlarni ishlab chiqish hamda startaplarga davlat tomonidan turli imtiyozlar taqdim etish kabi masalalar ilmiy-huquqiy tomondan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: startap, innovatsiya, innovatsion faoliyat, startap ekotizimi, intellektual mulk, moliyalashtirish, startap va investor o'rtasidagi shartnoma, korporativ shartnomalar, investitsion platformalar.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ СТАРТАПОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Тожибоев Акбар Зафар угли,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и.о. доцента, заместитель декана факультета публичного права
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В мировой практике инновации признаны главной движущей силой экономического роста и являются важным фактором, способным решать различные задачи, создавая условия для устойчивого развития. Сегодня в юридическую науку продолжают поступать новые представления о формах и видах инноваций и инновационных инвестиций. В частности, в качестве примеров можно привести такие инновационные концепции, как стартапы, основанные на современных инновационных идеях, разработках и технологиях,

венчурные проекты. В данной статье приведены и проанализированы на основе опыта зарубежных стран основные направления совершенствования правового регулирования стартапов в нашей стране. Так, в статье упоминается о необходимости совершенствования нормативно-правовой базы в следующих направлениях: определение положения стартапов в реализации инновационной политики, дальнейшая оптимизация правовой охраны результатов интеллектуальной деятельности, совершенствование института преддоговорных переговоров в деятельности стартапа и совершенствование системы государственной поддержки стартапов. В статье даны научно-правовые обоснования таким вопросам, как определение положения стартапов отдельным законом, совершенствование норм законодательства касательно распределения права на результаты финансируемого государством стартапа между государством и владельцем проекта, разработка преддоговорных соглашений между венчурным инвестором и стартапом, а также предоставление стартапам различных государственных льгот.

Ключевые слова: стартап, инновация, инновационная деятельность, стартап-экосистема, интеллектуальная собственность, финансирование, договор между стартапом и инвестором, корпоративные договоры, инвестиционные платформы

THE MAIN DIRECTIONS FOR IMPROVING THE LEGAL REGULATION OF START-UPS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tojiboyev Akbar Zafar ugli,

Deputy Dean of the Faculty of Public Law,
Tashkent State University of Law,
Acting Associate Professor, PhD

Abstract. In practice, innovations are recognized as the main driving force of economic growth and are an important factor capable of solving various problems, and creating conditions for sustainable development. In this article, the main directions for improving the legal regulation of startups in our country are listed and they are analyzed based on the experience of foreign countries. In particular, the article mentions the need to improve the regulatory framework in such areas as determining the position of startups in the implementation of innovation policy, further optimizing the legal protection of the results of intellectual activity, improving the institution of pre-contractual negotiations in startup activities and improving the system of state support for startups. The article provides scientific and legal justification for such issues as determining the status of startups by a separate law, improving the norms of legislation regarding the distribution of the right to the results of a state-funded startup between the state and the owner of the project, as well as the development of pre-contractual agreements between a venture investor and a startup, as well as granting startups various government benefits.

Keywords: startup, innovation, innovative activity, startup ecosystem, intellectual property, financing, a contract between startup and investor, corporate contracts, investment platforms.

Kirish

Startaplar taraqqiyoti va istiqboli, albatta, mamlakat turmush tarzining yuksalishi, aholi bandligi, turli xildagi yangi tovar, ishlar va xizmatlar taklif qilnayotganligi hamda raqobat muhitining jonlanishiga kafolat vazifasini o'tashdan tashqari, mamlakat iqtisodiyoti barqarorlashishi va yalpi ichki mahsulot hajmi o'sishiga ham katta ta'sir o'tkazadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda startap asoschilari bozorda rivojlanish uchun taklif etiladigan kapitallarning kamligi (63 %), yirik kompaniyalarning innovatsion texnologiyalarga befarqligi (53 %; atigi 35 % yirik kompaniyalar startaplar bilan ishlashga qiziqish bildirgan) hamda sohada malakali mutaxassislarning kamligi (47 %) kabi muammo va to'siqlarga duch kelmoq-

da [1]. O'zbekistonda startaplar faoliyatida vujudga kelayotgan muammolarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq: *innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplar mavqeyini belgilash; intellektual mulk natijalarining huquqiy muhofazasini yanada optimallashtirish; startaplar faoliyatida shartnomaoldi muzokara institutini takomillashtirish; startaplar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash.*

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida taqqoslash, qiyoсий-huquqiy, induksiya va deduksiya hamda boshqa metodlar qo'llandi. Shuningdek, ushbu maqolada O. Oqyulov, N. Imomov, S. Gulyamov, Q. Mehmonov, S. Tojiboyevlar [2]ning ilmiy ishlanmalaridan foydalangan holda innovatsiya, innovatsion investitsiya, intellektual mulk, startaplarga ko'rsatilayotgan imtiyozlar, startap bilan bog'liq soliq va boshqa nizolar borasidagi qarash va takliflar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalari

Innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplar mavqeyini belgilash

Startaplar ijtimoiy hayotning o'ziga xos voqeligi bo'lgan tushunchadir. Startap va innovatsiya o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Ko'pgina manbalarda startaplar innovatsion jarayonlarning mahsuli sifatida talqin qilinadi. Ta'kidlash lozimki, innovatsiya ilm-fan – ijod – ishlab chiqarish (sanoat) tizimlarining o'zaro integratsiyalashuviga olib keladigan murakkab jarayondir.

O. Oqyulov qarashlarida innovatsiya iqtisodiy va ijtimoiy turmushda taraqqiyot manbayi, davlat boshqaruvi, maqsadli ta'sir ko'rsatish obyekti, investitsiya shakli, tadbirkorlik faoliyatining alohida yo'nalishi sifatidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi [3]. Muallifning fikricha, dunyo bo'yicha innovatsiya tashkiliy-huquqiy shaklining eng ko'p tarqalgan turi startaplar hisoblanadi.

N. Imomovning fikricha, innovatsiyalar intellektual mulkning yangi obyektlari hisoblanadi va fuqarolik huquqining mazkur tarmog'i normalari bilan tartibga solinishi lozim [4].

O'z navbatida, S. Gulyamov innovatsion faoliyat yangi bilimlar olish va uni bozorning boshqa ishtirokchilariga realizatsiya qilish bilan bog'liq tijorat faoliyat ekanligini ta'kidlaydi [5].

Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ldi ki, startaplar ushbu innovatsion jarayonlarning barcha bosqichlarini bosib o'tish bilan birga, nafaqat innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan ilmiy-ijodiy ishlanmalarning sanoatda ishlab chiqarish va foydalanish uchun mo'ljallanganligi, balki innovatsion yondashuvlar asosida sanoatda muayyan muammolarga yechim taklif qilayotganligi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, startaplar innovatsiyaning bir ko'rinishi, ba'zan ushbu jarayonni olib boruvchi subyekt sifatida innovatsion loyiha va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda faol namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Nazarimizda, startaplar innovatsion faoliyat va jarayonlarning ajralmas o'zagi bo'lganligi bois uning mavqeyi ham qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sanaladi. Hujjat bilan innovatsiya, innovatsion faoliyat tushunchalari, innovatsion faoliyat ishtirokchilari, innovatsion faoliyat infratuzilmalari subyektlari haqida qoidalar ishlab chiqilgan. Vaholanki, innovatsion faoliyatning asosiy negizi va drayveri bo'lgan startaplar haqidagi qoidalar qonunda umuman aks etmagan. Qonunning 3-moddasida innovatsion faoliyat sifatida yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydigan faoliyat qayd etilgan. *Shu o'rinda savol tug'iladi: qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan innovat-*

sion faoliyatni olib borish kimning “cheqi”ga tushadi? Albatta, bu faoliyat yirik va bozorda ustun mavqelarga ega bo‘lgan kompaniya va korporatsiyalar tomonidan amalga oshirishini kutish noo‘rin bo‘lar edi. Ular odatda, istiqbolli startaplarni qidirish va moliyalashtirish bilan shug‘ullanishi ko‘proq manfaat olib keladi. Oxir-oqibat innovatsion faoliyat kichik biznes guruhi yoki jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilishi aniq. Shu ma’noda startaplar innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish maqsadida katta sahnaga chiqib keladi.

MDH davlatlarining innovatsion qonunchiligiga nazar tashlar ekanmiz, ularda ham xuddi bizdagi holatlar takrorlanishiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Ukraina Respublikasining 2002-yil 4-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi [6], Belarus Respublikasining 2012-yildagi “Belarus Respublikasida davlat innovatsion siyosati va innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi [7], Qozog‘iston Respublikasining 2006-yil 23-martdagi “Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qonun [8]larida ham startaplar haqida alohida qoidalar o‘z aksini topgan emas. Lekin O‘zbekiston qonun ijodkorlari bu bilan o‘zlarini oqlamasligi lozim. Chunonchi, ushbu qonunlar qabul qilinish paytida startap tushunchasi umumfan va ijtimoiy muomalaga hali to‘liq kirib kelmagan edi. Vaholanki, Yevropaning rivojlangan davlatlaridan biri Fransiyaning 2006-yildagi “Ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha dastur to‘g‘risida”gi hamda 2014-yildagi “Biznes loyihalarni investitsiyalash tartibi to‘g‘risida”gi Qonun [9]lari, shuningdek, Koreya Respublikasining innovatsion siyosatni ta‘minlovchi turli qonunlarida [10] startaplarning mavqeyi alohida belgilangan.

Darhaqiqat, 2020-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan startap sohasini tartibga soluvchi maxsus “Startaplar to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi taqdim etildi. Lekin ushbu qonunning kelajakda qabul qilinishi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda

startaplar to‘g‘risidagi qoidalar aks etmasligi kerak, degan qarashga sabab bo‘lmasligi lozim.

Fikrimizcha, innovatsion siyosatni amalga oshirishda startaplarning mavqeyini mamlakatimizning innovatsiya sohasidagi asosiy qonuni bilan ham alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasini startap tushunchasi bilan to‘ldirish taklif qilinmoqda.

O‘z navbatida, shu orqali ushbu sohada quyidagi chalkashliklarning oldini olishga hissa qo‘shish mumkin:

birinchidan, startaplarning mavqeyi qonun darajasida mustahkamlanishi;

ikkinchidan, startaplar ta‘rifiga aniq yechim taklif qilinishi;

uchinchidan, startapning innovatsion jayronlarni amalga oshiruvchi subyekt va drayver sifatidagi o‘rni aniqlashishi.

Intellektual mulk natijalarining huquqiy muhofazasini yanada optimallashtirish

Mamlakatimizda startaplar faoliyatida intellektual mulk natijalariga bo‘lgan huquq va uni huquqiy muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy baza shakllantirilgan bo‘lib, zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borilmoqda. Startap innovatsiya tashkiliy-huquqiy shaklning yangi va dinamik rivojlanayotgan turi bo‘lgani bois ushbu sohada fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Bugungi kunda mazkur sohaga oid huquqiy bazani zamonaviy talab va tendensiyalarga moslashtirish zarurati vujudga kelgan. Ayniqsa, bugun davlat mablag‘lari va buyurtmasi hisobiga faoliyat olib boradigan startap loyihalarga nisbatan huquqlarni aniqlash, mutlaq huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq masalalar dolzarblik kasb etmoqda.

L. Toshpo‘latovanning fikricha, davlat mablag‘lari hisobiga yaratilgan intellektual mulk obyektlari maqomini aniqlash sohasi-

da yetarlicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Muallif sohani tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi to'g'risida"gi qonuni loyihasini ishlab chiqishni o'rta-ga tashlaydi [11].

G. Vapayevaning aytishicha, sohadagi bo'lg'usi qonunning asosiy maqsadi va vazifasi istiqbolli ilmiy loyihalarni baholash, joriy qilish va sanoatda o'zlashtirish, innovatsion loyihalarni ishlab chiquvchi va joriy qiluvchi korxonalar, avvalambor, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat sohalariga qo'shimcha rag'batlantirish va imtiyozlar berish hamda milliy innovatsion tizim yaratish hisoblanadi [12].

Nazarimizda, mualliflarning qarashlarini inkor etmagan holda, bu o'rinda masalaning asosiy mohiyati – davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan startap faoliyat natijalariga bo'lgan huquqni taqsimlashdadir.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat intellektual mulkni xo'jalik muomalasiga kiritish jarayonini tezlashtirish uchun budget mablag'lari asosida yaratilgan intellektual mulk, ularning bevosita yaratuvchilari, ya'ni universitetlar, davlat tadqiqot institutlari, hatto xususiy firmalarga mutlaq huquqlarni berish yo'lidan borgan [13].

Davlat tomonidan moliyalashtirish hisobiga yaratilgan intellektual mulkka bo'lgan huquq va uni tijoratlashtirish masalasiga AQShda qabul qilingan Patent va savdo belgisi to'g'risidagi qonuni (*Patent and Trade-mark Law Amendments Act*) yoxud Bey-Doul qonuni (*Bayh-Dole Act of 1980*) va Stiven-son-Uaydler qonun (*Stevenson – Wydler Technology Innovation Act of 1980*) [14] aniq yechim bergan. Masalan, Bey-Doul qonuniga muvofiq, hukumatning federal mablag'lari hisobidan moliyalashtirish natijasida yaratilgan ixtirolarga nisbatan universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va kichik korxonalarga mulk huquqi taqdim etilgan. Vaholanki, ixtirodan dunyoning boshqa mamlakatlarida ham foy-

dalana olish uchun federal hukumatga chaqirib olinmaydigan, tekin, mutlaq bo'lmagan litsenziya taqdim etilishi kerak. Binobarin, mutlaq litsenziya shartnomasi amal qilgan vaqtda litsenziat ham, litsenziar ham obyekt-dan foydalanishda teng hajmli huquqqa ega bo'ladi [15]. Stiven-son-Uaydler qonuni esa hukumat ilmiy tadqiqot laboratoriyalarida tashqi hamkorlar (universitetlar, ITI, xususiy korxonalar) bilan birgalikdagi tadqiqotlar davomida olingan, patentlangan natijalariga bo'lgan mulk huquqi tashqi hamkorlarga tegishli ekanligini qayd etadi.

Avstriya, Daniya, Germaniya, Yaponiyada nisbatan budget mablag'lari asosida yaratilgan "*professorlik imtiyozi*" deb nomlanuvchi, lekin bunda litsenziya to'lovlaridan hissa ko'rinishida intellektual mulkni ishlab chiquvchi mualliflar manfaatlariga rioya qiluvchi intellektual mulkka bo'lgan huquqni amalga oshiruvchi qonunlar joriy qilindi [16].

Tadqiqot natijalari tahlili

Mamlakatimizda davlat mablag'lari hisobidan startap loyihalar, xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish turli qonun hujjatlari bilan tartibga solib kelinmoqda. Masalan, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida davlat buyurtmasi doirasidagi innovatsion faoliyat davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan bo'lsa, uning natijalari davlatga tegishli ekanligi qayd etiladi. Vazirlar Mahkamasi-ning 2020-yil 9-martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ilmiy-tadqiqot ishlari-ga davlat buyurtmasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, davlat budjeti mablag'lari hisobiga ilmiy faoliyat subyektlari tomonidan olingan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquq davlatning ilmiy va oliy ta'lim, shuningdek, boshqa davlat muassasalari nomidan davlat-ga tegishli bo'ladi.

Xorijiy tajribani inobatga olgan holda mamlakatimizda ham davlat hisobidan moliyalashtiriladigan innovatsiya va startap faoliyati natijalarini xo'jalik muomalasiga jalb etishda AQSh tajribasidan foydalanish

maqsadga muvofiq. Shu nuqtayi nazardan, “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonunga tegishli o’zgartirish hamda “Startaplar to’g’risida”gi Qonun loyihasiga davlat tomonidan startap loyihalarni moliyalashtirishga oid alohida qoida kiritish zarur. Ya’ni *O’zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to’g’risida”gi Qonuni 12-moddasi yettinchi xatboshisi* hamda mos ravishda *O’zbekiston Respublikasining “Startaplar to’g’risida”gi Qonun loyihasiga* davlat budjeti mablag’lari hisobidan moliyalashtirilgan innovatsion, startap loyihalar natijalariga bo’lgan huquqni taqsimlashga oid normalarni takomillashtirish yuzasidan qoidalar kiritish maqsadga muvofiq.

Mazkur o’zgartirish va qo’shimchalar davlat mablag’lari evaziga moliyalashtiriladigan startaplarda mutlaq huquqlar kimga tegishli ekanligini aniqlash bilan birga quyidagilarga sababchi bo’lishi kutiladi:

birinchidan, davlat shofeligidagi startaplarning sezilarli ko’payishiga erishish;

ikkinchidan, loyiha mualliflarini moliyaviy rag’batlantirish shart-sharoitlarini normativ-huquqiy mustahkamlash;

uchinchidan, startaplarda intellektual faoliyat natijalarini moliyalashtirish sohasida davlat-xususiy hamkorligi shart-sharoitlari, ularni rasmiylashtirish, amaliyotga joriy qilish va tijoratlashtirishni rag’batlantirish va takomillashtirish.

Startap faoliyatida shartnomaoldi muzokara institutini takomillashtirish

Startaplar faoliyatining samarali yo’lga qo’yilishida shartnomalar muhim o’rin egallaydi. Startaplarni moliyalashtirish tahlili shuni ko’rsatadiki, venchur investitsiyalashda startap va investor o’rtasidagi shartnomalar taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Odatda venchur investor va startap o’rtasida quyidagi shartnomalar bosqichma-bosqich tuziladi: xohish to’g’risidagi kelishuv (*ingl. Letter of intent*), investitsiyalash to’g’risidagi shartnoma, korporativ shartnoma bo’lgan jamiyat ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish to’g’risida-

gi shartnoma (*ingl. Shareholders’ agreement*) va eng so’ngida, agar startap dinamik tarzda o’sishga erishib, fond birjasida uning ulush va aksiyalari yuqori qiymatga baholansa, IPO, SPO yoki ulushlar oldi-sotdisi shartnomasi shular jumlasidandir. Shular orasidan startaplarning shartnomaviy munosabatlarini fuqarolik-huquqiy takomillashtirish nuqtayi nazaridan shartnomaoldi muzokarani tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Yekaterina Pannebakkerning fikricha, muzokaralarni boshqarishda eng ahamiyatli jarayon subyektiv xarakterdagi muzokaralarni boshqarishdir [17].

R. Yankovskiyning aytishicha, startap ulushini sotib olishdan oldingi bosqichdagi muzokara olib borish jarayoni anglo-sakson huquq tizimida xohish to’g’risidagi kelishuv (*ingl. Letter of intent*) deb nomlanadi. Muallif ushbu kelishuv alohida belgilangan shaklda tuzilishi hamda Rossiya huquqida uni haqiqiy deb topish uchun odatda dastlabki shartnoma yoki shartli bitimlarni tuzish lozimligini ta’kidlaydi [18].

D. Sidorenko startap shartnomaoldi jarayonlarini olijanoblik shartnomalari (*Djently-menskoe soglasenie*) deb nomlab, ushbu jarayonda startap va investor o’rtasida o’zaro tushunish memorandum (*MoU*), shartlar hujjati (*Term sheet*) yoki xohish to’g’risidagi kelishuv (*LOI*) tuzilishi mumkinligini aytadi. Shuningdek, huquqshunosning qayd etishi-cha, ushbu hujjatlar ichida xohish to’g’risidagi kelishuv taraflarga majburiyat yuklash xususiyatiga ega [19].

Ingliz huquqi yurisdiksiyasida startap va investor o’rtasida shartnomaoldi muzokaralar jarayonida *LOI* tuziladi. Ushbu kelishuv taraflarga yuridik majburiyat yuklaydi. Eng muhim tomoni – hali asosiy shartnoma, ya’ni investitsiya shartnomasini tuzishdan oldin ham qator shartnomalar rasmiylashtirilishi qayd etiladi. Investor, avvalo, startap jamoasining salohiyati va adekvatligi, startap texnologiyasining bozordagi istiqboli, startapning biznes modeli va moliyaviy ma-

salalari hamda yuridik masalalarini dastlabki tekshiruvdan (*ingl. Due diligence, DD*) o'tkazadi. Bu o'rinda yuridik masalalarga, asosan, startap intellektual mulkining ro'yxatdan o'tganligi, uning qonuniyligi, startap boshqaruvining talabga mos kelishi parametrlari kiradi. Shu jarayonning o'zida muzokara bosqichi ishtirokchilari o'rtasidagi tijorat axborotlarini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma (*ingl. Non-disclosure agreement, NDA*) tuzish bilan amalga oshiriladi. Vaziyat shuni taqozo etmoqdaki, hali asosiy shartnomani tuzmasdan turib, shartnomaoldi muzokara bosqichining naqadar dolzarbligi namoyon bo'lmoqda.

N. Mixalskayaning ta'kidlashicha, ushbu sohadagi xorijiy huquq tartibining alohida ta'sirini Rossiya Fuqarolik kodeksining muzokaralar, oferta va aksept hamda shartnomaoldi jarayonlar qismida kuzatish mumkin [20]. Rossiya Fuqarolik kodeksining 434¹-moddasi [21] "Shartnoma tuzish haqida muzokaralar" deb nomlanadi. Moddaga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslar shartnoma tuzish haqidagi muzokaralarni o'tkazishi hamda shuning oqibatida kelib chiqadigan xarajatlarni mustaqil taqsimlashi mumkin. Taraflar shartnoma tuzilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Mazkur shartnomaoldi muzokara hujjatlari milliy fuqarolik qonunchiligimizdan o'rin egallamagan. Fuqarolik kodeksining 364-moddasiga binoan, shartnoma tuzish oferta va akseptlash yo'li bilan tuzilishi belgilangan. Bu shartnoma tuzish usulining ijobiy jihatlari e'tirof etgan holda bugungi kunga kelib, startap va investor o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni ta'minlash uchun yetarli huquqiy konstruksiyaga ega emas deb hisoblaymiz. Masalan, oferta-aksept yo'li bilan shartnoma tuzilgudek bo'lsa, investor startapning istiqboli, uning biznes modelini aniqlash va boshqa shu kabi imkoniyatlarini to'g'ri aniqlay olmaydi. O'z navbatida esa investorning muzokara bosqichida startapga tegishli bo'lgan tijorat axborotlarini

tarqatishi, taraflar tomonidan insofsiz tarzda harakat qilish oqibatida shartnoma tuzish imkoniyatini boy berish hamda zarar yetkazish kabi konstruksiyalarni amaldagi Fuqarolik kodeksining shartnoma tuzish bobi bilan tartibga solish mushkul.

Shu nuqtayi nazardan, startapning shartnomaviy-huquqiy asoslarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida *O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini shartnoma tuzish haqida muzokaralarga oid 366¹-modda* bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda startap va investor o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar quyidagilarga sababchi bo'lishi kutiladi:

birinchidan, shartnomaoldi muzokara taraflarga majburiyat yuklashi va taraflarning muzokarada belgilangan majburiyatni bajarishda insofsiz harakat yoki harakatsizligi javobgarlikka sabab bo'ladi;

ikkinchidan, startapga tegishli bo'lgan tijorat sirlarining maxfiyligi investor tomonidan buzilgan bo'lsa, yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga olib keladi;

uchinchidan, shartnomaoldi muzokara olib borish uchun xarajatlar taraflar kelishuviga binoan taqsimlanadi;

to'rtinchidan, startap va investor o'rtasida tuziladigan LOI kelishuvi dastlabki shartnoma yoki shartli bitimlar tuzish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Startaplar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi hamda "Startaplar to'g'risida"gi qonunlari loyihalari-ga muvofiq, innovatsion faoliyat sohasidagi, shuningdek, startap ekotizimini tashkil etish, startaplarni ro'yxatga olish, monitoring qilish va rivojlantirish, shuningdek, biznes-inkubatorlar va boshlang'ich akseleratorlarni sertifikatlash bo'yicha vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi sanaladi (Hozirda esa mazkur tashkilot O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2018-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar doirasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun 50 mlrd so'm miqdorida mablag' ajratildi va ushbu mablag'ning muayyan qismigina startaplarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan [22]. Bu esa startup infrastrukturalari dinamik rivojlanayotgan mamlakatlarda (Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya) ajratilgan mablag'larga nisbatan juda kam. Taqqoslash o'rnida 2015-yilda Janubiy Koreya hukumati yangi biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun 12,6 mlrd AQSh dollari miqdorida mablag' ajratgan.

AQShda kichik tadbirkorlik sohasida innovatsion g'oyalarni, shu qatori startup loyihalarga ko'maklashuvchi Kichik biznes innovatsion tadqiqot (Small Business Innovation Research (SBIR)), Kichik biznes texnologiya transferi (Small Business Technology Transfer (STTR)) hamda Federal va davlat texnologik hamkorligi (Federal and State Technology Partnership (FAST)) kabi Kichik biznes administratsiyasi (US Small Business Administration) tomonidan boshqariladigan davlat dasturlari mavjud [23].

Dastur doirasida startaplarni 150 ming AQSh dollari miqdorigacha olti oydan bir yilgacha bo'lgan muddatlarda moliyalashtiriladi.

2002-yilda Fransiyada ilmiy sohani rivojlantirish va ushbu sohadagi innovatsion loyihalarni rag'batlantirish maqsadida konsepsiya qabul qilindi. Ushbu konsepsiya asosida ayrim kichik innovatsion kompaniyalarga alohida yuridik maqom – "yosh innovatsion kompaniya" maqomi berildi. Kompaniya yosh innovatsion kompaniya maqomini qo'lga kiritishi bilan birga davlat tomonidan joriy qilingan soliq imtiyozlari va preferensiyalariga egalik qiladi.

Koreya Respublikasida 2017-yilda startaplarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida *Kichik, o'rta biznes va startaplarni*

vazirligi (Ministry of SMEs and Startups) tashkil etildi. Kichik, o'rta biznes va startaplarni vazirligi oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- firmalar va startup kompaniyalarni tashkil etishda qulay tizim yaratish;
- kichik, o'rta biznes va startaplarning rivojlanishi uchun mustahkam asos ishlab chiqish;
- kichik, o'rta biznes va startaplarning ishchi kuchi yetishmasligi muammolarini bartaraf etish;
- mikro tadbirkorlar salohiyatini mustahkamlash va yirik kompaniyalar hamda kichik, o'rta biznes va startaplarni o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash.

Shu bilan birga, 2013-yildan boshlab mamlakatda kichik va o'rta biznes hamda startup kompaniyalar uchun mo'ljallangan birja faoliyat yuritib keladi [24].

Davlat tomonidan startup loyihalarni moliyalashtirish tartibi, shartlari va vositalari qonun hujjatlari bilan chegaralab qo'yilishi lozim.

Mamlakatimizda startaplarga doir imtiyoz va preferensiyalar umumiy tartibda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni bilan belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyundagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 589-son qaroriga ko'ra, texnopark rezidentlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-sentabrdagi "Innovatsion faoliyatni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 721-son qaroriga muvofiq, ilg'or texnologiyalar markazi rezidentlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi "Toshkent shahrining Yashnobod tumani-da innovatsiya texnoparkini tashkil qilish to'g'risida"gi PF-5068-sonli farmoni bilan "Yashnobod" texnoparki rezidentlari uchun

davlat tomonidan alohida imtiyoz va preferensiyalar taqdim etiladi. Bu ko'maklar qatoriga, asosan, quyidagilar kiradi:

- yer solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yagona soliq to'lovi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari umumta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan;

- o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq, loyihani amalga oshirish doirasida o'z ehtiyoji uchun chetdan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskuna, xomashyo, materiallar, reaktivlar, butlovchi buyumlar hamda qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etiladi.

Aytish kerakki, startaplar sohasida faoliyat olib borayotgan subyektlar texnopark va innovatsion markazlar rezidenti bo'lgan taqdirdagina soliq, majburiy ajratma va bojxona to'lovlaridan ozod etiladi. Barcha startaplar ham texnopark va innovatsion markazlar rezidenti bo'lish imkoniyatiga birdek ega emas. Shu nuqtayi nazardan, startap tushunchasi ta'rifidan kelib chiqqan holda, startap kompaniya huquqiy maqomiga mos bo'ladigan barcha subyektlarga davlat tomonidan muayyan imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilishi lozim.

Startap kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash va startap loyihalarini ishga tushirishdan to tugagunga qadar soliq imtiyozlarini o'z ichiga olgan, kichik tadbirkorlikni kreditlash va investitsiya kiritadigan startap investorlariga soliq yukini kamaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Qolaversa, investitsiyaviy nizolarda startap misolida korporatsiyalarga oid soliq siyosati ham muhim sanaladi [25, 26]. Qonunchiligimizga binoan, startap kompaniyalar-

ning odatiy texnologik ishlab chiqarishda foydalanadigan kichik biznes subyektlaridan aniq chegaralari belgilanmaganligi hamda startap kompaniya maqomi tadbirkorlik qonunchiligida aks etmaganligi ularga nisbatan soliq va boshqa turdagi imtiyozlarni qo'llashni ortga surib kelmoqda. Bunda, eng avvalo, startap faoliyati tadbirkorlik faoliyati ekanligi, startap kompaniya esa tadbirkorlik subyekti tasnifiga mansubligini asoslagan holda, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda kraudfanding platformasi va venchur investitsiya infratizimi startap loyihalari hamda innovatsion mahsulotlarni moliyalashtirishdagi qulay va samarali mexanizm ekanligi amaliy jihatdan isbotlandi. Xususan, *statista.com* internet portalining axborotiga ko'ra, zamonaviy tendensiyalar sharoitida kraudfanding platformasi yordamida moliyalashtirilgan tranzaksiyalar qiymati 2019-yilda 6 mlrd 923 mln AQSh dollari-ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, bu son 8 mlrd 537 mln AQSh dollari ko'rsatkichiga ega bo'lishi taxmin qilingan [27]. Ushbu mexanizmlarni O'zbekiston iqtisodiyoti uchun joriy etish kelgusida innovatsion iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish uchun sharoit yaratadi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida startap tizimini jonlantirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish maqsadida *"Investitsiya jalb qilishning muqobil usullari to'g'risida"gi* qonunini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. *"Investitsiya jalb qilishning muqobil usullari to'g'risida"gi* qonuni startap loyihalari yoxud innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning huquqiy bazasi bo'lib, u kelajakda innovatsion investitsiyalarni jalb etish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalishiga ulkan hissa qo'shish bilan birga, startaplarni

moliyalashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi:

- investitsiya jalb qilishning muqobil usullari tushunchasi va tamoyillari;
- investitsion platformalar orqali investitsiyalashning usullari, tartibi va shartlari;
- investitsion platforma operatorining huquqiy mavqeyi;
- investitsion platforma tashkil qilish bo'yicha faoliyatni tartibga solish va nazorat qilish;
- investorning loyihalarni moliyalashtirish oqibatida mukofotlashtirish usullari, tartibi va shartlari;
- investitsion platformada tuziladigan bitimlar turlari va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonunlariga ayrim qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga sababchi bo'ladi.

Xulosalar

Umuman olganda, startap faoliyatni qulay huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sha-

roitlar yaratish, innovatsion loyihalar hamda yangi ishlanmalarni moliyalashtirish, innovatsion faoliyat subyektlariga soliq, bojxona imtiyozlari va preferensiyalar berish orqali rag'batlantirish zarur. Bundan tashqari, startaplar faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirishni takomillashtirish maqsadida quyidagi mazmundagi yo'nalishlarda ishlar olib borilishi maqsadga muvofiq:

birinchidan, startaplarning rivojlantirish strategiyalarini qabul qilish va amalga oshirish;

ikkinchidan, startapning faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy bazasini takomillash-tirish;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan startap loyihalar yaratishga oid davlat buyurtmasini bajarish;

to'rtinchidan, startap ekotizimi sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'makla-shish;

beshinchidan, startaplar faoliyatini moliyalashtirish uchun xususiy sektor mablag'larini jalb etish bo'yicha shart-sharoitlar yaratish.

REFERENCES

1. O'zbekiston startap ekotizimi tahlili [Analysis of the startup ecosystem of Uzbekistan]. Startup Indicator Uzbekistan. 2020, 19 p.
2. Tojiboev A., Sharakhmetova U., Tojiboyev S. Between public and private-state entity as a party to international commercial arbitration: Lessons for the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation (EDN PVOVRU)*, 2020, vol. 24, no. 6, pp. 581–591. DOI: 10.37200/IJPR/V24I6/PR260062.
3. Zafarovich T.S. Different Approaches in Enforcement of Arbitral Award Annulled at the Place of Arbitration. *Miasto Przyszłości – City of Tomorrow*, 2022, vol. 25, pp. 320–323. Available at: <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/385/>.
4. Ibrohimov A.A.O., Koryogdiyev B.U.O., Tojiboyev S.Z. Korporativ niqoblarni olib tashlash konsepsiyasi va uni O'zbekiston korporativ huquqida takomillashtirish masalalari [The concept of removing corporate masks and issues of its improvement in corporate law]. *Oriental Renaissance*:

Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2022, vol. 2 (1), pp. 1068-1082. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporativ-niqoblarni-olib-tashlash-konsepsiyasi-va-uni-ozbekiston-korporativ-huquqida-takomillashtirish-masalalari/>. DOI: 10.24412/2181-1784-2022-1-1068-1082/.

5. Tojiboyev A. The role of stabilization clause in investment contract. *Review of Law Sciences*, 2018, no. 2, pp. 37–41, EDN WRUUXO. Available at: https://www.elibrary.ru/download/elibrary_44347285_13645760.pdf/.

6. Tojiboyev A.Z.U. Deyatelnost' startupov kak ob'yekt grazhdanskogo prava [Activities of start-ups as an object of civil law]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 01, pp. 79–87. DOI: 10.34920 'rls.1.2020.79-87/.

7. Tojiboyev A. Primeneniye nekotorykh startap-kontraktov i ego vazhnost' v usloviyakh onlayn-rezhima [The application of some start-up contracts and its importance in online conditions]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 2, pp. 119–123. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-2-119-123/.

8. Oqyulov O. Innovatsiya rivojlanishini ta'minlashda intellektual mulk huquqi institutlari ta'siri samaradorligini oshirish masalalari [Issues of increasing the effectiveness of the influence of intellectual property law institutions in ensuring the development of innovation]. Tashkent, Turon Zamin Ziya Publ., 2016, 300 p.

9. Imomov N.F. Intellektual mulkning yangi obyektlari [New objects of intellectual property]. Tashkent, 2011.

10. Gulyamov S.S. Voprosy grazhdansko-pravovogo regulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti [Issues of civil law regulation of innovation activities]. *Review of the Legislation of Uzbekistan*, Tashkent, 2011, no. 1-2, p. 5.

11. About innovative activity. Law of Ukraine, dated 2002, July 4, No. 40-IV. Available at: http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=9542/.

12. National Legal Internet Portal of the Republic of Belarus. Available at: <https://www.pravo.by/document/?guid=3871&p0/>.

13. Paragraph. Information system. Kazakhstan. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=300499/.

14. Official Journal of the French Republic (JORF). Available at: <https://www.legifrance.gouv.fr/>.

15. Leshakova N.P. State regulation of innovative development of the Republic of Korea. *Russian Journal of Innovation Economics*, 2017, vol. 7 (2), pp. 161–174.

Abstract. Logical, systematic, logical-legal, comparative-legal methods of research are widely used in this article. In particular, first of all, the concept of socially dangerous consequences and the stages of its formation are described in detail. Also, the socially dangerous consequence is generally an optional sign of the objective side of the crime, it is recognized as a necessary sign in material crimes, and the opinions and views expressed by scientists in the theory of criminal law about it are highlighted, and then the criminal law in the norm, the expression of the socially dangerous consequences and their specific characteristics are described in sequence by the legislator. At the same time, in the development of the concept of socially dangerous consequence, which is a sign of the objective side of the existing criminal law, the specific importance of the signs of the objective side of the crime is described. In this article, based on the deduction method of research, the nature, structure and forms of the socially dangerous consequence, which is a sign of the objective side of the crime structure, have been studied, and the theoretical and scientific views on it in the criminal law have been reflected. Also, in this article, the main focus is on the concept, nature, forms and structure of the socially dangerous consequence, which is a sign of the objective side of the criminal structure, as well as the specific criminal-legal significance of the criminal consequence and related theoretical and practical problems. At the same time, the doctrine of criminal law and existing scientific research were analyzed, and reasonable theoretical proposals and recommendations were developed in this regard.

Keywords: corpus delicti, objective side of the crime, essential feature, optional feature, material corpus delicti, socially dangerous consequence, criminal-legal significance.

Kirish

Jinoyat qonuni bilan taqiqlangan har bir jinoyat o'zining to'rtta zaruriy belgisiga ega bo'ladi. Shu belgilardan ijtimoiy xavflilik belgisi eng muhimi bo'lib, qolgan belgilar u asosida shakllanadi. Jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisi uning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi bilan ifodalanadi.

Jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda jinoyat qonuni normalarini chuqur ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq muammolarni yechish borasida jinoyatning obyektiv tomonini tadqiq etish va uning belgisi bo'lgan jinoiy oqibatni o'rganish dolzarbdir. Shubhasiz, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat sodir etgan shaxs xatti-harakatlariga huquqiy baho berishda jinoyatning obyektiv tomonining zaruriy hamda fakultativ belgilari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda jinoyat ishlarining noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishi aynan jinoyatning obyektiv tomoni va uning belgilari to'g'ri aniqlanmaganligi bilan bog'liq. Bu esa mazkur mavzuni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etishni taqozo qiladi. Jinoyat tarkibi elementlaridan biri jinoyatning obyektiv tomoni bo'lib, uning belgilarini to'g'ri aniqlash muhim sanaladi.

Har bir jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi zararli jinoiy oqibatlarni keltirib chiqarishda namoyon bo'ladi. Jinoyatning davom etish jarayoni ijtimoiy xavfli xulq-atvorning harakat yoki harakatsizlik shakllaridan boshlanib, ularning natijasida kelib chiqqan zarar va ijtimoiy xavfli oqibatni o'z ichiga qamrab oladi. Aybli qilmish jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazganligi uchun jamiyatda avval ijtimoiy xavfli deb topiladi va u jinoyat qonunida taqiqlanishi natijasida huquqqa (qonunga) xiloflik belgisini oladi. Ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarari ba'zi jinoyatlarda jinoiy oqibatni keltirib chiqaradi va uning uchun jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Har qanday jinoyat rivojlanishining o'ziga xos mexanizmi jarayoni bo'lib, u o'zida jismoniy tana harakatlari, og'zaki harakatlar (imo-ishora va boshqalar), turli tashqi obyektiv kuchlar, shaxslar faoliyati, atrof-muhit, tabiat va turli mexanizmlarning o'zaro ta'siri natijasini ifodalaydi. Ammo inson jinoiy xulq-atvorida aks etadigan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni ifodalaydigan kuchlar, tashqi obyektiv kuchlar va qonuniyatlarga jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

A.N. Trayninning fikricha, "Jinoyat qonuni oqibatga olib keladigan hamda sabab bo'ladigan barcha inson va omillardan faqat shaxs xulq-atvori (harakat yoki harakatsizligi)nigina sun'iy ravishda ajratib qo'yadi. Bu omillarning barcha mumkin bo'lgan oqibatlardan faqat bitta jinoiy javobgarlikka tortiladigan oqibatni ajratib olish hisoblanadi" [1, 57-b.]. Darhaqiqat, olimning ilmiy qarashi o'rinli va to'g'ri.

Jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) atrof-muhit, tashqi olamda muayyan salbiy o'zgarishlarga olib keladi va u jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlar (O'ZR JK 2-m.), ya'ni shaxsiy, ijtimoiy va davlat manfaatlarini, shaxs, tabiiy muhit, mulk, tinchlik, insoniyat xavfsizligi uchun zararli, muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqaradi.

M.I. Kovalev ta'kidlaganidek, "Jinoiy oqibatning ijtimoiy xavfliligi – jinoiy javobgarlik va jazoning og'irligini bevosita belgilaydigan va bir butun qilmish ijtimoiy xavflilik darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bu jinoyat qonunida shunday ijtimoiy xavfli oqibatlarni texnik jihatdan savodli va to'g'ri tavsiflash muhimligini talab qiladi" [2, 38-b.].

M.X. Rustamboyevning fikricha, "Jinoiy oqibat – qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilab beradi. Shuningdek, qilmishning jinoiyligi yoki jinoiy emasligini aniqlaydi. Jazo tayinlashda sud tomonidan jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llashda asos hisoblanadi" [3, 165-b.].

M. Usmonaliyev va P. Bakunovlar “Zararli oqibat jinoyat qonuni bilan qo’riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazsa, bu jinoyat-huquqiy oqibat hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli zarar qonun bilan qo’riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning turli sohalariga yetkazilishi mumkin” [4, 181-b.].

Bir qancha olimlar jinoyat huquqi doktrinasi va unda mavjud huquqiy adabiyotlarda keltirilgan jinoiy oqibat tushunchasi (ta’rifi)ni o’z ilmiy tadqiqotlarida izohlashgan. Ammo ijtimoiy xavfli oqibatning jinoyat tarkibidagi o’rnini aniqlash bilan bog’liq nazariy va amaliy masalalarni hal etish noaniq va munozarali bo’lib qolmoqda. Bu masala yuzasidan qonun chiqaruvchida ham, huquqni qo’llovchi subyektlarda ham yo’nalar va yechim mavjud emas.

Bir guruh olimlar [5, 191–196-b., 167–171-b., 87–92-b., 161–169-b.] jinoiy oqibatni jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgisi deb e’tirof etsa, boshqa guruh olimlar [6, 60–70-b., 53–63-b.] uni tajovuz obyektining xususiyati sifatida baholaydi.

Ba’zi guruh olimlar [7, 170–171-b., 146–156-b.] ijtimoiy xavfli oqibatlarni jinoyat obyektiv tomoni bilan obyekt o’rtasidagi halqa (qism) sifatida tadqiq etishadi.

G. Novoselovning fikricha, “Jinoiy oqibat keltirib chiqarmaydigan jinoyatlarning mavjud bo’lishi bilan bog’liq turlicha ilmiy qarashlar ham bor. Bu jinoyat tarkibini obyektiv tomoni tuzilishiga ko’ra ajratishda “formal tarkibli jinoyatlar”da jinoiy oqibatlarining mavjud yoki mavjud emasligi haqidagi asoslangan yoki munozarali masalalar hisoblanadi. Bundan kelib chiqadigan jinoiy oqibat tushunchasi (ta’rifi) bilan bog’liq boshqa murakkabliklar to’g’risidagi mavjud ilmiy qarashlarni ham keltirish mumkin” [8, 56-b.].

Material va metodlar

Maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, induksiya, deduksiya, qiyoslash, tasniflash, umum ilmiy va maxsus usullaridan, ya’ni qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy-yuridik va boshqa metodlaridan keng foydalanil-

gan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi tizimli o’rganilgan holda, ijtimoiy xavfli oqibat bilan bog’liq amaldagi Jinoyat kodeksi normasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat huquqi doktrinasi va unda mavjud ilmiy tadqiqotlar, huquqiy adabiyotlarda jinoiy oqibat harakat yoki harakatsizlikning elementi hisoblanadimi, degan munozarali va bahsli holatlar mavjud.

Xususan, F. Listning fikricha, “Harakat tushunchasi (ta’rifi) tashqi olam (ya’ni odamlar va narsalar)da o’zgarishlar kelib chiqishini talab qiladi. Ushbu o’zgarishlarni biz jinoiy oqibat deb ataymiz. Jinoiy oqibat harakat tushunchasi (ta’rifi)ning tarkibiy ajralmas qismi sifatida ifodalanadi” [9, 126-b.].

N.D. Durmanovning ta’kidlashicha, “Jinoyat obyektiga har qanday ta’sir, garchi u obyektida ba’zi ahamiyatsiz o’zgarishlarni keltirib chiqargan bo’lsa-da, ushbu o’zgarishlar harakatga havola qilinishi va unga bog’liq bo’lishi lozim. Sifat tartibidagi o’zgarishlar (qonun dispozitsiyasida tavsiflanganga mos keluvchi) natija, ya’ni jinoiy oqibatni hosil qiladi” [10, 57-b.].

Yuqoridagi olimlarning ilmiy yondashuvlaridan ko’rinib turibdiki, ular jinoiy harakat va ijtimoiy xavfli oqibat tushunchalarini bir-biriga aralashtirib, o’z ilmiy qarashlarini bayon qilishadi.

Jumladan, A.N. Traynin “Har bir jinoyat qaysidir obyektga tajovuz qilinganligi sababli har qanday sodir etilgan jinoiy harakat o’zida ushbu obyektga yetkazilgan zararni ham qamrab oladi” [11, 188–195-b.], deb ta’kidlaydi. Uning fikridan ko’rinib turibdiki, u ham yuqoridagi olimlarning ilmiy yondashuviga qo’shilgan.

Darhaqiqat, anglo-sakson huquq oilasi jinoyat huquqi doktrinasida ham ijtimoiy xavfli oqibat (consequence) jinoiy qilmish (actus reus)ning obyektiv elementlari qatoriga kiradi. “Jinoiy qilmish (actus reus) jinoiy xulq-atvor (conduct), sharoit (circumstance), sababiy bog’lanish (causal connection) va ji-

noiy oqibat (consequence) kabi elementlar yig'indisidan iborat [12] (J. Austin, M. Moore, D.N. Husak, J. Fletcher, H. Morris, M. Gore, A. Enker, W. Blackstone, G. Williams).

“Jinoiy oqibat ijtimoiy xavfli qilmishning tarkibiy elementi” degan ilmiy yondashuvga jinoyat huquqi doktrinasida bir guruh olimlar, xususan, N.V. Kuznetsova keskin ravishda qarshi chiqadi. Uning fikricha, “Jinoiy oqibat ijtimoiy xavfli qilmishning elementi emas” [13, 14–15-b.].

Biz N.V. Kuznetsovaning fikriga qo'shilamiz. Darhaqiqat, har qanday ijtimoiy xavfli harakat (harakatsizlik)ning ichki asosi va tuzilishida boshqariladigan tafakkuriylik (ong), irodaviylik (ixtiyoriylik), jinoyat motivi, jismoniy tana harakatlari, og'zaki harakatlar (imo-ishora) va boshqalar mavjud bo'lib, shaxs istalgan vaqtda o'z jinoiy xulq-atvorini o'zgartirishi va to'xtatishi mumkin. Jinoiy oqibat esa tashqi obyektiv dunyo ne'matlariga tegishli bo'lib, tashqi obyektiv olamda o'zgarishlar bilan ifodalanadi.

R. Sharapov to'g'ri ta'kidlaganidek, “Jinoiy oqibat bilan qilmish o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik ba'zan oqibatlarni jinoyat qonunida batafsil tavsiflashni qiyinlashtiradi” [14, 53-b.].

S.V. Zemlyukovning fikricha, “Xususan, jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda jinoyatning ijtimoiy xavfli oqibatlariga asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Amaldagi jinoyat qonunchiligida zararli jinoiy oqibatni tavsiflovchi tushunchalar mazmunini belgilashning qiyinligi tergov va sud amaliyotida ko'plab qiyinchilik va xatolar, shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasidagi qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi” [15, 80-b.].

Amaldagi O'zR Jinoyat kodeksida ijtimoiy xavfli oqibat tushunchasiga ta'rif berilmagan. Shuningdek, jinoyat huquqi doktrinasida va tegishli ilmiy tadqiqotlarda jinoiy oqibatning umumiy va yagona tushunchasi shakllantirilmagan hamda ishlab chiqilmagan. Ammo jinoyat huquqida uning tushunchasini o'z ilmiy qarashlari bilan ifodalaydigan bir guruh olimlar ham mavjud.

V.N. Kudryavsevning ta'kidlashicha, “Jinoiy oqibat – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan tajovuz obyekti va ijtimoiy munosabat hamda ularning ishtirokchilariga jinoiy harakat (harakatsizlik) natijasida yetkazilgan, jinoyat-huquqiy normada nazarda tutilgan moddiy va nomoddiy zarardir” [16, 197-b.].

A.S. Mixlin esa “Jinoiy oqibat deganda jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga inson jinoiy faoliyati natijasida yetkazilgan zarar tushuniladi” [17, 16-b.], deb ta'kidlaydi.

N.I. Korjanskiyning fikricha, “Jinoiy oqibat – bu ijtimoiy munosabatlarda subyekt manfaatlarini amalga oshirish imkoniyatini yo'q qiladigan, vaqtincha yoki doimiy qiyinchiliklarga olib keladigan, to'liq yoki qisman qamrab oladigan, ijtimoiy munosabatlardagi huquqqa xilof o'zgarishlardir” [18, 162-b.].

Y.A. Frolovning ta'kidlashicha, “Jinoiy oqibat – jinoyat huquqi vositalari bilan qo'riqlanadigan tegishli ijtimoiy munosabatlarga zarardir” [19, 111-b.].

A. Mamedovning fikricha, “Ba'zi hollarda jinoyat o'zi bilan bir nechta jinoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Muayyan holatlarda jinoyat natijasida yuzaga kelgan oqibatlarining ko'pchiligi ko'pincha har qanday ijtimoiy munosabatlarning boshqa ijtimoiy munosabatlar turlari bilan o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri tufayli o'zgarishi ushbu (boshqa) ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilishi bilan bog'liq” [20, 162-b.].

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlaridan ko'rinib turibdiki, jinoyat huquqi doktrinasida hamda mavjud ilmiy tadqiqotlarda jinoiy oqibatga turlicha ta'rif beriladi va ularning turlari nazarda tutiladi.

Jinoyat huquqi doktrinasida va ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy xavfli oqibatni, asosan, ikkiga bo'lishni taklif qiluvchi olimlar ham bor.

Xususan, A.I. Boykaning fikricha, “Jinoyat oqibatlar ikkiga bo'linadi: moddiy (mulkiy yoki jismoniy zararga olib keladigan deqliklar) va nomoddiy (axloqiy, siyosiy yoki

mafkuraviy, tashkiliy yoki boshqaruv, ijtimoiy-ruhiy (psixologik) va boshqa zarar) [21, 42-b.].

G.V. Timeykoning fikricha esa “Barcha jinoyat qibatlar oddiy va murakkabga bo‘linadi. Oddiy jinoyat qibatlar deganda ijtimoiy munosabatlarning bitta elementiga zarar yetkazilganligi, murakkab jinoyat qibat deganda esa bir qancha tajovuz obyektlariga yetkazilgan zarar tushuniladi” [22, 83-b.].

R. Kabulov va X. Abzalovalarning ta’kidlashicha, ijtimoiy xavfli qibatlar moddiy va nomoddiy turlarga bo‘linishidan tashqari, qonun chiqaruvchining tavsiflashiga ko‘ra, odatda yana ikki turga bo‘linadi. Ijtimoiy xavfli qibatni tavsiflashda odatda qonun chiqaruvchi ikkita qoida, ya’ni jinoyat qonuni matnida qibatning hajmi (miqdori) va xususiyatini ko‘rsatishi hamda baholovchi tushunchalardan foydalanishi lozim [23, 71–72-b.].

Jinoyat huquqi doktrinasida va unda mavjud ilmiy tadqiqotlarda moddiy va nomoddiy jinoyat qibatlarini yanada batafsil tasniflash, ya’ni mulkiy, jismoniy, ekologik, axloqiy, siyosiy kabi turli xil jinoyat qibat (zarar)larga bo‘lish kuzatiladi.

S.V. Zemlyukov esa jinoyat qibatlarini yetkazilgan zarar deb nomlab, ularning barcha ko‘rinishlarini asosiy ikkita guruhga bo‘lib, ijtimoiy xavfli qibatni tasniflaydi: a) moddiy va nomoddiy zarar, umumiylikdan xususiylikka o‘tgan shaxsiy jinoyat zarar (jismoniy, ruhiy, axloqiy); b) jamiyat va davlat qadriyatlarida hamda manfaatlariga keltiriladigan zarar [24, 19–21-b.].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan moddiy jinoyat zararining miqdoriy o‘lchovini jinoyat qonunida aniq belgilab qo‘yish lozim. Uning miqdoriy o‘lchovi aniq qilib belgilab qo‘yilmasligi turli darajadagi noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Nomoddiy qibatlarining miqdoriy o‘lchovini hisoblash va aniq o‘lchovini belgilash mumkin emas.

Yuqoridagi olimning ilmiy qarashlariga qo‘shilish mumkin. Masalan, haqorat qilish

(O‘zR JK 140-m.) shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishda ifodalangani. Ammo ushbu jinoyat qibatlar yuqoridagi nazarda tutilgan modda dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi tomonidan belgilanmagan.

B.V. Zdravomislovning fikricha, “Ular haqorat qilish jinoyati obyektiv tomonida nazarda tutilganda, jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq, haqorat qilish tarkibidagi muayyan bir so‘z, ibora yoki harakat haqidagi masalani sud hal qilish uchun jabrlanuvchining sha’ni, qadr-qimmatini kamsitishning chuqurligini tasdiqlovchi dalillarni o‘rganishi, tekshirishi lozim. Bunday dalillarni taqdim etishning iloji yo‘qligi aniq. Aynan shuning uchun ham haqorat qilishning obyektiv tomonini belgilashda qonun chiqaruvchi ijtimoiy xavfli qilmishni tavsiflash bilan cheklanadi” [25, 142-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Amaldagi jinoyat qonuni tahlili shuni ko‘rsatadiki, qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan jinoyat tarkiblarida nafaqat muayyan yagona asosiy jinoyat qibatlar, balki asosiy ijtimoiy xavfli qibat bilan bir qatorda vujudga keladigan qo‘shimcha jinoyat qibatlar ham mavjud.

Qo‘shimcha jinoyat qibatlar qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonuni normasi dispozitsiyasida to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilmaydigan va asosiy jinoyat qibatlar bilan bir qatorda vujudga keladigan qibatlaridir. Ularning o‘ziga xos xususiyati jinoyat qonun normasida nazarda tutilmasligi va shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizligining turi va xususiyatidan kelib chiqadi.

Yuqoridagi nomlari keltirilgan olimlarning ijtimoiy xavfli qibatning turlari bo‘yicha tasniflari jinoyat-huquqiy qibatning sifat jihatidan o‘ziga xosligini ochib beradi. Ular muayyan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jinoyat qibat umumlashtiruvchi tushuncha hisob-

lanadi. Shuning uchun qonun chiqaruvchi jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqibatni aniq (aniqlashtirilgan zarar), muayyan zararining o'ziga xos turi tushunchalari sifatida aks ettirgan: shaxsning o'limi, shu jumladan, ikki yoki undan ortiq shaxs o'limiga sabab bo'lgan, olib kelgan aniq, muayyan zarar (O'zR JK 97-103¹-m.lar, 104-m. 3-q. "d" b., 106-m., 114-m. 3-q. "a" b. va boshqalar); sog'liqqa zarar (shikast) yetkazishda ifodalanadigan, olib keladigan aniq muayyan zarar (O'zR JK 104-111-m.lar, 116-m. 1-2-q.lari, 4-q. "b" b. va boshqalar); nafaqat sog'liqqa zarar (shikast) yetkazishda ifodalanadigan, balki boshqa oqibatlarni ham olib keladigan aniq muayyan zarar (O'zR JK 137-m. 3-q. "b" b., 155-m. 3-q. "b" b., 155¹-m. 2-q. "b" va boshqalar).

Jinoyat qonuni Maxsus qismi norma dispozitsiyalarida aniqlashtirilmagan zarar (jinoiy oqibat): mulkiy zarar yetkazish (O'zR 170-m.); ancha miqdordagi zarar (O'zR 132-m., 173-m., 185²-m., 202-m., 229⁵-m. va boshqalar); jiddiy zarar (O'zR JK 209-m., 251¹-m.); ko'p miqdordagi zarar (O'zR JK 132-m., 172-m., 175-m. va boshqalar); ko'p miqdor (O'zR JK 164-169-m.lar, 171-m. va boshqalar); juda ko'p miqdor (O'zR JK 132-m., 164-169-m.lar, 171-m. va boshqalar); og'ir oqibat (O'zR JK 118-119-m.lar, 125-m, 137-m. va boshqalar); boshqa og'ir oqibat (O'zR JK 135-m., 155-155¹-m.lar va boshqalar); boshqacha og'ir oqibat (O'zR JK 114-m., 116-117-m. va boshqalar).

Xususan, kontinental (roman-german) huquq oilasi mamlakatlarida jinoyat qonunchilik texnikasida ijtimoiy xavfli oqibatni tavsiflashda asosan ikki usuldan foydalaniladi: jinoyat qonuni moddasi dispozitsiyasida jinoyat-huquqiy oqibatning hajmi (miqdori) va xususiyatini ko'rsatish; jinoyat-huquqiy oqibatni baholovchi tushunchalardan foydalanish. Jumladan, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Moldova va Rossiya Federatsiyasi JKlarida [26] ham ji-

noyat-huquqiy oqibatni tavsiflashda qonun chiqaruvchi aynan yuqoridagi usullarni qo'llagan. Hattoki 1996-yil 17-fevralda MDHga a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan Model Jinoyat kodeksida [27] ham ijtimoiy xavfli oqibatlarni tavsiflashda yuqoridagi ikkita usuldan foydalanilgan.

Amaldagi JK Maxsus qismi tahlili shuni ko'rsatadiki, undagi moddalarning 40 foizdan ko'prog'ida qonun chiqaruvchi baholovchi tushunchalarni ishlatgan. Masalan, "ancha miqdor", "ko'p miqdor", "juda ko'p miqdor", "ancha miqdordagi zarar", "ko'p miqdordagi zarar" va "juda ko'p miqdordagi zarar" va boshqalar. Qolgan 55 foizida ijtimoiy xavfli oqibatning hajmi, miqdori va xususiyatlari ko'rsatilgan. Masalan, sog'liqqa yetkazilgan og'ir, o'rtacha og'ir va yengil shikast, "og'ir oqibat", "boshqa og'ir oqibat", "boshqacha og'ir oqibatlar", "mulkiy zarar" va boshqalar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni matnida ijtimoiy xavfli oqibatlarni tavsiflovchi shunday tushunchalarni ishlatganki, ularning mazmun-mohiyati na muayyan qonun, na qonunosti hujjatlarida ochib berilgan. Masalan, "jiddiy ziyon" va "jiddiy zarar" tushunchalari.

Jinoyat huquqi doktrinasida "xavf ostida qoldirish" bilan bog'liq jinoyatlarni moddiy tarkibli jinoyatlarga kiritish, ya'ni ularni ijtimoiy xavfli oqibat keltirib chiqaradigan jinoyatlar qatoriga kiritish lozimligini ta'kidlovchi olimlar ham bor. N.F. Kuznetsova, V.N. Kudryavsev, S.V. Zemlyukov, V. Tkachenko shular jumlasidan [28, 170-, 46-, 7-b.].

Bir guruh olimlar, xususan, Y.M. Braynin, Y.A. Frolov va boshqalar "Har qanday jinoyat jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi hamda unda muayyan bir salbiy o'zgarishlarga olib keladi va ijtimoiy xavfli oqibatni keltirib chiqaradi" [29, 109-110-b.], deb ta'kidlashadi.

Ikkinchi guruh olimlar, xususan, N.D. Durmanova va V.N. Kudryavsevlar fikricha esa "Barcha jinoiy qilmishlar tajovuz obyektiga

faktik zarar yetkazmaydi. Ular zarar yetkazishning real imkoniyatini vujudga keltirish hollari va uning faktik zarar yetkazilishini farqlab beradi” [30, 160-, 152-b.].

Yuqoridagi birinchi guruh olimlar – Y.M. Braynin, Y.A. Frolov va boshqalar o‘z ilmiy yondashuvini quyidagicha asoslashga harakat qiladi: jinoiy oqibat va jinoyat obyekti bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-biridan ajralmasdir; jinoyat obyekti har doim jinoyat tarkibining mustaqil elementi bo‘lib, u jinoyat tarkibi belgilaridan biri jinoyat-huquqiy oqibat bo‘lishi mumkin emas; tajovuz qilmoq har doim u yoki bu shakl va miqdorda obyektga zarar yetkazishni anglatadi, shu bilan birga, o‘zi bilan zarar keltirmaydigan tajovuz o‘z xususiyatini yo‘qotadi va tajovuz qilinmaydi; jinoyat qonuni obyektni tajovuzdan qo‘riqlaydi. Tajovuz obyektiga yetkazilgan zarar qanday shakllar va ko‘lamda bo‘lmasin, u har bir jinoyatning zaruriy elementini ifodalaydigan jinoyat-huquqiy oqibatlar hisoblanadi. Ushbu keltirilganlardan shuni xulosa qilish mumkin, ki, tajovuz obyektiga faktik zarar yetkazmaydigan va jinoiy oqibatlar keltirib chiqarmaydigan qilmish jinoiy deb hisoblanmaydi. Ijtimoiy munosabatlar himoyasi zararsiz mavjud bo‘ladi, degan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Biroq jinoyat tarkibi, obyekti va jinoiy oqibat o‘rtasidagi ikkita o‘zaro bog‘liq jihatlarni ajratish lozim [31, 109–110-b., 181-b.].

Ushbu guruh olimlarning ilmiy yondashuvidan ko‘rinib turibdiki, ular ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) natijasida kelib chiqqan faktik jinoyat-huquqiy oqibat, ya‘ni jinoyat obyektiga yetkazilgan zarar uchun jinoyat javobgarlik kelib chiqishi lozimligini e‘tirof etishadi. Aksincha, jinoyat obyektiga zarar yetkazishning real xavfi ostida qoldirish, ya‘ni jinoyat-huquqiy oqibat kelib chiqish ehtimoli (imkoniyati) uchun jinoyat javobgarlik vujudga kelmasligini ilgari surishadi.

Jinoyat huquqi doktrinasida va ilmiy tadqiqotlarda jinoyat obyekti tomonining zaruriy

belgisi sifatida ijtimoiy xavfli oqibat deganda jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar, ya‘ni obyekt va predmetlarga zarar yetkazish tushuniladi. Ammo jinoyat obyekti yoki predmetidagi muayyan o‘zgarishlar emas, balki jinoiy qilmish natijasida kelib chiqqan muayyan moddiy jinoyat-huquqiy oqibatlar tushunilishi lozim.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvimizni quyidagicha isbotlashga harakat qilamiz. Jinoyat huquqi doktrinasida va ilmiy tadqiqotlarda jinoyat-huquqiy oqibatni ikki xil tushunish an‘anaga aylangan. Birinchisi – ijtimoiy xavfli oqibat deganda jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar tushuniladi. Ikkinchisi – ijtimoiy xavfli oqibat keng va tor ma‘nolarda tushunilib, keng ma‘noda jinoyat obyektiga yetkazilgan zarar, tor ma‘noda jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatning bir elementi bo‘lgan jinoyat predmetiga yetkazilgan zarar tushuniladi.

Yuqoridagi jinoyat-huquqiy oqibat to‘g‘risidagi ikkita asosiy ilmiy yo‘nalishdan ikkinchisini yanada to‘g‘riroq deb hisoblaymiz.

Jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli oqibat shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish natijasida jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlarda yuz beradigan o‘zgarish sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot ishimizda ijtimoiy xavfli oqibat va jinoyat obyektiga yetkazilgan zarar o‘rtasida quyidagi farqli jihatlarni ajratib o‘tish maqsadga muvofiq; ijtimoiy xavfli oqibat jinoyat obyekti tomonining zaruriy belgisi (moddiy tarkibli jinoyatlarda) hisoblanasa, jinoyat obyektiga yetkazilgan zarar esa jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan tajovuz obyektining umumiy tavsifini ifodalaydi; oqibat va zararni tenglashtirish ijtimoiy xavfli oqibatning asoslanmagan tarzda tor ma‘noda ifodalanishiga olib keladi; ijtimoiy xavfli oqibatning tabiati o‘zida chuqur mazmun-mohiyat kasb etib, jinoiy qilmish natijasida yuzaga keladigan barcha ijtimoiy xavfli oqibatlarni qamrab oladi. Aksincha, jinoyat obyektiga zarar esa faqat jinoyat qonuni bilan

qo'riqlanadigan obyektlardagi o'zgarishlarni anglatadi. Masalan, ko'ndirish, aldash yoki boshqa yo'l bilan o'zini o'zi o'ldirishga undash natijasida yuzaga kelgan jabrlanuvchi o'limi 2017-yilgacha jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lmagan, ammo jinoyat huquqida mavjud jinoyat-huquqiy oqibat to'g'risidagi ta'limotda ahamiyatga ega bo'lgan; oqibat va zarar tushunchalarini bir xil deyish ijtimoiy xavfli oqibatni nafaqat sun'iy ravishda tor qilish, balki oqibat va zarar tushunchalarini haqiqatda bir-birining o'rnini bosuvchi o'xshash tushunchalar deyishga olib keladi; oqibat va zarar bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lib, ijtimoiy xavfli deganda oqibat jinoyat natijasida tashqi obyektiv dunyoda yuzaga kelgan hodisalar tushunilsa, jinoyat obyektiga zarar deganda esa nafaqat obyektidagi haqiqatdagi o'zgarishlar, balki bu o'zgarishlarning jamiyat va davlat uchun ahamiyati ham tushuniladi.

Darhaqiqat, ijtimoiy xavfli oqibat va jinoyat obyektiga yetkazilgan zarar o'rtasida tenglik belgisini qo'yish asoslanmagan ilmiy yondashuv hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday ilmiy yondashuv jinoyat-huquqiy oqibatning juda tor talqin qilinishini anglatadi.

N.F. Kuznetsova va M.B. Kostrovaning fikricha, "Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga yetkaziladigan zarar, ziyon va ijtimoiy xavfli oqibat o'zaro sinonim bo'lgan tushunchalardir" [32, 27–28-b.].

Yuqoridagi olimalarning fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ijtimoiy xavfli oqibat jinoyat obyektiv tomoni zaruriy belgisi (moddiy tarkibli jinoyatlarda) va bir qismi hisoblansa, jinoyat obyektiga yetkazilgan zarar esa tajovuz obyektining umumiy tavsifini ifodalaydi.

N.A. Belyayeva va M.D. Shargorodskiy to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, "Jinoyat-huquqiy zarar – bu ijtimoiy munosabatlardagi ijtimoiy-zararli o'zgarishdir. Faktik asos esa ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibati hisoblanadi. Shuning uchun "jinoyat-huquqiy zarar" va "jinoyat-huquqiy oqibat" bir-biriga o'xshash bo'lmagan tushunchalardir" [33, 329-b.].

Har qanday jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisi mavjud bo'lib, u bilan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinadi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarni favjuz natijasida yetkaziladigan zarardan aynan jinoyat qonuni qo'riqlaydi (JK 2-m.). Bu esa jinoyat obyektiga yetkaziladigan zarar bilan ijtimoiy xavfli oqibatning o'zaro munosabatda bo'lishini anglatadi.

Demak, ijtimoiy xavfli oqibat tabiatini o'rganish uchun, avvalo, uning jinoyat obyektiga bilan o'zaro munosabati qandayligini aniqlash lozim. Ijtimoiy xavfli oqibat jinoyat obyektisiz hech qanday mazmunga ega emas. Umuman olganda, jinoyat-huquqiy oqibat tabiatini jinoyat obyektiga bilan belgilanadi. Ammo ularni bir-biri bilan ham chalkashtirmaslik kerak. Chunki ularning har biri jinoyat tarkibining alohida elementlari hisoblanadi.

Xulosalar

Tadqiqot ishimizda jinoyat huquqi doktrinasida mavjud konsepsiyalar va ilmiy tadqiqotlardagi ilmiy yondashuvlarni tahlil qilgan holda, ijtimoiy xavfli oqibatning quyidagi asosiy ikkita muxsus yuridik belgilarini ajratib ko'rsatamiz:

1. *Ijtimoiy xavflilik belgisi yoki jinoyat-huquqiy oqibat* – faqat jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat (obyekt) larga yetkazilgan zarar natijasida kelib chiqqan tashqi obyektiv o'zgarishlardan iborat oqibatlardir.

2. *Huquqqa xiloflik belgisi yoki jinoyat-huquqiy zarar* ijtimoiy xavfli oqibat jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga yetkazilgan har qanday zarar emas, balki jinoyat-huquqiy normalarda nazarda tutilgan, ya'ni JK Maxsus qismi normalarida ifodalangan muayyan yetkazilgan zararlar iborat. Bu ijtimoiy xavfli oqibatning maxsus formal belgisi bo'lib, JK maxsus qismida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan oqibatlar kelib chiqsagina u uchun jinoiy javobgarlik vujudga keladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jinoyat tarkibi obyektiv tomon belgisi bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibat bilan bog'liq amaliyotda qilmishni kvalifikatsiya qilishda ba'zi xatoliklarga yo'lq qo'yilmoqda. Shu bois jinoiy oqibat bilan bog'liq amaldagi jinoyat qonunchiligining ba'zi normalarini takomillashtirish zaruriyati vujudga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida Jinoyat kodeksidagi fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiladigan huquqiy bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning muhim yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Shu munosabat bilan rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, jinoyat huquqi nazariyasida mavjud ilmiy tadqiqotlardagi ilmiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilgan holda amaldagi JK 118-moddasiga javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar sifatida muayyan ijtimoiy xavfli oqibatni qonun chuqaruvchi mustahkamlashi lozim deb topdik. JK 118-moddasining 2-qismiga quyidagi bandni kiritish taklif qilinadi:

"d) o'zida tanosil yoki boshqa yuqumli kasalligi borligini bila turib, bu kasallik jabrlanuvchiga yuqishiga sabab bo'lsa".

O'zida tanosil yoki boshqa yuqumli kasalligi borligini bila turib, bu kasallik jabrlanuvchiga yuqishiga sabab bo'lgan holda yoki homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan jinoyat sodir etish uchun og'irlashtiruvchi holatni belgilash odillik mezonlariga mos bo'lib, mazkur holatda ijtimoiy xavfli darajasi yuqori bo'lgan qilmishlar uchun adolatli jazo tayinlashga xizmat qiladi.

Rossiya, Belarus, Gruziya, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston [34] jinoyat qonunchiligida o'zgartirilishi taklif etilayotgan normalar mavjud.

Jinoyat-huquqiy oqibat o'ziga xos huquqiy ahamiyatga ega. Uning asosiy jinoyat-huquqiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

a) jinoyatlar va boshqa huquqbuzarlik (delikt)lar o'rtasida chegaralovchi belgi sifatida xizmat qiladi; b) inson qilmishini kriminalizatsiya qiladigan asosiy mezon sifatida qonun chiqaruvchi tomonidan foydalaniladi; d) qilmishni kvalifikatsiya qilish (jinoyat tarkibi belgilari sifatida) va jinoiy javobgarlik miqdorini belgilashda (jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarda) muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Traynin A.N. Uchenie o souchastii [The doctrine of complicity]. Moscow, NKJ Publ. House, 1941, p. 57.
2. Kovalev M.I. Obshchestvenno opasnyye posledstviya prestupleniya i dispozitsiya ugovnogo zakona [Socially dangerous consequences of a crime and the disposition of the criminal law]. *Sovetskoye gosudarstvo i pravo – Soviet state and law*, 1990, no. 10, p. 38.
3. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of the criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1. The doctrine of crime. 2nd ed., suppl. and revised. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 165.
4. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, p. 181.
5. Akhmedova G. Posledstviya obshchestvenno opasnogo deyaniya i konstruktsiya sostava prestupleniya po obyektivnoy storone [Consequences of a socially dangerous act and the structure of a crime on the objective side]. *Review of Law Sciences*, Tashkent, 2020, no. 1, spec. iss., pp. 191–196.

6. Magomedgaziev M.U., Zaidova M.U. Obshchestvenno opasnyye posledstviya kak obyazatel'nyy priznak ob"ektivnoy storony prestupleniya [Socially dangerous consequences as an obligatory sign of the objective side of the crime]. Actual problems of jurisprudence in the modern world, 2017, p. 167–171.
7. Balashov S.K. Logiko-pravovoy analiz sodержaniya obyektivnoy storony obshchestvenno opasnogo deyaniya i prestupleniya [Logical and legal analysis of the content of the objective side of a socially dangerous act and crime]. *Filosofiya prava – Philosophy of Law*, 2015, no. 4 (71), pp. 87–92.
8. Kuznetsova N.I., Shkele M.V. Ekologicheskij vred i obshchestvenno opasnyye posledstviya ekologicheskikh prestupleniy [Ecological harm and socially dangerous consequences of environmental crimes]. *Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta MVD Rossii – Bulletin of the St. Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2019, no. 2 (82), pp. 161–169.
9. Kameneva A.N. Obshchestvenno opasnyye posledstviya v normakh o prestupleniyakh v sfere ekonomicheskoy deyatel'nosti: problemy otrazheniya v zakone [Socially dangerous consequences in the norms on crimes in the sphere of economic activity: problems of reflection in the law]. *Lex Russica*, 2020, no. 5 (162), pp. 53–63.
10. Vinokurov V. N. Ob"yekt prestupleniya: doktrinal'no-prikladnoye issledovaniye [Object of crime: doctrinal and applied research]. Moscow, Prospekt Publ., 2019, pp. 170–171.
11. Fomin P.P. Predmet i priznaki ob"ektivnoy storony sostava prestupleniya: problemy vzaimosvyazi i razgranicheniya [The subject and signs of the objective side of the corpus delicti: problems of interconnection and differentiation]. *Vestnik Luganskoy akademii vnutrennix del imeni E.A. Didorenko – Bulletin of the Luhansk Academy of Internal Affairs named after EA Didorenko*, 2018, no. 1, pp. 146–156.
12. Novoselov G. Bez prestupnykh posledstviy net prestupleniya [Without criminal consequences there is no crime]. *Rossiyskaya yustitsiya – Russian Justice*, 2001, no. 3, p. 56.
13. List F. Uchebnik ugovnogo prava [Textbook of criminal law]. A common part. Moscow, 1903, p. 126.
14. Durmanov N.D. Ponyatiye prestupleniya [The concept of crime]. Rep. ed. M.D. Shargorodsky. Moscow, Publ. House of the Academy of Sciences, 1948, p. 57.
15. Traynin A.N. Sostav prestupleniya po sovetskomu ugovnomu pravu [Composition of a crime according to Soviet criminal law]. Moscow, 1951.
16. Austin J. Lectures on Jurisprudence. 523. 4th ed. 1873.
17. Moore M.S. Act And Crime: The philosophy of action and its implications for criminal Law. 1993, p. 18.
18. Husak D.N. The Orthodox model of the criminal offense. *Crim. Just. Ethics*, 1991, vol. 10, pp. 20–21.
19. Fletcher G. On the moral irrelevance of bodily movements. *U. Pa. L. Rev.*, 1994, no. 142, p. 1443.
20. Morris H. Punishment for thoughts, guilt and innocence. *Essays in legal philosophy and moral psychology*, 1989, p. 197.
21. Gorr M. The Actus Reus requirement: A qualified defense. *Crim. Just. Ethics*, 1991, no. 10, p. 11.
22. Enker A.N. Impossibility in criminal attempts-legality and the legalprocess. *Minn. L. Rev.*, 1969, no. 53, pp. 665, 687.
23. Blackstone W. Commentaries on the Laws of England. Book IV, 10th ed. 1787, p. 21.
24. Glanville W. Criminal Law. The General Part. 2th. ed. 1961, p. 22.
25. Kuznetsova N.F. Znachenie prestupnykh posledstviy dlya ugovnoy otvetstvennosti [Significance of criminal consequences for criminal liability]. Moscow, Gosjurizdat Publ., 1958, pp. 14–15.
26. Sharapov R. Klassifikatsiya sostavov prestupleniy na formalnyye i materialnyye: mif ili realnost' [Classification of elements of crimes into formal and material myth or reality]. *Criminal Law*, 2000, no. 3, p. 53.

27. Zemlyukov S.V. Ob odnom aspekte sovershenstvovaniya ugovno-pravovoy terminologii [On one aspect of improving criminal law terminology]. *Soviet State and Law*, 1988, no. 9, p. 80.
28. Kudryavtsev V.N. Ob'yektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime]. Moscow, Gosjurizdat Publ., 1960, p. 197.
29. Mikhlin A.S. Posledstviya prestupleniya [Consequences of the crime]. Moscow, Jurid. lit. Publ., 1969, p. 16.
30. Koryanskiy N.N. Ob'yekt i predmet ugovno-pravovoy okhrani [Object and subject of criminal law protection]. Moscow, Publ. House of the Academy of the Ministry of Internal Affairs, 1980, p. 162.
31. Frolov Ye.A. Ob'yekt i prestupnyye posledstviya pri posyagatel'stvakh na sotsialisticheskuyu sobstvennost' [Object and criminal consequences in case of encroachments on the socialist property]. *Scientific Notes of Sverdlovsk University*, 1968, iss. 8, p. 111.
32. Mamedov A. Sootnosheniye i vzaimosvyaz ob'yekta i ob'yektivnoy storony prestupleniya [Correlation and the relationship between the object and the objective side of the crime]. *Criminal law*, 1999, no. 2, p. 56.
33. Boyko A.I. Prestupnoye bezdeystviye [Criminal inaction]. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2003, p. 42.
34. Timeyko G.V. Obshchee ucheniye ob ob'yektivnoy storone prestupleniya [The general doctrine of the objective side of the crime]. Rostov, Rost Publ. House, 1977, p. 83.
35. Kabulov R., Otajonov A.A. et al. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Completed and revised 2nd ed. Tashkent, MIA Academy of the Republic of Uzbekistan, 2012, pp. 117–118.
36. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Res. ed. H. Ochilov. Tashkent, Adolat Publ., 2020, pp. 71–72.
37. Zemlyukov S.V. Ugolovno-pravovyye problemy prestupnogo vreda [Criminal-legal problems of criminal harm]. Novosibirsk, Novosib Publ. House, 1991, pp. 19–21.
38. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Criminal law of the Russian Federation]. General part. Ed. B.V. Zdravomyslova. P. 142.
39. Legislation of CIS countries. Available at: <https://base.spinform.ru/spisdoc.fwx/>.
40. Model Criminal Code. Recommended legislative act. Adopted by the Resolution of the Interparliamentary Assembly of the Member Nations of the Commonwealth of Independent States on February 17, 1996. Available at: <https://www.cisatc.org/1289/135/154/241/>.
41. Kuznetsova N.F. Izbrannyye trudy [Selected Works]. St. Petersburg, Juridicheskiy Center Press, 2003, p. 41.
42. Tkachenko V. Ugroza kak ugolovno-pravovaya kategoriya [Threat as a criminal law category]. *Investigator*, 2000, no. 6, p. 7.
43. Braynin Ya.M. Ugolovnaya otvetstvennost' i yee osnovaniye [Criminal liability and its basis]. Moscow, Gosjurizdat Publ., 1963, p. 181.
44. Kuznetsova N.F., Kostrova M.B. Obshchestvenno opasnyye posledstviya: lingvisticheskiy aspekt [Socially Dangerous Consequences: Linguistic Aspect]. *Moscow University Bulletin, Series 11 – Law*, 2001, no. 6, pp. 27–28.
45. Kurs sovetskogo ugolovnogo prava [The course of Soviet criminal law]. Eds. N.A. Belyaev, M.D. Shargorodsky. Vol. 1. General part. Leningrad, Leningrad Publ. House, 1968, p. 329.
46. Legislation of CIS countries. Available at: <https://continent-online.com/>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./HKEW7923>
UDC: 343.1(042)(575.1)

JINOYAT ISHI QO'ZG'ATISHNI RAD ETISH YOKI TUGATISHDA SHAXSLARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISHNING AYRIM JIHATLARI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

e-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda javobgarlikdan ozod etishning protsessual tartibi – ish yuritishni rad etish va tugatish qarorlari ustidan shikoyat qilishda vujudga kelayotgan muammolar va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari, qaror ustidan sudga murojaat qilish huquqining afzalliklari tadqiq etilgan. Maqolada mazkur qarorlar ustidan shikoyat qilishning protsessual tartibi yuzasidan amaliyot tahlili, mavjud muammolar va ularning yechimiga oid yetakchi ilmiy tashkilotlarning xulosalari tahlil qilingan. Shuningdek, ish yuritishni rad etish va tugatish qarorlarini qayd etish, ularning huquqiy oqibatlari bo'yicha salbiy holatlar o'rganilgan hamda statistik hisoblar va mazkur institut bilan bog'liq boshqa muammolar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, maqolada jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va tugatishda protsessual xarajatlar hamda mazkur qarorlarni rasmiylashtirishda mavjud huquqiy bo'shliq va kollizion holatlar yuzasidan fikrlar bildirilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar, tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan. Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ish yuritishni rad etish, jinoyat ishini tugatish, statistik kartochkalar, sud, moddiy zarar, protsessual xarajatlar.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ ЛИЦ ПРИ ОТКАЗЕ В ВОЗБУЖДЕНИИ ИЛИ ПРЕКРАЩЕНИИ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,

докторант факультета послевузовского образования
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, капитан

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессуальная процедура освобождения от ответственности на сегодняшний день – проблемы, возникающие при подаче жалобы на решение об отказе и прекращении производства по делу, а также аспекты правового регулирования этих вопросов и преимущества права обжаловать решение в суде. В статье приводится анализ практики по процедурному порядку обжалования этих решений, анализируются существующие проблемы и выводы ведущих научных организаций по их решению. В статье также изучались негативная практика отказа и прекращения производства по делу, ее правовые последствия, даны статистические расчеты, выявлены

другие проблемы, связанные с этим институтом. В то же время в статье высказаны мнения о процессуальных издержках при отказе и прекращении возбуждения уголовного дела, существующих правовых лазейках и обстоятельствах сговора при оформлении этих решений. В ходе исследовательской работы был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные акты.

Ключевые слова: отказ в возбуждении дела, прекращение уголовного дела, статистические карточки, суд, материальный ущерб, процессуальные издержки.

SOME ASPECTS OF PROTECTING THE RIGHTS AND INTERESTS OF PERSONS IN CASE OF REFUSAL TO INITIATE OR TERMINATE A CRIMINAL CASE

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,

Doctoral student of the Faculty of Postgraduate Education,
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain

Abstract. This article discusses the procedural system for exoneration from liability today – the problems that arise when filing a complaint against the decision to refuse and terminate proceedings in the case, as well as aspects of legal regulation of these issues, the advantages of the right to appeal the decision in court. The article provides an analysis of the practice of the procedural system for appealing these decisions and analyzes the existing problems and conclusions of leading scientific organizations on their solution. The article also studied negative cases of refusal and termination of proceedings, their legal consequences, as well as studied statistical calculations and other problems associated with this institution. At the same time, the article expressed opinions on the procedural costs of refusing and terminating the initiation of a criminal case, as well as on the existing legal loopholes and circumstances of collusion in the execution of these decisions. During the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedural Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative acts.

Keywords: refusal to initiate a case, termination of a criminal case, statistical cards, court, material damage, procedural costs.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi, xususan, ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini tugatish institutini rivojlantirish zarurati ushbu islohotlarning alohida muhim qismini tashkil etmoqda.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishning boshqa subyektlariga nisbatan qo'llaniluvchi rad etish yoki tugatishdan eng farqli jihati harbiy xizmatchilarga nisbatan mazkur asoslarning JPKning 345-moddasi

3-qismiga ko'ra, faqatgina harbiy prokuratura idoralari tomonidan amalga oshirilishidir. Jinoyat-protsessual qonunchilikda harbiy xizmatchilarga nisbatan tergovga qadar tekshiruv vaqtida ish yuritishni rad etish bo'yicha boshqa vakolat berilgan mansabdor shaxslar ham mavjud, biroq amaliyotda bunday vakolat berilgan (harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlari boshliqlari) mansabdor shaxslar tomonidan ayblilik masalasini hal etmay turib, ish yuritish rad etilgan holatlari deyarli uchramaydi.

Material va metodlar

Yuqorida keltirilgan holat, albatta, harbiy prokuratura idoralarining mutlaq vakolati doirasida hal etilishi, fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning protsessual huquqlarini cheklaydi. Chunonchi, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishi bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish qarorlari ustidan shikoyat qilish kelgusida harbiy prokurorga berilishi mumkin xolos. Bu esa ko'p hollarda mazkur qarorlarning bekor bo'lmasdan o'z kuchida qolishiga olib kelmoqda. Tadqiqot ishida ish yuritishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish qarorlari ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Harbiy bo'lmagan ish yuritish shakli-da ham mazkur masala to'liq o'z yechimini topgan deb bo'lmaydi. Jumladan, amaldagi JPKning 338-, 382-moddalariga muvofiq, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan qabul qilingan ish yuritishni rad etish yoki tugatish qarorlari ustidan nazorat prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Bunday hollarda prokuror qabul qilingan qarorni bekor qiladi va qo'shimcha tergovga qadar tekshiruv yoki qo'shimcha tergov ishlari tashkil etilishini belgilaydi. Ma'lumki, prokuratura idoralari ham tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari hisoblanadi hamda mazkur yo'nalishlarda protsessual vakolatlari mavjud. Mazkur organlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning esa faqatgina prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror tomonidan nazorat qilinishi, fikrimizcha, noto'g'ridir. Negaki bunda o'ziga nisbatan qaror qabul qilinayotgan ushbu shaxslarning huquqlari qayta-qayta cheklanishi mumkin.

Masalan, Toshkent shahar IIBB Tergov boshqarmasi ish yurituvda "NAVOI CORPORATION" MChJ ta'sisчисiga nisbatan JKning 228-moddasi bilan Chilonzor tuma-

ni prokuraturasi tomonidan qo'zg'atilgan 32/19-1227-sonli jinoyat ishi hujjatlariga ko'ra, jinoyat ishi 2019-yil 12-aprelda qo'zg'atilgan bo'lib, oradan deyarli 3 yil o'tgan bo'lsa-da, haligacha hech qanday yakuniy qaror qabul qilinmagan. Hujjat soxtalashtirish holatining o'zi 2006-yilda sodir etilgani (16 yil o'tgan) uchun tergovchilar tomonidan jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi asosi bilan jinoyat ishi bir necha bor tugatilgan. Shuningdek, prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishi bir necha bor qayta tiklangan.

Mazkur jinoyat ishi jami 7 marotaba tugatilishi bo'yicha qaror qabul qilingan va barcha qarorlar Toshkent shahri prokuraturalari tomonidan bekor qilingan [1].

Yuqoridagi jinoyat ishi JPKda jinoyat ishini tugatish va qayta boshlash chegarasi belgilanmaganligi sababli bir necha marotaba tugatilgan bo'lsa-da, qayta tiklanib, qo'shimcha tergovga qaytarilgan. Bu borada olimlar quyidagi fikrlarni bildirganlar.

Y.V. Kolomees [2, 186-189-b.], K.A. Tabolina [3, 229-230-b.], I.R. Astanov [4, 8-12-b.], S. Li [5, 141-150-b.], J.Zila [6, 90-93-b.] va V.M. Bikovlarning [7, 30-34-b.] fikriga ko'ra, jinoyat ishini tugatish borasidagi qonuniylikni nazorat qilish prokuror zimmasidagi sababli qarorning qayta-qayta bekor bo'lishining oldini olish uchun prokurorning ushbu qarorni qabul qilishga rozilik berishi mazkur masalani hal etadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi. Ular bergan taklifning qonunchilikda aks etishi jinoyat ishlarini tugatishning bugungi holatidan deyarli o'zgarishsiz qolishiga olib keladi. Ya'ni bunda qarorga rozilik bergan prokurorning mazkur qaror bo'yicha yuqori turuvchi prokuror tomonidan bekor qilingan holatlari ham amaliyotda ko'plab uchraydi. Yuqorida keltirilgan holat bunga yorqin misoldir.

Bu borada Makkevits [8, 122-b.], J. Ross, S. Taman [9, 576-b.], A.A. Haydarov va N.S. Didenkolarning [10, 336-b.] fikrlari e'ti-

borga molik. Ularning ta'kidlashicha, mazkur ish yuritishni rad etish yoki tugatish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilishda so'nggi nuqtani sudlar qo'yishi lozim.

Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda shuni e'tirof etish lozimki, bugungi kunda jamiyatimiz tomonidan sudlarga nisbatan ishonch tobora ortmoqda. Qolaversa, so'nggi yillarda mamlakatimizda sud himoyasida bo'lish, ya'ni ishni sudga qadar yuritish bosqichida har bir shaxsning o'z huquqlarini sud orqali himoya qilishini kafolatlash, "Habeas korpus" institutini amalda qo'llashni kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish sohasida islohotlar o'tkazilmoqda.

B.A. Saidov ham "Habeas korpus" institutini yanada kengroq qo'llash maqsadida jinoyat-protsessual munosabatlarda protsess ishtirokchilari tomonidan tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning jinoyat ishi qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish, taftish tayinlash, surishtiruv yoki dastlabki tergovni to'xtatish, jinoyat ishini tugatish hamda boshqa tergov va protsessual harakatlarni o'tkazishda qonunni har qanday tarzda buzish, shuningdek, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi holatlar ustidan bevosita sudga shikoyat qilish imkoniyatini kafolatlovchi normalarni jinoyat-protsessual qonunchilikda aks ettirish zarurligini ta'kidlaydi [11, 7-8-b.].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bugungi kunda jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashda sud nazoratini kuchaytirish va nafaqat ish yuritishni rad etish yoki tugatish borasidagi qarorlar, balki surishtiruv va dastlabki tergov organlarining boshqa qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish tartibini belgilash zarurati yuzaga kelganligini asoslaydi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xat-

ti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilangan [12].

Shuningdek, yuqoridagi masalalar yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqishda faqat prokurorning vakolatli ekanligi dastlabki tergovni yuritishda obyektivlik va shaffoflikni ta'minlay olmaydi.

Xorijiy davlatlarda, xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat protsessual kodeksining 125-moddasiga (Shikoyatni sud tartibida ko'rib chiqish) ko'ra, tuman sudlari vakolatli organlarning jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Sud shikoyatni 5 kun muddat ichida ko'rib chiqadi va chiqarilgan qarorlarning qonuniy va asosli ekanligini tekshiradi [13].

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 106-moddasiga (jinoiy ta'qib organlari, prokuror qarorlari va harakat (harakatsizlik)lari ustidan keltirilgan shikoyatlarni sud tartibida ko'rib chiqish) ko'ra, shaxslar jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi tegishli organlarning qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishlari mumkin. Shaxs tegishli organning qarori yoki prokurorning shikoyatni qanoatlantirishni rad etganligi to'g'risidagi qarorini olgan kundan boshlab 15 kunlik muddat ichida tegishli tuman sudiga shikoyat qilish huquqiga ega [14].

Moldova Respublikasi JPKning 8-bobida "Sudgacha bo'lgan protsessual harakatlar ustidan sud nazorati" [15], Armaniston Respublikasi JPKning 39-bobida "Sud ish yurituviga qadar sud nazorati" [16], Ozarbayjon Respublikasi JPKning LII bobida "Sud nazoratini amalga oshirish" [17] va boshqa davlatlarning JPKda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi tegishli organlarning qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish mumkinligi belgilangan.

Finlandiyada jinoyat protsessual qonunchiligi kodekslashtirilmagan bo'lsa-da, mazkur munosabatlarni bir necha qonunlar o'z ichiga oladi va jinoyat protsessual qonunlar-

ning 1-bobi 9(a)-moddasiga ko'ra, prokuror ushbu qonunning 7- yoki 8-moddasidagi asoslarga tayangan holda, ustidan dastlabki tergov amalga oshirilayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilsa, qarorni ko'rib chiqishi uchun sudga topshiradi [18].

Xulosa o'rnida quyidagilarni taklif sifatida ilgari surish va mazkur takliflarni jinoyat-protsessual qonunchilikda mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Jumladan, jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergovni to'xtatish, jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran bir yil ichida shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyat sudga qadar ish yuritilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuror orqali jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi yoki tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazilgan joydagi hududiy harbiy sudga beriladi. Shikoyatni olgan prokuror shikoyat qilinayotgan qarorni bekor qilish yoxud uni tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishi materiallari bilan birga 3 kunlik muddatda sudga yuborishga haqli.

Shikoyat uni berish huquqiga ega bo'lma-gan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa yoki ushbu sudda ko'rib chiqilishi lozim bo'lmasa, sud tomonidan qaytarilib, bu haqda ajrim chiqariladi. Shikoyat sudga kelib tushgan kundan e'tiboran 5 kunlik muddatda sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Sud majlisida shikoyat bergan shaxs, uning himoyachisi (advokati), vakili, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining vakili, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror ishtirok etishi mumkin.

Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud shikoyatni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida, ustidan shikoyat berilgan qarorni bekor qilish haqida ajrim chiqaradi. Sud ajrimining nusxasi shikoyat bergan shaxs va prokurorga 3 kunlik muddatda yuboriladi. Bunda sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat, prokuror tomonidan esa apellyatsi-

ya tartibida taqdimnoma berilishi mumkin. Ular apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Surishtiruv yoki dastlabki tergov organi yoxud prokurorning qarorini bekor qilish to'g'risida sud tomonidan ajrim chiqarilishi va ushbu ajrimning qonuniy kuchga kirishi aynan bekor qilingan qarorda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha takroran qaror qabul qilinishini istisno etadi. Ushbu ajrim uning ustidan xususiy shikoyat yoki taqdimnoma kiritishning kodeksda belgilangan muddati tugagan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Ma'lumki, jinoiy-huquqiy statistika tizimini takomillashtirish, jinoyatlar hisobini yuritishning shaffofligini ta'minlash, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablarini maqsadli tahlil qilish yo'li bilan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida 2018-yil 31-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoiy-huquqiy statistika tizimini tubdan takomillashtirish va jinoyatlarni tizimli tahlil qilish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5566-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda statistik kartochkalarining elektron shakllarini tuzish orqali jinoyat ishlari, tergovga qadar tekshiruv materiallari, sud muhokamalari hamda sud qarorlari ijrosi natijalari, shuningdek, ayblanuvchi va jabrlanuvchi tariqasida jalb etilgan ishtirokchilar bo'yicha ma'lumotlarning yagona hisobini yuritish, prokuratura, sud va boshqa davlat organlari o'rtasida dastlabki tergov va surishtiruv organlarining elektron ma'lumot almashuv shakli, shu jumladan, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish yo'li bilan joriy etish hamda jinoiy-huquqiy statistikani yuritish tartib-taomillarini optimallashtirish va uni shakllantirish jarayonida inson omilini istisno etish nazarda tutilgan edi.

Yuqoridagi farmon va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jino-

yatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni talablari-ga asosan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ish-lar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Davlat xavf-sizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrda-gi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan ni-zomning 3-bobi aniqlangan yoki sodir etil-gan jinoyatni hisobga olish yagona elektron statistik kartochkalarini to'ldirish va taqdim etish tartibida aynan jinoyat ishi qo'zg'atil-ganda yoki JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-, 2-, 3-, 6-, 8-bandlari va 5-qismiga asosan ish qo'zg'atish rad qilinganda, yagona elektron jurnaldan tartib bo'yicha elektron tarzda raqam berilishi va shu bilan birga, bar-cha turdagi statistik kartochkalar (Shakl-1, 1.1, 2, 3, 4) to'ldirilishi belgilab qo'yilgan [19].

Bu borada olimlar o'zgacharoq fikrda, ya'ni B. Murodov "JPKning ushbu moddasi-da nazarda tutilgan tartibda jinoyat ishi-ni qo'zg'atish rad etilganda, qilmish jinoyat sifatida ro'yxatdan o'tkazilmasligi lozim. Ya'ni mazkur holatda "Shakl-1" kartochkasi to'ldirilib, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir et-gan shaxsning o'rnatilgan tartibda Axborot Markazi ro'yxatiga kiritilishi noto'g'ri" [20, 99-100-b.], deb ta'kidlaydi.

Buni bir guruh olimlar aybsizlik pre-zumpsiyasi prinsipi talablaridan kelib chiq-qan holda xato ekanligini ta'kidlaydilar. Ya'ni bunda shaxsni sudning qonuniy kuch-ga kirgan ayblov hukmi bo'lmaganligi sabab-li rasman "aybdor" deb hisoblab bo'lmasligi, ularni ro'yxatga olib, ularga nisbatan pro-filaktik ta'sir choralarini qo'llash mumkin emasligi, JKning 4-moddasiga muvofiq, sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazo-vorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanishini inobatga olib, JPKning 325-moddasi bo'yicha javob-garlikdan ozod bo'lgan shaxslarni muqad-dam sudlangan shaxslar bilan tenglashtirish

barcha prinsiplarga zid ekanligini e'tirof etishgan.

Yuqoridagi olimlarning fikrlari o'rinli, bi-roq JKda nazarda tutilgan jinoyat alomatlari-ning barchasi mavjud bo'lgani holda, mazkur holatlarni jinoyat sifatida ro'yxatga olmaslik ham, bizningcha, noto'g'ridir. Albatta, JKning 4-moddasiga muvofiq, sodir etilgan qilmish-ning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanishi lozim. Bu, o'z navbatida, xususiy ayblov institutini ham moddiy norma sifati-da javobgarlikdan ozod qiluvchi turi sifatida JKda qayd etish zarurligini taqozo qiladi.

Shu sababli JPKning mazkur asosiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishda uni ji-noyat sifatida ro'yxatga qo'yish lozim. Zero, bunda JKda nazarda tutilgan jinoyat belgilari to'liq aniqlanadi. Faqatgina mazkur shaxslar sudlangan shaxslar bilan tenglashtirilgan ro'yxatda bo'lmasligi va yagona interaktiv portal orqali so'rov natijasiga ko'ra qayd etil-masligi kerak, ya'ni bunda mazkur statistika umumiy jinoyatchilikni qayd etish, unga qar-shi kurashish va tezkor-tergov faoliyatda foy-dalanilishi zarur, biroq mazkur qaydlar fuqa-rolarning shaxsiy ma'lumotlarida saqlanishi mutlaqo noto'g'ri. Shu bilan birga, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 8-bandiga ko'ra, ish yuritish rad etilgan yoki tugatilgan hollar-da, ularga nisbatan statistik kartochkalarni to'ldirish va hisobga qo'yish noo'rindir.

Shuningdek, ro'yxatga olingan mazkur shaxslarga nisbatan profilaktik ta'sir cho-ralarini qo'llash mumkin emasligi yuzasidan bildirilgan fikrlarga qo'shilamiz va 2014-yil 14-may kungi O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risi-da"gi O'RQ-371-sonli Qonuni 35-moddasi-da nazarda tutilgan "O'ziga nisbatan pro-filaktik hisobga olish yuritiladigan shaxslar" ro'yxatidan "O'zbekiston Respublikasi Ji-noyat-protsessual kodeksining 84-moddasi-ga muvofiq, aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib, o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud reabilitatsiya qilmaydigan

asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga" jumllarini chiqarib tashlash lozim, degan fikrdamiz. Sababi mazkur qism, eng avvalo, yuqorida ta'kidlangan barcha rahbariy qoidalarga zid ekanligi bilan bir qatorda, normadagi "reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha" kabi JPKda belgilanmagan asosning qo'llanishida mavhumliklarni bar-taraf etadi.

Bundan tashqari, mazkur asosni hisobga olishda respublikamiz hududlarida turli xildagi amaliyot shakllanganligi ham mavjud muammolardan sanaladi. Bundan bir qancha vaqt ilgari ba'zi hududlarda JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandiga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilganda, jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergovda qaysi statistik kartochalar to'ldirilsa, barcha kartochkalar to'liq to'ldirilgan holda, axborot markazlari-ga taqdim etilgan bo'lsa, ba'zi hududlarda mazkur asosga ko'ra ish yuritish rad etilgan-da, hech qanday statistik kartochkalar to'ldirilmasdan tergovga qadar tekshiruv hujjat-lari arxivga topshirilgan. Shu sababdan ham amaliyotchilar orasida ish qo'zg'atilgandan so'ng jinoyat ishi doirasida mazkur asos bilan jinoyat ishini tugatish mumkin emas, degan asossiz qarashlar mavjud edi.

Yuqoridagi kabi turli xillikning yana bir ko'rinmagan asosiy muammolaridan biri – bu tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov amaliyoti mavjud tizimlarda yagona arxiv ishining tashkil etilmaganligidir.

O'zbekiston Respublikasi IIV, Bosh prokuraturasi, DXX, DBQ, MG, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-sonli qo'shma qarori 1-ilo-vasi "Elektron jinoiy – huquqiy statistika" ya-gona axborot tizimini yuritish tartibi to'g'risi-dagi nizomning 34-bandiga muvofiq, Ter-govga qadar tekshiruv natijasida jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilinganda yoki jinoyat ishi tugatilganda, 1.1-shakli statistik kartochkasi ro'yxatga olinganda hamda prokuror tomoni-dan qabul qilingan qarorning qonuniyligi

yuzasidan xulosa qilinganidan so'ng jinoyat ishlari va tergovga qadar tekshiruv materi-allari surishtiruv, dastlabki tergov va tergov-ga qadar tekshiruvni olib borgan organlar va sudlarning o'zida belgilangan tartibda saqla-nishi mustahkamlangan [21].

Bu borada O'zbekiston Respublikasi IIV-da tugatilgan jinoyat ishlari toifalariga qa-rab 25 yilgacha, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishga oid hujjatlar qaysi asoslarda ish yuritilishi rad etilishidan qat'i nazar, atigi 3 yil mobaynida saqlanishi belgilab qo'yilgan bo'lsa, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va har-biy sudlarda mazmunan hal etilgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari va jinoyat ishlari, toifalari ro'yxat asosida ularning JIB va har-biy sudlarning arxivida saqlash muddatidan tugaganidan so'ng "O'zbekiston Respublikasi-da arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama-sining qaroriga muvofiq, hududiy arxivlarga yuborilishi belgilangan.

Biroq mazkur masalaning turli organlarda turlicha hal etilishi bu borada turli xil amali-yot shakllanishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, statistik kartochkalar orqali qayd qilinayotgan jinoyat sodir etgan shaxs va jinoyat ishi ma'lumotlari mavjud asosning yo'qolishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlardan shun-day xulosa qilishimiz mumkin, ya'ni O'zbe-kiston Respublikasi IIV, Bosh prokuraturasi, DXX, DBQ, MG, Oliy sudning 2021-yil 15-noyabrdagi 70, 71-qq, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-son qaroriga muvofiq, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-, 2-, 3-, 6-, 8-bandlari va 5-qismiga asosan, ish qo'zg'atish rad qilinganda, barcha turdagi statistik kartochkalar mazkur tergovga qa-dar tekshiruv hujjatiga jinoyat ishi raqami berilgan holda amalga oshiriladi va shaxsga nisbatan axborot markazining ma'lumotlar bazasida muqaddam sudlangan shaxs singa-ri jinoyat sodir etgan shaxs sifatidagi maz-kur yozuv bir umrga saqlanib qolsa-da, biroq mazkur hisobning asosi hisoblangan tergovga

qadar tekshiruv hujjatlari atigi 3 yil muddat mobaynida saqlanishi, fikrimizcha, mutlaqo noto'g'ridir. Chunki amaliyotda bu kabi holatlar tez-tez kuzatiladi, ya'ni ba'zi shaxslar o'zlarining jinoiy javobgarlikka tortilganligi yoki jinoiy javobgarlikdan ayblilik to'g'risidagi masala hal etilmasdan ozod qilinganligi to'g'risida ular biror korxona yoki muassasaga ishga joylashish bilan bog'liq hujjatlarni to'plash jarayonida xabardor bo'lishlari va bu holatdan norozi bo'lgan holda davlat idoralariga ariza bilan murojaat qilish hollari uchraydi.

Bugungi kunda ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatishda shaxslar mazkur asoslarga ko'ra ish hal etilganligi mazmunini to'liq anglab yetmaydilar. Bu esa, o'z navbatida, o'zini aybsiz hisoblagan shaxslarga nisbatan mazkur asoslarga ko'ra ish yuritish rad etilishi yoki tugatilishi natijasida ish bo'yicha haqiqiy aybdorlar javobgarlikdan qutulib qolishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

B. Murodovning fikricha, mazkur asoslarga ko'ra ish tugatilishiga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxsga ish tugatilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatni tushuntirishi majburiyati yuklanishi mazkur muammoni hal etishi mumkin [21].

I.S. Tarasov [22, 12-b.] va D.V. Sinyovlar [23, 11-b.] mazkur yuridik muammo himoyachi ishtirokining majburiy qilib belgilanishi orqali hal etilishi mumkinligini e'tirof etadilar. Ya'ni ular JPKning 84-moddasiga asosan, ish yuritilishi rad etilgan yoki tugatilayotganda, shaxsga mazkur e'lon qilingan qaror qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini uning himoyachisi ishtirokida amalga oshirilishi lozimligini bildirishgan.

Olimlarning mazkur fikrlari o'rinli ekanligini e'tirof etgan holda himoyachini mazkur asoslarga ko'ra ish yuritilishi rad etilgan yoki tugatilishi to'g'risidagi ishlar nafaqat mazkur shaxslarning qabul qilingan qarorlarning huquqiy oqibatlarini to'liq anglashlari, balki ish tugatish asoslari shartlarini to'liq bajargan hollarda mansabdor shaxslarning

umumiy tartibda ish yuritilishining ham oldi olinishiga erishiladi, degan fikrdamiz. Ba'zi olimlar himoyachi ishtirokining majburiy tartibda belgilanishi mazkur asoslar qo'llanishi borasida muammolarning to'la hal etilmasligi va protsessual qoidalarga, agar shaxs ishning umumiy tartibda yuritilishini talab qilgan hollarda unga nisbatan ozodlikni cheklash bilan bog'liq ehtiyot choralarini qo'llamaslik shartini kiritish lozimligini bildirganlar [24].

Yuqoridagilarga xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shaxslarning jinoiy qilishi bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda himoyachi ishtirokini ta'minlash harbiy xizmatchilarning har tomonlama huquq va manfaatlari hamda uning kelgusida xizmatni davom ettirishi borasidagi huquqlari ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida ish yuritishni rad etish va tugatishga oid protsessual muammolarning tahlili quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi.

Birinchidan, yuqoridagi loyihaviy takliflar, harbiy va harbiy bo'lmagan ish yuritish shaklida, ishni rad qilish yoki tugatish to'g'risidagi qarorlar yuzasidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatining sudlarga berilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida quyidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin:

- manfaatdor shaxslarda ish yuritishni rad qilish yoki tugatish to'g'risidagi qaror yuzasidan prokuraturadan tashqari boshqa vakolatli davlat organiga murojaat qilish imkoniyati paydo bo'ladi;

- surishtiruv va tergov faoliyatidagi ishni qo'zg'atishni rad qilish hamda jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq masalalarni faqat bir organ tomonidan hal etish amaliyoti tugatiladi;

- jinoyat ishlarining qonuniy va adolatli ko'rib chiqilishi ta'minlanadi.

Surishtiruv va dastlabki tergovda sud nazoratini kengaytirish maqsadida Jinoyat protsessual kodeksiga surishtiruv va dastlabki tergov organlarining qarorlari ustidan shikoyatlarni sud orqali ko'rib chiqish tartibini kiritish taklif etiladi.

Ikkinchidan, JPK 84-moddasining ayrim asoslariga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki tugatishda uni jinoyat sifatida ro'yxatga qo'yish lozim, zero, bunda JKda nazarda tutilgan jinoyat belgilari to'liq aniqlanadi. Faqatgina mazkur shaxslar sudlangan shaxslar bilan tenglashtirilgan ro'yxatda bo'lmasligi va yagona interaktiv portal orqali so'rov natijasiga ko'ra qayd etilmasligi lozim. Mazkur statistika umumiy jinoyatchilikni qayd etish, unga qarshi kurashish va tezkor tergov faoliyatida foydalanilishi zarur, biroq mazkur qaydlar fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarida saqlanishi mutlaqo noo'rin.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli qonuni 35-moddasida O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasiga asosan, ish yuritilishi rad etilgan yoki tugatilgan shaxslarga nisbatan profilaktik hisob yuritilishi mazkur shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklaganligi bois mazkur bandni chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-, 2-, 3-, 6-, 8-bandlari va 5-qismiga asosan, ish qo'zg'atish rad qilingan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari 3 yil muddat mobaynida saqlanishi noto'g'ri. Barcha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud idoralarida yagona jinoyat ishlari va tergovga qadar tekshiruv hujjatlari hamda ularni ro'yxatga olish kitoblarini saqlash arxiv ishlarini tashkil etish bo'yicha yagona ish yurituvchi idoralararo qo'shma qaror qabul qilish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, manfaatdor shaxslarga jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror yuzasidan sudga shikoyat qilish imkoniyatining berilishi ushbu ish yuzasidan dastlabki tergovni amalga oshirishga mas'ul shaxslarning jinoyat ishini qo'zg'atish yoki jinoyat ishini tugatish masalasidan o'z manfaati yo'lida foydalanish imkoniyatiga barham beradi. Chunki ishlarning adolatli va asosli tugatilishi sud tomonidan nazoratga olinadi.

REFERENCES

1. Tursunboyev T. Ishlamaydigan qonunlar bilan adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi yoxud advokatlariga oson emasligi haqida uzun hikoya [A fair society cannot be built with broken laws, a long story about lawyers having a hard time]. Available at: <https://kun.uz/news/2022/03/26/>.
2. Kolomeec E.V. Soglasovaniye prokurorom processual'nykh resheniy organov rassledovaniya o prekrashchenii ugolovnykh del [Approval by the prosecutor of the procedural decisions of the investigation bodies on the termination of criminal cases]. *Vestnik of Omsk University. Law Series*, 2018, no. 3 (56), pp. 186–189. DOI: 10.25513/1990-5173.2018.3.186-189/.
3. Tabolina K.A. Nadzor prokurora za vzbuzhdeniyem i rassledovaniyem ugolovnykh del [Supervision of the prosecutor over the initiation and investigation of criminal cases]. PhD thesis. Moscow, 2016, pp. 229–230.
4. Astanov I.R. General characteristics and problems of expertise in a criminal trial in Uzbekistan. *International Journal of Advanced Research*, 2016, vol. 4, iss. 1-8, pp. 1–8.
5. Lee S.W. The politics of prosecution service reform in new presidential democracies: The South Korea and Russia cases in comparative perspective. *Journal of Eurasian Studies*, 2016, vol. 7 (2), 2016, pp. 141–150. DOI: 10.1016/j.euras.2015.09.001/.

6. Zila J. The Prosecution Service Function within the Swedish Criminal Justice System. Coping with Overloaded Criminal Justice Systems, Springer, Berlin, Heidelberg. 2006. DOI: 10.1007/978-3-540-33963-2_9/.
7. Bykov V.M. Pravovoye polozheniye prokurora na dosudebnykh stadiyakh ugolovnogo sudoproizvodstva [The legal position of the prosecutor at the pre-trial stages of criminal proceedings]. *Rossiyskaya justiciya – Russian Justice*, 2016, no. 11, pp. 30–34.
8. Michael McKevitt v. DPP, Supreme Court. Michael McKevitt v. DPP, Unreported, Supreme Court, 2003, March 18, 122 p.
9. Ross J.E., Thaman S.C. Comparative criminal procedure. Edward Elgar Publ., 2016, 576 p.
10. Haydarov A.A., Didenko N.S. Prinyatiye sudom protsessual'nogo resheniya ob otkaze v udovletvorenii hodataystva sledovatelya o prekrashchenii ugolovnogo dela (ugolovnogo presledovaniya) [Adoption by the court of a procedural decision on refusal to satisfy the investigator's petition to terminate the criminal case (criminal prosecution)]. *Criminal Procedural Law and Criminalistics*, 2018.
11. Saidov B.A. Ishni sudga qadar yuritishda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlanishini takomillashtirish [Improving the provision of constitutional rights and freedoms of a person in the proceedings before the court]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2020, pp. 7–8.
12. Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Adolat Publ., 1992.
13. The Criminal Procedural Code of the Russian Federation. 2001, December 18. Available at: <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody=&nd=102073942/>.
14. Criminal Procedural Code of the Republic of Kazakhstan, with amendments and additions as of 09.07.2022. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575852&sub_id=0&pos=4;-111#pos=4;-111/.
15. Criminal Procedural Code of the Republic of Moldova. 2003, March 14, No. 122-XV. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=6;-142/.
16. Criminal Procedural Code of the Republic of Armenia. 1998, September 1, No. ZR-248.
17. Criminal Procedural Code of the Republic of Azerbaijan. Approved by the Law of the Republic of Azerbaijan No. 907-IQ dated July 14, 2000. Article 39.
18. Criminal Procedure Act. No. 689/1997, amendments up to 733/2015 included. Ministry of Justice, Finland. Available at: <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1997/en19970689.pdf/>.
19. Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, General Prosecutor's Office, State Security Service, State Customs Committee, National Guard, Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated November 15, 2021, No. 70, No. 71, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-Appendix 1 to the decision of the number regulation on the procedure for maintaining a unified Information System "Electronic criminal law statistics.
20. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, pp. 99–100.
21. Tarasov I.S. Prekrashcheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya po nereabilitiruyushchim osnovaniyam [Termination of the criminal case and criminal prosecution on non-rehabilitating grounds]. PhD thesis. Nizhny Novgorod, Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2007, p. 12.
22. Sinzhov D.V. Prekrashcheniye ugolovnykh del po nereabilitiruyushchim osnovaniyam na predvaritel'nom sledstvii [Termination of criminal cases on non-rehabilitating grounds at the preliminary investigation]. Abstract of PhD thesis. Almaty, 2003, p. 11.
23. Saitbayev T.R., Zokirov B.E. Jabrlanuvchi va guvohlarni himoya qilishning huquqiy va tashkiliy muammolari [Legal and organizational problems of victim and witness protection]. *Huquq – Law*, 2000, no. 2, pp. 51–52.
24. Astanova L.A. Teoreticheskiye osnovy okhrany prav lichnosti v ugolovnom protsesse i ikh realizatsiya v pravoprimeritel'noy deyatel'nosti [Theoretical foundations of the protection of individual rights in criminal proceedings and their implementation in law enforcement activities]. Tashkent, 1997, pp. 93–94.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./NJR04326>
UDC: 343.144(045)(575.1)

SUD TERGOV AMALIYOTIDA PROTSESSUAL KELISHUVLARNI DIFFERENSIATSIYA QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Azimov Doniyor Esanovich,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi,
Jinoyat ishlari bo'yicha Quyi Chirchiq tuman sudi sudyasi
ORCID: 0000-0002-2015-9663
e-mail: azimovd6880@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola sud tergov amaliyotida protsessual kelishuvlarni differenziatsiya qilish muammolarini tahlil qilishga qaratilgan. Aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv jinoyat protsessining istalgan bosqichida va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda prokuror hamda gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'rtasida tuziladigan kelishuvdir. Muallifning fikriga ko'ra, protsessual kelishuvning mohiyatini ayblanuvchining aybiga nisbatan munosabatiga bog'liqligi, ya'ni differensial yondashuv tashkil etadi. Aybiga iqrorlik haqida kelishuvdan qat'i nazar, sudyaning ishdagi mavjud dalillarni tekshirish va ularga baho berish majburiyati jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida kelishuv tuzishga majbur qilingan aybsiz shaxslarning hukm qilinmasligini ta'minlashga qaratilgan muhim kafolatdir. Shuningdek, maqolada protsessual kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniq belgilash zaruriyati ochib berilgan va asoslantirilgan. Bundan tashqari, maqolada protsessual kelishuv shakllarini differenziatsiya qilishning mezonlari ham tahlil qilingan. Muallif protsessual kelishuvning aybiga iqrorlik haqida protsessual kelishuv, yarashuv haqida protsessual kelishuv, tergov bilan hamkorlik haqida kelishuv kabi shakllarini o'zaro qiyosiy o'rgangan. Xorijiy mamlakatlar va turli huquqiy tizimlarda sud tergov amaliyotida protsessual kelishuvlarni differenziatsiya qilish muammolari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: protsessual kelishuv, aybiga iqrorlik, dalillarni taqdim etish, differenziatsiya, shikoyat berish, sud muhokamasi predmeti.

ПРОБЛЕМЫ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ И УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ СОГЛАШЕНИЙ В СУДЕБНО-СЛЕДСТВЕННОЙ ПРАКТИКЕ

Азимов Дониёр Эсанович,
судья Куйичирчикского районного суда
по уголовным делам, самостоятельный соискатель
Высшей школы судей при Высшем судейском совете
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проанализированы проблемы разграничения процессуальных соглашений в практике судебного следствия. Мировое соглашение – это соглашение между прокурором и подозреваемым, обвиняемым или подсудимым на любой стадии уголовного судопроизводства и в иных случаях, предусмотренных законом. По мнению автора, суть процессуального соглашения заключается в отношении обвиняемого к своей вине, то есть дифференцированный подход. Обязанность судьи по исследованию и оценке имеющихся в деле доказательств, независимо

от заключения соглашения о признании вины, является важной гарантией недопустимости осуждения невиновного лица, вынужденного заключить соглашение о признании вины в результате оказанного на него физического или психологического давления. Также в статье раскрыто содержание и сделано обоснование необходимости четкого определения обстоятельств, подлежащих установлению в случаях, когда заключено процессуальное соглашение. В статье также анализируются критерии дифференциации форм процессуального соглашения. Автором произведен сравнительный анализ форм процессуального соглашения, таких как процессуальное соглашение о признании вины, процессуальное соглашение о примирении, соглашение о сотрудничестве со следствием. Исследованы проблемы дифференциации процессуальных соглашений в практике судебного расследования зарубежных стран и различных правовых систем.

Ключевые слова: процессуальное соглашение, дифференциация, обжалование, предмет судебного разбирательства.

ISSUES OF DIFFERENTIATION AND IMPROVEMENT OF PROCEDURAL AGREEMENTS IN JUDICIAL AND INVESTIGATIVE PRACTICE

Azimov Doniyor Esanovich,

Independent researcher of the Higher School of Judges,
Judge of the Kuyi Chirchik district court on criminal cases

Abstract. This article aims to analyze the problems of differentiation of procedural agreements in the practice of judicial investigation. A plea agreement is an agreement made between the prosecutor and the suspect, the accused, or the defendant at any stage of the criminal proceedings and in other cases provided by law. According to the author's opinion, the essence of the procedural agreement is its dependence on the accused's attitude towards his guilt, that is, a differential approach. Regardless of the plea agreement, the judge's obligation to examine and evaluate the available evidence in the case is an important guarantee aimed at ensuring that innocent persons forced to enter into a plea agreement as a result of physical or mental coercion are not convicted. The article also explains and substantiates the need to clearly define the circumstances that must be determined in cases where a procedural agreement has been concluded. The article also explains and substantiates the need to clearly define the circumstances that must be determined in cases where a procedural agreement has been concluded. The article also analyzes the criteria for differentiating the forms of a procedural agreement. The author made a comparative analysis of the forms of a procedural agreement, such as a procedural agreement on the admission of guilt, a procedural agreement on reconciliation, an agreement on cooperation with the investigation. The problems of differentiation of procedural agreements in the practice of judicial investigation of foreign countries and various legal systems are investigated.

Keywords: procedural agreement, guilty plea, presentation of evidence, differentiation, appeal, subject of trial.

Kirish

Hozirgi kunda jinoyat sudlov ishlarini yuritishni soddalashtirish, differentsiatsiyalash, ishlarni yuritishning dastlabki asoslarini qisqartirishga intilish barcha davlatlarga xos bo'lgan xususiyatdir. Unda ko'rib chiqilayotgan jinoyatning og'irligi, murakkabligi, ish ko'rib chiqilganidan so'ng kelib chiqadigan oqibatlarni hisobga oladigan jinoyat-sudlov

ishlarini yuritishning shakllariga asoslanish kerak [1-b. 126].

A.V. Smirnov va K.B. Kalinovskiy jinoyat sud ishlarini yuritishda kelishuvning quyidagi shakllarini ajratgan: a) ayblov va himoya vakillari o'rtasida tuziladigan, ayblovni yengillashtirish evaziga aybga iqrор bo'lishdan iborat aybga iqrорlik haqida kelishuv; b) mediatsiya kelishuv – jabrlanuvchi va

aybliligi isbotlangan hamda yetkazilgan zararni qoplashga tayyor bo'lgan huquqbuzar o'rtasida uchinchi shaxslar (odatda jamoat birlashmalari yoki mediatsiya, probatsiyaning maxsus xizmatlari yoki sudning ruxsati bilan politsiya) vositachiligida tuziladigan kelishuv; d) sud jarayonini qisqartirish haqida kelishuv [2-b. 220].

Sud ishlarini yuritish shakllarini differentsiatsiya qilish jinoyatning og'irlik darajasi, uni tergov qilish va hal qilishning murakkabligini hisobga oluvchi jinoyat sud ishlarini yuritishning eng maqbul shaklini izlash sifatida jahon tajribasiga azaldan ma'lum.

Protsessual shaklning differentsiativligi jinoyat-protsessual qonunida jinoyat ishlari yurituvining differentsiyalashgan shakllari ham mustahkamlanganligida ko'rinadi [3-b. 25].

D.K. Kanafinning fikriga ko'ra, kelishuvning aybga iqrorlik, hamkorlik, sud ishlari yuritishning soddalashtirilgan shaklini qo'llash, taraflarning yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish haqida kelishuv shakllari mavjud [4-b. 7]. Fikrimizcha, protsessual kelishuvning quyidagi shakllari farqlanadi: aybga iqrorlik, yarashuv va tergov bilan hamkorlik. Aybga iqrorlik haqida kelishuv va hamkorlik haqida kelishuvni differentsiatsiya qilish asosi uning maqsadi bo'lib, aybga iqrorlik haqida kelishuv protsessual shaklni soddalashtirishga qaratilgan bo'lsa, hamkorlik haqida kelishuv jinoyatni ochish va ishning barcha holatlarini aniqlashga qaratilgan.

Protsessual kelishuv shakllarini differentsiatsiya qilishning bosh mezon bo'lgan kelishuvning predmeti yuzasidan ilmiy adabiyotlarda turli fikrlar mavjud.

Jumladan, V.V. Gorskiy va M.V. Gorskiyning fikricha, kelishuv predmeti uning shartlarini bajarish doirasida ayblanuvchining harakatlari hisoblanadi [5-b. 113]. N.S. Kostenkoning fikriga ko'ra, kelishuv predmeti jinoiy javobgarlikni amalga oshirish shartlaridan iborat [6-b. 110–111]. M.M. Go-

lovinskiy esa kelishuv predmeti sifatida taraflarning hamkorligini amalga oshirish shartlarini muhokama qilish va gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) hamda ularning yaqinlari xavfsizligi kafolatlarini qayd qilgan [7-b. 83].

Protsessual kelishuvlarni amaliyotda qo'llash natijasida aniqlangan kamchiliklar ushbu kelishuvlarni bekor qilish zarurligini anglatmaydi, balki ularni yanada takomillashtirish, kelishuv haqida ishlarni yuritishda protsessual kafolatlarni kuchaytirish uchun asos bo'lishi zarur.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot ishi natijasida quyidagi masalalar tahlil qilindi: *birinchidan*, maqola sud tergov amaliyotida protsessual kelishuvlarni differentsiatsiya qilish muammolarini tahlil qilish; *ikkinchidan*, protsessual kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniq belgilash.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning JPKda belgilangan tartibining eng zaif tomoni mohiyat jihatidan boshqa-boshqa institut bo'lgan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv va tergov bilan hamkorlik haqida kelishuvga yagona institut sifatida yondashuvda namoyon bo'ladi. Aynan mazkur holat natijasida kelishuvning protsessual shartlariga protsessning turli bosqichlarida turlicha shartlar qo'yilgan.

Jumladan, JPKning 586¹-moddasida ko'zda tutilgan kelishuv shartlarida mavjud bo'lmasa-da, 586²-moddadagi iltimosnomada *jinoyatni tergov qilishga ko'maklashish, jinoyat natijasida olingan mol-mulkning topilishi uchun qaysi harakatlarni amalga oshirish shartligi, jinoyatga aloqador boshqa axborotni taqdim etishga doir majburiyatlari hamda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi* ko'rsatilishi belgilangan.

JPKning 586⁵-moddasida esa aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvda *sodir etilgan jinoyatni fosh etish, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovga ko'maklashganligini tasdiqlaydi va bu aynan nimada ifodalanganligini tushuntiradi.*

Ya'ni bu o'rinda jinoyatning ochilishiga faol ko'maklashganlik kelishuvning majburiy shartimi yoki yo'q, degan haqli savol tug'ildi. Agar qonun chiqaruvchi 62¹-bobda tergov bilan hamkorlikni majburiy shart sifatida ko'zda tutmagan bo'lsa, unda nima sababdan og'ir jinoyatlar kelishuv doirasiga tushishi belgilangan. Vaholanki, Kontinental Yevropa va MDHning barcha davlatlarida faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar aybga iqrorlik haqida kelishuv predmeti bo'lishi mumkinligi, og'ir jinoyatlar esa tergov bilan hamkorlik haqida kelishuv doirasiga tushishi belgilangan.

Sababi aybga iqrorlik haqida kelishuv protsessual kelishuvning eng keng qo'llanadigan turi bo'lib, tergov bilan hamkorlik haqida kelishuv faqatgina jinoyatni fosh etish va uni sodir etgan shaxslarni aniqlashning boshqa imkoniyati mavjud bo'lmagan holda, ya'ni favqulodda qo'llanishi maqsadga muvofiq. Aybga iqrorlik haqida kelishuvni og'ir jinoyatlarga nisbatan qo'llash protsessual kafolatlarning jiddiy kamayishi hisobiga sud xatolari va og'irroq oqibatlariga olib kelishi mumkin.

JPKning 586⁷-moddasiga ko'ra, sud aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvga oid ishlarni ko'rib chiqish chog'ida:

kelishuvni tuzishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining protsessual huquqlari ta'minlangan-ta'minlanmaganligi va ushbu kodeksning 586¹-moddasida ko'rsatilgan talblar bajarilgan-bajarilmaganligi;

kelishuvning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda tuzilgan-tuzilmaganligi;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuvning mohiyati, uning shartlarini tushungan-tushunmaganligi, uning oqibatlarini anglab yetgan-yetmaganligi;

sudlanuvchi kelishuvni qo'llab-quvvatlashi yoki qo'llab-quvvatlamasligi;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rgan-ko'rmaganligini aniqlaydi.

Biroq JPKning 586⁹-moddasida kelishuvni tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqarish va jinoyat ishini umumiy qoidalar bo'yicha tergov qilish yoki kelishuvni qayta ko'rib chiqish uchun prokurorga yuborish asoslari sifatida sud kelishuvda nazarda tutilgan sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovdagi jinoyatning malakalanishga taalluqli shartlarga rozi bo'lmashligi va sudlanuvchining aybdorligi borasida sudda asosli shubha tug'ilganligi ko'rsatilgan.

Ya'ni qonun chiqaruvchi JPKning 586⁷-moddasida aniqlash talab qilinmagan masalani kelishuvni tasdiqlashni rad etish asosi sifatida belgilagan.

JPKning 586⁶-moddasiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchining aybini tasdiqlash uchun yetarli hajmda dalillar to'playdi, ya'ni ishni sudga qadar yuritish bosqichida isbotlash predmeti o'zgarmaydi.

Biroq qonun chiqaruvchi tomonidan sud muhokamasi bosqichida isbotlash predmeti belgilab berilmaganligi, hukmning faqatgina kelishuv yoki aybga iqrorlik asosida chiqarilishini anglatadimi? Sudlanuvchining aybdorligi borasida sudda asosli shubha qanday mezonlar asosida aniqlanadi?

Agar qonun chiqaruvchi sudya dastlabki tergov tomonidan to'plangan yozma materiallar asosida alohida tartibda jinoyat-protsessual isbotlash faoliyatini amalga oshirishni nazarda tutgan bo'lsa, bu kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi protsessual faoliyatning qonuniyligi prezumpsiyasini anglatadimi?

Isbotlash predmeti belgilanmagan holda ayblov hukmi chiqarish tartibi nafaqat jinoyat protsessining umumiy prinsiplari, shu jumladan, dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish prinsipiga muvofiq emas.

Masalan, N.V. Redkinning fikricha, sud muhokamasining alohida tartibi jinoyat sud ishlarini yuritishda jinoyat protsessiga nomal'um bo'lgan sifat jihatdan yangi prezumpsiyalarning, shu jumladan, davlat ayblovchisi va himoyachi tomonidan o'z protsessual funksiyalarini vijdonan bajarilganligi haqida fikr, jinoyat ishida to'plangan dalillarning qonuniyligi haqida fikr, ayblanuvchiga e'lon qilingan ayblovning isbotlanganligi prezumpsiyasi, hukmning qonuniy, asosli va adolatli ekanligi prezumpsiyasi vujudga kelishiga olib keldi [8-b. 17].

Biroq, bizning fikrimizcha, A.V. Buligin mazkur prezumpsiyalar mavjudligini e'tirof etsa-da, "prezumpsiyalar sudyani jinoyat ishi materiallarini sudlanuvchining aybi isbotlanganligi masalasini hal qilish uchun o'rganish majburiyatidan ozod qilmaydi. Aksincha, qo'shimcha ravishda sudyaga mustaqil ravishda sudlanuvchining aybliligi haqida xulosaga kelish majburiyati yuklanadi. Sud muhokamasining alohida tartibida tartib soddalashtiriladi, biroq sudyaning dalillarni baholash va ish bo'yicha qaror qabul qilish yuzasidan fikrlash faoliyati soddalashtirilmaydi", degan fikrlari asosliroq [9-b.143].

Binobarin, sudyaning dalillarni tekshirish vositasidagi sodir etilgan jinoyat holatlari haqidagi bilimlarni to'plashning prezumpsiyalar vositasida almashtirilishi haqidagi fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Sababi protsessual kelishuv sudni dalillarni tekshirish majburiyatidan ozod qilmaydi, faqatgina dalillarni bevosita tekshirish emas, yozma dalillarni tekshirish tartibiga o'tiladi.

Bunday ish yurituvda sud muhokamasining asosiy prinsipi – bevositalik amal qilmaydi. Mohiyatan ayblov hukmi ayblanuvchining o'z aybiga iqrorligiga asoslanadi [10-b. 91].

Annotatsiya. Mazkur maqolada yurislingvistika, tezaurus, yuridik til, yuridik terminologiya, qonun tili, qonunchilik uslubi, yuridik tarjimashunoslik masalalari xususida fikr yuritiladi. O'zbekistonda yuridik tezaurus platformasini yaratish dolzarb vazifa ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, mustaqillik yillarida yuridik til va yuridik terminologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilinadi, bu sohadagi muammolar aniqlanadi. Yuridik terminlarning turli-tuman shakllarda qo'llanishi yuridik amaliyotda salbiy holatlarga olib kelmoqda, chunki bunday yuridik terminlarda semantik jihatdan o'ziga xos ma'no nozikliklari mavjud bo'lib, ular yuridik matnda berilganda, bu ma'no nozikliklari yana ham kuchayib, turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlarning mutaxassislar va fuqarolar tomonidan turlicha tushunilishi, sharhlanishiga sabab bo'lmoqda. Amaliyotda ijro jarayoniga ham ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa yuridik tilda mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat hisoblanadi. Chunki yuridik hujjatlar o'ta aniq va ravon ifodalanishi kerak. Ularni o'qigan shaxs turli ma'nolarni tushunmasdan, faqat va faqat qonunshunos nazarda tutgan birgina ma'noni tushunishi lozim. O'zbekistonda davlat tilida qonun ijodkorligi va qonun tarjimashunosligi masalalari, bu sohadagi xorijiy va milliy tajriba, qonun tarjimashunosligidagi muammolar tahlil qilingan va ularni hal etish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: yurislingvistika, tezaurus, yuridik til, yuridik terminologiya, qonun tili, qonunchilik uslubi, yuridik tarjimashunoslik, termin, lug'at, tezaurus lug'at.

СОЗДАНИЕ ТЕЗАУРУСА ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКИСТАНЕ – АКТУАЛЬНАЯ ЗАДАЧА!

Кучимов Шухрат Норкизилович,

доктор филологических наук,

и. о. профессора Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы юридической лингвистики, тезауруса, юридического языка, юридической терминологии, юридического языка, юридического стиля и юридического переводоведения. Подчеркивается, что создание платформы правового тезауруса в Узбекистане является актуальной задачей. Также анализируются научно-исследовательские работы, проведенные в области юридического языка и юридической терминологии в годы независимости, выявляются проблемы в данной сфере. Использование юридических терминов в разных формах приводит к негативным ситуациям в юридической практике, поскольку такие юридические термины имеют семантически специфические смысловые тонкости, а когда они приведены в юридическом тексте, то эти смысловые

нюансы становятся еще более значительны. Это вызывает разное понимание и толкование нормативных правовых документов специалистами и гражданами, негативно сказывается на процессе реализации на практике, что абсолютно неприемлемо в юридическом аспекте. Юридические документы должны быть выражены очень ясно и четко, а человек, который их читает, должен понимать только то значение, подразумеваемое юристом, не смешивая с другими понятиями. Были проанализированы вопросы правотворчества на государственном языке и правоведения в Узбекистане, зарубежный и отечественный опыт в этой сфере, проблемы правоведения и даны научные предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: юридическая лингвистика, тезаурус, юридический язык, юридическая терминология, юридический стиль, юридическое переводоведение, термин, словарь, тезаурус словарь.

CREATION OF THE THESAURUS OF LEGAL TERMS IN UZBEKISTAN – AN URGENT TASK!

Kuchimov Shukhrat Norkizilovich,

Acting Professor at Tashkent State University of Law,
Doctor of Philological Sciences

Abstract. This article deals with the issues of legal linguistics, thesaurus, legal language, legal terminology, language of laws, legal style and legal translation. It is emphasized that the creation of a legal thesaurus platform in Uzbekistan is an urgent task. The research works carried out in the field of legal language and legal terminology during the years of independence is also analyzed and the problems in this sphere are identified. The use of legal terms in different forms leads to negative situations in legal practice, because such legal terms have semantically specific semantic subtleties, and when they are given in a legal text, these semantic subtleties become even more significant. This causes different understandings and interpretations of normative legal documents by specialists and citizens and negatively affects the process of implementation in practice, which is absolutely unacceptable in the legal aspect. Legal documents should be expressed very clearly and distinctly, and the person who reads them should understand only the meaning implied by the lawyer, not mixed with other concepts. The issues of law-making in the state language and jurisprudence in Uzbekistan, foreign and domestic experience in this sphere, and problems of jurisprudence have been analyzed and scientific proposals and recommendations for their solution have been given.

Keywords: legal linguistics, thesaurus, legal language, legal terminology, language of laws, legal style, legal translation, term, dictionary, thesaurus dictionary.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot davrining yangi renessans davriga qadam qo'ydi. O'zbekiston xalqi o'z milliy rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilib, inson huquqlari va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat qurmoqda.

Bu esa, birinchi navbatda, huquq va huquqiy fanlarning rivojini taqozo etadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. Mirziyoyevning parlament va O'zbekiston xalqiga 2023-yil uchun murojaatnomasida ta'kidlangan "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan g'oyani huquqiy amalga oshirish, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, "qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat" prinsipini yo'lga qo'yish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli ishlab chiqish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda milliy yuridik til va

yuridik terminologiya o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar

Binobarin, yuridik terminologiya huquqshunoslik fanini o'rganish, huquqni tushunish va uni amaliyotda qo'llash uchun "kalit" hisoblanadi. Bu "kalit" qanchalik qulay va samarali bo'lsa, huquq shunchalik rivojlanadi. Yoki aksincha bo'lsa, huquqiy amaliyotda ma'lum bir muammolarni yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqqan holda, mustaqillik yillarida huquqshunos va tilshunos olimlar tomonidan o'zbek yuridik tili va terminologiyasi bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi: 10 dan ortiq dissertatsiyalar himoya qilindi [1–11], 30 ga yaqin o'quv qo'llanma va monografiyalar nashr etildi [12–19]. Huquq sohasida ko'pgina izohli va tarjima lug'atlari (1993-, 1999-, 2002-, 2003-, 2009-, 2011-, 2014-, 2020-yillar) yaratildi [20–26], O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi nashr etildi, Adliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Milliy huquqiy internet portali (huquqiportal.uz), Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari va O'RFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti xodimlari tomonidan <http://yurislingvistika.ukit.me/> veb-sahifasi ishga tushirildi.

Tadqiqot natijalari

Shunga qaramay, bugungi kunda amaliyotda yuridik terminlarni tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) sohasida ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Ularni quyidagi 6 guruhga umumlashtirish mumkin:

1. Yuridik terminlarda shakl va mazmunning o'zaro nomutanosibligi muammosi.
2. Bir huquqiy tushunchaning turli nomlar bilan yuritilishi muammosi (yuridik terminlarda sinonimiya muammosi).
3. Bir yuridik terminning xilma-xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalashi muammosi (yuridik terminlarda omonimiya va polisemiya muammosi).
4. Mavjud yuridik terminlarni noto'g'ri qo'llash holatlari.

5. Yuridik terminlarning o'rniga eskirgan yoki shevaga xos so'zlarni ishlatish holatlari.

Yuridik terminlarda shakl va mazmunning o'zaro nomutanosibligi muammosi o'zbek yuridik tilida juda ham keng tarqalgan. Jumladan, rus tilidagi *гражданский истец*, *гражданский иск*, *гражданский ответчик* birikmalari o'zbek tilida istiqbolga qadar *grajdanlik da'vogari*, *grajdanlik da'vosi*, *grajdanlik javobgari* tarzida ishlatib kelindi. Keyinchalik ularni o'zbekchallashtirish maqsadida *fuqarolik da'vogari*, *fuqarolik da'vosi*, *fuqarolik javobgari* tarzida o'zgartirildi.

O'zbekchallashtirilgan bu birikmalar ham shu huquqiy tushunchaning mazmunini to'la oqlamas edi. Chunki *гражданский истец* deyilganda, da'vo qilayotgan shaxs fuqaro sifatida o'z huquqini talab qilishi nazarda tutiladi. *Fuqarolik da'vogari* birikmasi esa fuqaro bo'lish uchun da'vogarlik qilayotgan shaxs (olimlik da'vogari kabi) tushuniladi. Shuning uchun Jinoyat-protsessual kodeksida *fuqaroviy da'vo*, *fuqaroviy da'vogar*, *fuqaroviy javobgar* tarzida ishlatildi.

Bir huquqiy tushuncha ayrim normativ-huquqiy va boshqa yuridik hujjatlarda turli nomlar bilan yuritilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz: *исполнительная власть* – *ijro hokimiyati*, *ijro etish hokimiyati*, *ijro etuvchi hokimiyat*; *показание* – *ko'rsatuv*, *ko'rsatma*, *ko'rgazma*, *ko'rgazuv*, *guvohlik*, *so'roq berish*; *умышленно* – *bilib turib*, *bilgan holda*, *ataylab*, *qasddan*; *уголовное дело* – *jinoiy ishi*, *jinoiy ish*; *исковое заявление* – *da'vo arizasi*, *da'vo ariza*, *da'vo-ariza*; *административное принуждение* – *fuqarolik majburlov*, *fuqarolik majburlash*, *fuqarolik majbur etish* kabilar.

Yuridik terminlarning bunday turli-tuman shakllarda qo'llanishi yuridik amaliyotda salbiy holatlarga olib kelmoqda, chunki bunday yuridik terminlarda semantik jihatdan o'ziga xos ma'no nozikliklari mavjud bo'lib, ular yuridik matnda berilganda, bu ma'no nozikliklari yana ham kuchayib, turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Bu esa normativ-huquqiy

hujjatlarning mutaxassislar va fuqarolar tomonidan turlicha tushunilishi, sharhlanishiga sabab bo'lmoqda. Amaliyotda ijro jarayoniga ham ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu esa yuridik tilda mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat hisoblanadi. Chunki yuridik hujjatlar o'ta aniq va ravon ifodalanishi kerak. Ularni o'qigan shaxs turli ma'nolarni tushunmasdan, faqat va faqat qonunshunos nazarda tutgan birgina ma'noni tushunishi lozim. Qonunni hamma o'zicha tushunadigan bo'lsa, u mamlakatda huquqiy tartibotni ta'minlamasdan, aksincha, boshboshdoqlikni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda amaliyotda bir yuridik terminning xilma-xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalashi muammosi (*yuridik terminlarda omonimiya va polisemiya muammosi*) mavjud. Hozirgi paytda ayrim yuridik terminlarning leksik ma'nosiga e'tibor berilsa, ular o'zlarining asosiy ma'nosi bilan birga shu tushunchaga mazmun jihatdan yaqin bo'lgan ma'nolarni ham ifoda etadi. Masalan, rus tilidagi *личный досмотр* termini ikki xil shaklda, ya'ni *shaxsni ko'rikdan o'tkazish*, *shaxsiy ko'rikdan o'tkazish* shaklida ishlatiladi. Bu, birinchidan, huquqiy normalarning xilma-xil shakllari, ya'ni sinonimiyasining vujudga kelishiga sabab bo'lsa, ikkinchidan, *shaxsiy ko'rikdan o'tkazish* deb berilishi xato hisoblanadi. Chunki rus tilidagi *личный досмотр* terminini *shaxsni ko'rikdan o'tkazish* birikmasi to'la ifodalaydi, *shaxsiy ko'rikdan o'tkazish* esa bu huquqiy tushunchaning mazmunini ochib bera olmaydi. Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish termini quyidagi ikki ma'noni ifodalaydi: 1) *bir mas'ul shaxs tomonidan bir yoki bir necha kishining ko'rikdan o'tkazilishi*; 2) *bir nechta mas'ul shaxs tomonidan faqat bir kishining ko'rikdan o'tkazilishi*.

Mavjud yuridik terminlarni noto'g'ri qo'llash holatlari uchramoqda. Hozirda ayrim qonunlarimizda *qonunchilik* va *qonuniylik* atamalarining ma'nolari farqlanmagan holat-

da ishlatilmoqda. Xo'jalik-protsessual kodeksining 3-moddasiga e'tibor bering:

Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

1) ...;

2) *iqtisodiyot sohasida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish*.

O'z-o'zidan ko'rinadiki, xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari qonunchilikni emas, balki qonuniylikni mustahkamlashdir.

Mazkur kodeksning rus tilidagi variantida bu so'z *qonuniylik* (*законность*) tarzida ishlatilib, to'g'ri qo'llangan:

2) *содействие укреплению законности и предупреждению правонарушений в экономической сфере*.

Bundan tashqari, ayrim yuridik terminlarning noto'g'ri shakllarda berilishi fuqarolar huquqiy ongi va madaniyati o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fikrimizning dalili sifatida hozirda ijtimoiy hayotimizda uchrab turadigan bir misolni keltirib o'tamiz. Jumladan, huquqshunos bo'lmagan fuqarolar O'zbekiston Respublikasiga fuqaro bo'lib kirish, uning shartlari va qonun-qoidalari bilan tanishmoqchi bo'lsa, hech ikkilanmay, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi-ga murojaat qiladi. Biroq ular o'z savollariga javobni Fuqarolik kodeksidan topa olmaydi. Chunki O'zbekiston fuqaroligini olish shartlari, uning to'xtatilishi tartib va qoidalari Fuqarolik kodeksida emas, "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunda aks etgan. *Fuqarolik kodeksi* termini qonunning mazmun va mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. U rus tilidagi *гражданский кодекс* terminidan mazmunan emas, so'zmaso'z tarjima qilingan (aslida, *fuqaroviy kodeks* deb ishlatilishi zarur).

Yuridik matnda yuridik terminlarning o'rniga eskirgan va shevaga xos so'zlarni ishlatish holatlari uchramoqda. Qonun matnlaridagi huquqiy normalarning fuqarolar tomonidan tez va aniq tushunilishini ta'minlash maqsadida, ta'kidlanganidek, eskirgan

va shevaga xos so'zlar ishlatilmaydi. Bunday so'zlar huquqiy normalarni tushunishni qiyinlashtiradi. Lekin qonun matnlarida ayrim holatlarda eskirgan va shevaga xos so'zlar ishlatilayotganining guvohi bo'lamiz. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 72-moddasida shunday deyiladi: "...sifatli yerosti suvlari hosil bo'ladigan tegrada yerosti suvlarining ifloslanishi..."

Matnda *tegra* so'zi noo'rin qo'llangan. *Tegra* so'zi, odatda, *tevarak*, *atrof*, ayrim o'rinlarda *maydon* ma'nosida ishlatilib, u, asosan, badiiy nutqda, ayniqsa, she'riyatda ishlatiladi. Lekin bu so'zning qonun matnida berilishi maqsadga muvofiq emas. Chunki, birinchidan, *tegra* so'zi rasmiy nutqqa xos emas, ikkinchidan, *tegra* so'zini ko'pchilik tushunmaydi. Bu esa huquqiy normani tushunishni qiyinlashtiradi. Bu so'zning o'rniga *maydon* so'zi ishlatilib, yuqoridagi huquqiy norma quyidagicha ifodalansa, fuqarolar tomonidan osonroq tushuniladi: "...sifatli yerosti suvlari hosil bo'ladigan maydonda yerosti suvlarining ifloslanishi..."

Qonun matnlarida so'z ishlatishda jiddiy nuqsonlar ham uchramoqda. Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 290-moddasida shunday deyiladi:

"Huquqbuzarlarni ushlab, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish yoki ashyolarni ko'zdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo'lmish ashyo va hujjatlar ushbu kodeksning 287- va 289-moddalarida nazarda tutilgan organlarning mansabdor shaxslari tomonidan olib qo'yiladi".

Matndagi *"huquqbuzarlikni sodir etish quroli"* jumlasidagi *quroli* so'zi o'z o'rnida ishlatilmagan. Chunki *"qurol"* deyilganda, miltiq, avtomat, to'pponcha kabilar tushuniladi. Agar shaxs *qurol* (miltiq, avtomat, to'pponcha) bilan huquqbuzarlik sodir etsa, ma'muriy emas, jinoiy javobgarlikka tortiladi. *"Huquqbuzarlikni sodir etish quroli"* deb ishlatish mantiqqa zid. Shuning uchun *"huquqbuzarlikni sodir etish vositasi"* deb ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Normativ-huquqiy hujjat matniga qo'yiladigan eng muhim talab – qonun tilining eng yuqori (maksimal) darajada aniqlikka intilishidir. Lekin bu jihatdan yuridik til o'ziga xos xususiyatga ega.

Badiiy va publitsistik (roman, hikoya, she'r kabilarda) uslublarda matn o'ta aniq tuzilmasa ham, uni qayta-qayta o'qish jarayonida muallif aytmoqchi bo'lgan ma'noni uqib olish mumkin. Bu jamiyatda unchalik ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Lekin huquqiy normalarni ifoda etishda bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki yuridik matn aniq tuzilmasa, har kim qonun matnini o'zicha tushunadi va o'zi tushunganicha ish tutadi. Qonun tilida, o'rni kelganda, hatto arzimagan bitta vergul insonning hayot-mamotini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan qonun tiliga qo'yiladigan eng muhim va asosiy talab huquqiy normalarning o'ta aniq va ravshan tuzilishidir.

So'nggi yillarda qonunlarimiz matnida aniqlikni ta'minlash maqsadida Oliy Majlis tomonidan ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan to shu kunga qadar Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyati tufayli 3000 dan ziyod qonunlar qabul qilindi, jamiyatning asosiy huquqiy poydevori yaratildi. Qabul qilingan qonunlarning salmog'i nafaqat ularning soni va yuridik kuchi, balki bu qonun hujjatlarining sifati, jahon standartlari darajasiga javob berishi, xususan, o'zining soddada ifoda usuli va unga amal qiluvchilar manfaatidan kelib chiqqan holda aniqlik darajasi bilan ham o'lchanadi. Agar qonun hujjatlari ni shu nuqtayi nazardan kuzatsangiz, ayrim qonun hujjatlarida huquqiy normalarni ifodalashda fikrlarning aniq va ravshanligi yetishmayotganining guvohi bo'lasiz. Fikrimizning dalili sifatida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdan namunalar keltirib o'tamiz.

18-modda. Zaruriy mudofaa

Ushbu kodeksda yoki ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan,

lekin zaruriy mudofaa holatida, ya'ni shaxsning yoki mudofaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

19-modda. Oxirgi zarurat

Ushbu kodeksda yoki boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlariga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid etayotgan xavfni, basharti bu xavfni boshqa choralar bilan bartaraf etib bo'lmasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

Bu moddalarni tushunish birmuncha qiyin. Yuristlar uchun bu qiyin emasdir, lekin oddiy fuqarolar uchun uni tushunib, ijtimoiy hayotda qo'llash bir qancha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Qolaversa, qonun faqat huquqshunoslar uchun yaratilmaydi. U shu jamiyatdagi barcha fuqarolarning ma'lum bir tartib-qoidalariga qat'iy amal qilib yashashi uchun ishlab chiqiladi. Agar oddiy fuqarolar bu qonunni tushunmasalar, qanday qilib qonunga amal qiladilar. Endi shu moddalarning rus tilidagi shakliga e'tibor bering.

Статья 18. Необходимая оборона

Не являются административным правонарушением действия, предусмотренные настоящим Кодексом или другими нормативными актами, устанавливающими административную ответственность, но совершенные в состоянии необходимой обороны, то есть при защите личности или прав обороняющегося либо другого лица, интересов общества и госу-

дарства от противоправного посягательства путем причинения посягающему вреда, если при этом не было допущено превышения пределов необходимой обороны.

Статья 19. Крайняя необходимость

Не являются административным правонарушением действия, предусмотренные настоящим Кодексом или другими нормативными актами, причинившие вред правам и охраняемым законом интересам, совершенные в состоянии крайней необходимости, то есть для устранения опасности, угрожавшей личности или правам данного лица либо других граждан, интересам общества или государства, если опасность при сложившихся обстоятельствах не могла быть устранена другими средствами и если причиненный вред является менее значительным, чем предотвращенный.

Ko'rinib turibdiki, bu moddalarning o'zbek tilidagi shakliga nisbatan rus tilidagi shakli birmuncha aniq va ravon tayyorlangan, fikrlar sodda ifodalangan. Bu esa uni qo'llovchilar uchun yengillik beradi. O'z navbatida, shu tilda fikrlovchi va so'zlashuvchilarning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati ham yuqori bo'lishi uchun muhim omil bo'ladi.

Xo'sh, nima uchun shunday? Bizning ona tilimiz – o'zbek tili bunday murakkab huquqiy normalarni o'ta aniq va ravon jaranglatishga qodir emasmi?! Yo'q, gap bunda emas. O'zbek tili har qanday murakkab huquqiy normani o'ta sodda va aniq, jarangdor ifodalashga qodir. Gap shundaki, hozir ham ko'pgina qonunlarimiz dastlab rus tilida tayyorlanib, so'ngra o'zbek tiliga o'girilmoqda.

Ta'kidlanganidek, sobiq Ittifoq davrida qonunlarni tarjima qilish jarayonida shunday prinsip mavjud ediki, agar rus tilidagi bir moddada qancha gap bo'lsa, o'zbek tilida ham shuncha gap bilan ifodalash shart bo'lgan. Masalan, biror mazmun jihatidan ancha murakkab bo'lgan huquqiy norma rus tilida

bitta gap orqali ifodalangan bo'lsa, o'zbek tilida ham bitta gap bilan ifodalanishi kerak edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, o'z milliy davlatchiligini shakllantirayotgan bugungi kunda ham qonunlarni tarjima qilishda sobiq Ittifoq tomonidan belgilab berilgan prinsiplarga amal qilinmoqda. Yuqoridagi modda ham shu prinsipga asoslangan holda tarjima qilingan. Agar e'tibor bersangiz, rus tilidagi ikkala moddaning har biri bitta gapdan tashkil topgan. Tarjimon o'zbek tilida ham bitta gap orqali berishga harakat qilgan. O'zbek tilidagi matn ko'proq rus tilining grammatik qonun-qoidalarini asosida berilgan.

Aslida, bunday murakkab huquqiy normalarni ijodiy yondashib, o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda, bir necha gaplarga bo'lib, quyidagicha soddagina ifodalash mumkin edi:

18-modda. Zaruriy mudofaa

Ushbu kodeksda yoki ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilovchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

Zaruriy mudofaa deganda, shaxs o'zining yoki mudofaalanuvchi boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilishi tushuniladi. Bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketmaslik lozim.

19-modda. Oxirgi zarurat

Ushbu kodeksda yoki boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, huquq va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

Oxirgi zarurat deganda, shaxs o'zining yoki boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid solayotgan xavfni bartaraf etish uchun sodir etgan harakatlari tushuniladi. Bunda xavfni boshqa choralar bilan bartaraf etib bo'lmasligi hamda yetka-

zilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lishi shart.

O'zbek tiliga o'girilgan ayrim qonunlarimizning tili tushunilishi qiyin bo'lishi bilan birga tarjima jarayonida hatto ayrim qo'pol xatoliklar ham yuz bermoqda. Fikrimizning dalili sifatida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Ma'muriy javobgarlik kodeksining 75-moddasi *Suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarini buzish* deb nomlanadi.

Mantiqan *Suvlarning davlat hisobini yuritish* deyilishi noto'g'ridir. Chunki suvlar qanday qilib davlat hisobini yuritadi? Bu modda shu kodeksning rus tilidagi shaklidan noto'g'ri tarjima qilingan. Unda shunday deyiladi:

Статья 75. Нарушение правил ведения государственного учета вод

Ko'rinadiki, bu modda rus tilida aniq va tushunarli ifodalangan. Shu moddani o'zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin edi:

75-modda. Davlatning suv hisobini yuritish qoidalarini buzish

Tarjima jarayonida gaplar tarkibidagi har bir jumla va so'zning qaysi bo'lakka bog'lanib, uni to'ldirib, izohlab yoki aniqlab kelayotganiga alohida e'tibor qaratish zarur. Boshqa gap bo'lagiga bog'langan so'z va jumlaning boshqa bir gap bo'lagiga bog'lash tarjimaning noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Jinoyat kodeksining 14-moddasidagi quyidagi gapga e'tibor bering:

Ushbu kodeks bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Bu matndagi jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi jumlasiga e'tibor bering. Bu jumlaning o'qib, bundan chiqdi jazo qo'llanmaydigan jinoyat ham bor ekan-da, degan savol tug'ilishi mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki, jinoyat bo'lganidan keyin albatta jazo qo'llanadi. Gap shundaki, bu modda rus tilidagi shaklidan noto'g'ri tarjima qilingan. E'tibor bering:

Статья 14. Понятие преступления

Преступлением признается виновное общественно опасное деяние (действие или бездействие), запрещенное настоящим Кодексом под угрозой применения наказания.

Ko'rinadiki, *под угрозой применения наказания* jumlası *преступления* so'zini emas, balki *общественно опасное деяние* atamasini izohlab kelyapti. O'zbek tilidagi shaklida esa *под угрозой применения наказания* jumlası *jinoyat* so'zi oldida berilib, qo'pol xatolikka yo'l qo'yilgan.

Fuqarolik kodeksi 385-moddasining rus va o'zbek tillaridagi quyidagi variantlariga e'tibor bering:

В случае изменения или расторжения договора обязательства считаются измененными или прекращенными с момента заключения соглашения сторон об изменении или о расторжении договора, если иное не вытекает из соглашения или характера изменения договора, а при изменении или расторжении договора в судебном порядке – с момента вступления в законную силу решения суда об изменении или расторжении договора.

Shartnoma o'zgartirilgan yoki bekor qilingan taqdirda, agar kelishuvdan yoki shartnomani o'zgartirish xususiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, taraflar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, shartnoma sud tartibida o'zgartirilgan yoki bekor qilinganida esa sudning shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab majburiyatlar o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

Agar bu gaplar so'zma-so'z bir-biriga taqqoslansa, rus tilidagi *с момента заключения соглашения сторон об изменении или о расторжении договора* jumalari o'zbek tiliga taraflar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab deb tarjima qilinganini ko'rish mumkin. Ya'ni *заключения*

соглашения birikmasi o'zbek tiliga od-diygina qilib *kelishish* deb tarjima qilingan. Ma'lumki, *заключения соглашения* va *kelishish* bir xil ma'noni anglatmaydi. *Заключения соглашения* – biror masala bo'yicha tuzilgan va notarius yoki biror vakolatli idora tomonidan tasdiqlangan maxsus yuridik hujjat ma'nosini beradi. *Kelishish* esa yuridik kuchga ega bo'lgan maxsus bitim tuzish ma'nosini bermasdan, balki shunchaki og'zaki kelishuv ma'nosini ifodalaydi.

Tarjimon tomonidan arziyas deb hisoblangan bir so'zning tushirib qoldirilishi amaliyotda ko'pdan ko'p tushunmovchiliklarga olib keladi. Jumladan, amaliyotda yuqoridagi huquqiy normaning rus tilidagi shaklini qo'llayotgan fuqaro maxsus bitim tuzadi. Aynan shu moddaning o'zbek tilidagi shaklini qo'llayotgan fuqaro esa maxsus bitim tuzmasdan, shunchaki og'zaki kelishibgina qo'ya qoladi.

Huquqiy normalarni so'zma-so'z emas, balki mazmunan tarjima qilishga, bunda har bir so'zning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda to'g'ri ishlatishga alohida e'tibor bilan yondashish zarur. Jinoyat kodeksining 23-moddasiga e'tibor bering:

Agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Bu moddadagi qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa jumlası shu qonunning rus tilidagi *закон связывает повышенную ответственность* birikmasidan so'zma-so'z tarjimadir. Aslida, shu jumlanı o'zbek tilida *qonunda qattiqroq javobgarlik ko'zda tutilgan bo'lsa* deb ifodalash mumkin edi.

Xulosalar

Qonunlar to'la mukammal bo'lishi uchun qonun loyihalari, avvalambor, davlat tilida tayyorlanishi, shu tilda muhokamadan o'ti-

shi, so'ngra lozim bo'lsa, boshqa tillarga tarjima qilinishi zarur. Chunki tarjima – bari-bir tarjima. Ming mohir mutarjimlar tarjima qilganda ham holat yanada sezilib qoladi. Shu bois qonun loyihasi, avvalambor, shu davlat tilida tayyorlanib, shu tilda keng xalq muhokamasidan o'tishi kerak. Ana shundagina qonunlar har jihatdan puxta va pishiq tayyorlanadi, amaliyotda ko'zlangan natijalar beradi.

Bizning nazarimizda, bunday muam-molarning paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

1. Bugungi kunda huquqshunos va tilshunos olimlarimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri – *yuridik terminlar tizimi-ni tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) va shu asosda mam-lakatimizda barcha huquq-sudlov tizimi uchun yuridik terminlar tezaurusining yagona elektron platformasini ishlab chi-qish maqsadga muvofiq*. Shu bois hozirda Toshkent davlat yuridik universiteti pro-fessor-o'qituvchilari tomonidan "Yuridik terminlar tezaurusi platformasi"ni ishlab chiqish bo'yicha maxsus loyiha amalga oshirilmoqda. Bunda terminologik tamoyil-lar va me'yorlarga qat'iy amal qilgan holda mukammal darajadagi tezaurus yaratishga harakat qilinmoqda.

2. Yuqoridagilarni e'tiborga olib hamda ilg'or xorijiy yuridik oliy o'quv yurtlarining tajribalaridan kelib chiqqan holda bugun-gi kunda yuridik kadrlar tayyorlash tizimi-da bo'lajak huquqshunoslarning yuridik til, yuridik nutq, yuridik terminlar va ularni to'g'ri qo'llash qoidalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, rivoj-langan mamlakatlar ilm-fanida tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan Yurislingvistika fanini o'quv dasturiga kiritish zarur deb hi-soblaymiz.

3. Yuridik ilmiy sohada huquqshunos va tilshunos olimlar hamkorligida Yurislingvis-tika, milliy yuridik til va yuridik nutq bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlariga ustuvor soha

sifatida qaralishi hamda aynan shu sohada ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Bu esa amaliyotda quyidagi masalalarning hal etilishiga xizmat qiladi:

birinchidan, Oliy Majlis deputatlari, Se-nat a'zolarining qonun ijodkorligi faoli-yatida qonun loyihalarining sifat jihatdan takomillashuviga xizmat qiladi. *Mana shu jihatdan yuridik terminlar tezaurusi mam-lakatimiz qonun ijodkorligi jarayoniga, qonun loyihalarining har tomonlama mu-kammal tuzilishiga yaqindan amaliy yordam beradi;*

ikkinchidan, respublikamizda barcha huquqni muhofaza qilish organlari (adliya, ichki ishlar idoralari, davlat xavfsizlik xiz-mati, prokuratura, sud idoralari va boshqa-lar) xodimlari uchun yuridik terminlarning yagona elektron platformasi ishlab chiqiladi. *Natijada shu sohada ishlatiladigan barcha hujjatlarning yuridik texnika talablari dara-jasida aniq, ravon va sifatli ishlab chiqilishiga erishiladi;*

uchinchidan, mazkur yuridik tezaurusda barcha yuridik terminlarning ilmiy izohi ish-lab chiqiladi. *Bu esa mamlakatimizdagi bar-cha fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati oshishiga, ularning norma-tiv-huquqiy va huquq-sudlov hujjatlarini tez va oson tushunishiga xizmat qiladi, amaliyotda fuqarolarning o'z huquqlarini qo'llashi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi;*

to'rtinchidan, bugungi kunda xorijiy tillardan o'zbek tiliga har kim o'z bilgani-cha xorijiy yuridik terminlarni o'zlashtirib, o'z faoliyatida o'rinli va o'rinsiz ravishda qo'llamoqda. Lekin ularni qaysi mezonlar asosida o'zlashtirish qoidolari ilmiy asos-da ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur lo-yihada O'RFA O'zbek tili, adabiyoti va folk-lori instituti mutaxassislari bilan kelishgan holda, xorijiy yuridik terminlarni o'zbek tiliga o'zlashtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi, aniq ilmiy taklif va tavsiyalar be-riladi.

REFERENCES

1. Kasymova M. Strukturno-sistemnyye osobennosti yuridicheskoy terminologii uzbekskogo yazyka [Structural and system features of legal terminology of the Uzbek language]. PhD thesis. Tashkent, 1986.
2. Boyko L.M. Zakonodatel'naya tekhnika (teoriya i praktika) [Legislative technique (theory and practice)]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 1984.
3. Karimova L.A. Pravovyye i нравstvennyye aspekty zakonov o yazyke [Legal and Moral Aspects of Language Laws]. PhD thesis. Tashkent, 1991.
4. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili [The language of the laws of the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 1995.
5. G'ulomova G. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqlool davri taraqqiyoti [Development of Uzbek legal terminology during the period of independence]. PhD thesis. Tashkent, 2006.
6. Tursunova O.F. O'zbek davlatchiligi tarixida qo'llanilgan huquqiy terminlar lisoniy tadqiqi [Linguistic study of legal terms used in the history of Uzbek statehood]. PhD thesis. Tashkent, 2007.
7. Berdiyrov SH.N. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik texnikasi (nazariya, metodologiya, amaliyot) [Legislative technique (theory, methodology, practice) in the conditions of a bicameral parliament]. PhD thesis. Tashkent, 2009.
8. Hayitov X. Qonun ijodkorligida yuridik lingvistikaning o'rni va ahamiyati [The role and importance of legal linguistics in law-making]. PhD thesis. Tashkent, 2011.
9. Mirzayev R.I. O'zbekiston Respublikasida davlat tilining huquqiy maqomi [Legal status of the state language in the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 2012.
10. Mo'yidinov Q. O'zbek tili sud nutqi leksikasi [Uzbek Lecca Dictionary]. PhD thesis. Tashkent, 2019.
11. Ko'chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari [Scientific and theoretical problems of expressing legal norms in Uzbek]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2004.
12. Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi [Legal language and law speech]. Tashkent, Adolat Publ., 1994.
13. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi (til, uslub, huquqiy atamashunoslik) [Legisloral techniques in the Republic of Uzbekistan (language, style, legal threaten)]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1996.
14. Saidov A., Saidova L., Ko'chimov Sh., Qosimova M. Qonun va til [Law and language]. Tashkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi Publ., 1997.
15. Davlat tili: muammolar va yechimlar [State language: problems and solutions]. Ed. A.Kh. Saidov. Tashkent, National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, 1999.
16. Saidov A., Ko'chimov Sh. Qonunchilik texnikasi asoslari [Legislative techniques]. Tashkent, Adolat Publ., 2001.

Sharipova Xilola Rustamovnaning “Xalqaro texnologiyalar transferining huquqiy tartibga solinishi” mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi himoyasi natijalari

TDYU tayanch doktoranti X.R. Sharipovanning “Xalqaro texnologiyalar transferining huquqiy tartibga solinishi” mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi yuridik fanlar doktori, professor I.R. Rustambekovning ilmiy rahbarligi ostida tayyorlangan bo‘lib, mamlakatimiz uchun nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan xalqaro texnologiyalar transferini huquqiy jihatdan tartibga solish masalasining har tomonlama tadqiqiga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyada xalqaro texnologiyalar transferini huquqiy tartibga solishga oid normalarni takomillashtirish bilan bog‘liq bir qancha masalalar o‘rganilgan, tahlil qilingan, ilmiy nazariy xulosalar hamda qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar berilgan. Mazkur ilmiy ishni yozishda tadqiqotchi AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Shvetsiya, Shveysariya kabi rivojlangan davlatlarning sohaga oid qonunchiligi, sohaga oid xalqaro konvensiya va bitimlar o‘rganilgan va ulardan milliy qonunchilikni takomillashtirishda foydalanilgan.

Dissertatsiyada texnologiyalar transferi doirasidagi tahlillar asosida texnologiya transferi 4 ta guruhga ajratilib, ularning orasida muvofiqlik modeli, tarqatish modeli, bilimlardan foydalanish modeli va aloqa modeli keng tarqalgani, bulardan tashqari tashkilotni o‘rganish bilan bog‘liq modellar, bilimga asoslangan ko‘rinishga oid modellar zamonaviy modellar hisoblanishi hamda ularning ichidan eng maqbuli bilimga asoslangan ko‘rinishga oid modellar va uning tarkibiga kiruvchi bilimlarni boshqarish modeli hisoblanishi ko‘rsatib berilgan; intellektual mulk huquqlari sohasidagi global siyosatning asosiy tendensiyasi butun dunyoda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish darajasini uyg‘unlashtirish ekanligini hisobga olib, Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish maqsadida TRIPS bitimini ratifikatsiya qilish zarurati asoslab berilgan; texnologiyalar transferi doirasida mavjud shartnomalar va ularning xususiyatlari tahlil qilinib, xalqaro texnologiyalar transferi bo‘yicha yagona namunaviy shartnoma ishlab chiqilishi va amaliyotga kiritilishi zarurati ko‘rsatib berilgan; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi nizomni qonun osti hujjat doirasida tasdiqlash zarurligi asoslab berilgan; O‘zbekiston Respublikasi davlat innovatsion siyosatining markaziy vazifalaridan biri mulkchilikning barcha shakllaridagi sanoat korxonalariga yangi texnologiyalarni o‘tkazishni rag‘batlantirish, tegishli huquqiy normalarni yaratish orqali texnologiyalar transferini moliyalashtirish jarayoni, shuningdek, xususiy sektorni ishlab chiqarishga keng jalb etish bo‘lishi isbotlab berilgan; mamlakatni rivojlantirishning joriy siyosati va yo‘nalishini takomillashtirishda raqamlashtirish muhim ahamiyatli ekanligi, bunda milliy konsepsiyani rivojlantirishda “Raqamli Yevropa” dasturidan foydalanishi maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan; davlat tomonidan tartibga solishni rivojlantirish va texnologiyalarni uzatish milliy tizimining faoliyati doirasida virtual korporatsiyalar, intellektual tashkilotlar va bozor-intellektual korxonalar uchun huquqiy tuzilmalarni yaratish zarurati ko‘rsatib berilgan; raqamli iqtisodiyot texnologiyalar transferini rivojlantirish va uni tartibga solishda alohida o‘rin tutishi va bu jihatdan ishtirokchilarning innovatsion faolligini rag‘batlantiradigan kraudsorsing (kraudfanding) platformalari,

klasterlarni joriy etish muhimligi, shuningdek, milliy, mintaqaviy va xalqaro texnologiyalar transferi uchun raqamli platforma mavjudligini ta'minlovchi huquqiy baza va mexanizm zarurati isbotlangan; raqamli platforma doirasida texnologik talab va takliflarni joylashtirish, innovatsion yechimlar ichida tanlov o'tkazish, bunda sun'iy intellektga asoslangan tizim avtomatik tarzda istiqbolli texnologiyalarni aniqlashi, milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda loyiha va texnologiyalarni ilgari surishini ta'minlashi kerakligi ko'rsatib berilgan; raqamli iqtisodiyot doirasida texnologiyalar transferi axborot mahsuloti yoki raqamli obyekt ko'rinishida rivojlanayotganligi isbotlanib, axborot mahsulotlari tarqatilish formatiga emas, balki axborot, ta'lim, madaniy yoki ko'ngilochar mazmuniga qarab, shuningdek, bunday mahsulotlarning axborot mazmuni uni turli shakllarda tarqatish va almashish imkoniyatidan kelib chiqib tartibga solishning alohida huquqiy mexanizmlari yaratilishi zarurati asoslab berilgan; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini takomillashtirish axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasi mutaxassislari sonini ko'paytirish strategiyasini ishlab chiqish, barcha davlat xizmatlari onlayn rejimida bo'lishini ta'minlash, tadqiqot faoliyati va startaplarni rag'batlantirish, foydalanuvchilarning asosiy huquqlarini himoya qilish va raqamli iqtisodiyotga ishonchni mustahkamlash uchun raqamli faoliyatni tartibga solish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, noqonuniy kontentdan himoya qilish va ma'lumotlarni boshqarishni soddalashtirish maqsadga muvofiq va zarur, deb topilgan; dastlabki bosqichda O'zbekiston Respublikasining "Texnologiyalar transferi to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi, shubhasiz, respublikada innovatsion faoliyatni faollashtirishga xizmat qilishi asoslangan; keyingi bosqichda intellektual mulk, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi sohasidagi qonun hujjatlarini tizimlashtirish zaruratidan kelib chiqib, yagona kodeks – Intellektual mulk kodeksini qabul qilish hamda soliq va bojxona qonunchiligini liberallashtirish zarurati asoslab berilgan; Intellektual mulk kodeksi intellektual mulk huquqi va uning hududiy hamda hududlararo tabiati, innovatsiyalar va texnologiyalar transferini tartibga solish, shuningdek, raqamli voqelikni, xususan, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, kiberdunyolarni hisobga olgan holda yangi huquqiy tartibotlarni kiritish sohasidagi barcha tamoyillarni belgilash va sun'iy intellekt mualliflik huquqi egalarining intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan bo'lishi zarurligi asoslab berilgan hamda kodeks konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilgan.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.